



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING


SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 6-son.

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz



Adiblar xiyoboni bugun har doimgidan-da gavjum. Undagi O'zbekiston qahramoni, Xalq yozuvchisi **Said AHMAD** va uning rafiqasi **Saida ZUNNOVA** siymosi gavdalanib turgan majmua o'ziga xos adabiy muhitni jilolantirayotgani bilan barchani rom etadi.



Metodik tavsiya

Darslikdagi matnlar –
PISA asosi

9
bet



Ilg'or pedagogik
texnologiyalar

Ona tili darslarida matnni
o'qib tushunish malakasi

22
bet



Tadqiqotlar

G'ozim Olim Yunusov –
ma'rifatparvar
folklorshunos

32
bet



Литературоведение

Художественный гений
Данте в культурной
традиции
позднего Средневековья

74
bet



ZULFIYAXONIM IZDOSHI



SHIJOAT PARVOZGA ELTADI

Yurtimizda o'zi tug'ilgan zamini, vataniga munosib farzand bo'lishga intilayotgan yoshlar talaygina. Jizzax Politehnika instituti "Arxitektura va qurilish" fakultetining 3-bosqich talabasi **Sevara ILXOMOVA** o'zining qobiliyati, iste'dodi va tashabbuskorligini namoyon eta bilgan ana shunday vatanparvar yoshlardan. U ustozlaridan olgan bilimlarini amaliyot bilan uzviy bog'lagan holda "Fuqaro va sanoat binolari arxitekturasi", "Arxitektura vaqurilish sohasida me'yoriy hujjatlar tizimi" kabi mavzularda o'quv-uslubiy qo'llanma e'lon qilgan. Shuningdek, xalqaro miqyosidagi simfozium va respublika anjumanlarida ma'ruzalari bilan qatnashib, turli arxitektura loyihalarini taqdim etib keladi.

Izlanuvchan va shijoatli qahramonimiz "Learn English" maktab yoshidagi bolalarni ingliz tiliga o'rgatish uchun, "Kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda axborot-resurs markazlarining roli" mavzularida uslubiy ko'rsatmalar yaratgan.

"Madaniyatga, ma'rifatga va ezgulikka eltuvchi yo'l – bu kutubxona" shiori ostida o'tkazilgan "Kasbim – faxrim" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida Sevaraning amaliy ishlari yuqori baholanib, birinchi o'ringa loyiq deb topilgan.

S.Ilxomova 2020-yilda fan yo'nalishi bo'yicha Zulfiya nomidagi Respublika davlat mukofotining sohibasi bo'ldi. Uni qutlagan holda, vatan ravnaqi yo'lidagi faoliyatiga yuksak parvozlar tilab qolamiz.

M. Do'stmuhamedova



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 6-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOVI
Nargiza RAHMONOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar Namozova
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 25.06.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₄. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" garniturasini. 10, 11 kegl. "PRINT REBEL" MCHJ matbaa korxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., O'razboyev ko'chasi. 35-uy. Buyurtma 16. Adadi 4100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

SUHBAT

Nigora URALOVA. "Madaniyatli inson adabiy til me'yortariga amal qiladi"

TILSHUNOSLIK

Yorqinjon ODILOV. O'zbek tili publitsistik uslubii rivojida evfemizmlarning o'rni
R.Ayatov. New approaches in the art of literary language

METODIK TAVSIYA

Manzura SATTOROVA Darslikdagi matnlar – PISA asosi9
Nargiza IBOTOVA. "Qutadg'u billig" asari ta'sirida o'quvchilarda komillik belgilarini takomillashtirish11
Beg'am QORAYEVA. O'zbek tilini chet til sifatida o'rganish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish12
Mohidil NIZOMOVA. Darslarda noan'anaviy usullardan foydalanish14
Oydin AMETOVA. Folklor namunalari – nutq o'stirish omili sifatida15
Zuxra XAZRATOVA. Chet tilni samarali o'rgatishda ommaviy axborot vositalarining o'rni16
Buzulayho QODIROVA. Boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyot namunalari o'rganish17
Saida MAKSUMOVA. Rusiyazbon talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda klaster metodidan foydalanish18

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Nargiza XODJAQULOVA. Masofaviy ta'lim MOODLE platformasi misolida20
Feruza SHAROPOVA. Ona tili darslarida matnning o'qib tushinish malakasi22

TAHLIL

Komiljon HAMRAYEV. Hikoyada so'nggi jumlaning poetik vazifasi24
Ravshan IKRAMOV, Norqul BEKMIRZAYEV. "Avesto"da ayol va oila huquqlari talqini26
Abduraxmon BODIROV, Ulug'bek SANAQULOV. Ikkinchi Jahon urushi yillarida Samarqandda nazm va nasr27
Ayjan NARMATOVA. Chet tillarni o'rgatishda tinglab tushinishning o'ziga xos xususiyatlari29
Gavhar RAHMONOVA. Teaching phonetics in secondary schools31
Ulug'murod AMONOV. G'ozii OlimYunusov – ma'rifatparvar folklorshunos32

TADQIQOTLAR

Zayniddin NARMURATOV. Ingliz va o'zbek tillarida maqol hamda matal tushunchalarining talqini34
Rafiqjon ZARIPOV. Multilingvlar va bilingvlar nutqida lakunalarning ifodalanishi36

KICHIK TADQIQOT

Xurshida RAHMONOVA. Tarixiy shaxs obrazi va uning badiiy talqini38
Konisbay YUSUPOV. Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyoti40
Nilufar KADIROVA. Retseptiv estetika adabiy ta'lim tajribasida42
Husnigul JO'RAYEVA. Husayniy ijodi turk olimlari talqinida44
Dilafuz MUQOMOVA. Shayx Kamol Xo'jandiy va Riyoziy Samarqandiy ijodidagi musharaklik45
Nasima QODIROVA. Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi yangicha izlanishlar47

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ – 2020

Мақсуда НАЖМИДДИНОВА. Заговор «Пушкин»: тайна остается нераскрытой49
Клара УСМОНОВА. Огнозательные знаки при изучении русского языка и литературы50
Шоира САМИЕВА. Интеллектуальная игра «Литературное веретено»52

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Альмира АБУТАЛИПОВА. Узбекская литература второй половины XX – начала XXI века. Обзор литературного процесса. Саид Ахмад. «Бунт невесток»54
Гулбахор БЕРДИКУЛОВА. Лингвистическое путешествие на Остров сокровищ55
Ирина МОРОЗОВА. Использование приемов ТРКМЧП при изучении темы «Глагол русского языка»58

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Мукаррама БЕРДИЕВА. Действительные и страдательные причастия60
Эльвина АЛИЕВА. Инновационные интерактивные и активные педагогические методы на занятиях по синтаксису русского языка в вузе62
Равшана ИСАКОВА. Внедрение инновационных технологий при закреплении грамматических конструкций речи64
Саодат ИСМАИЛОВА, АЗИЗА БЕДИЛОВА. Игра как форма обучения на уроках русского языка65

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Насиба НИЯЗОВА. Использование коммуникативного подхода к изучению русского языка67
Алина ЗИГАНШИНА. Игровые технологии на занятиях по литературе68
Гулноза САБИРОВА. Психологические аспекты формирования иноязычной речевой компетенции школьников с использованием Web-технологий70

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Майя ЭМ. Знание страноведения – гарантия успешного овладения иностранными языками в техническом вузе73

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ


Дильяра БАЛИЧ, Наталья ПЕТРУХИНА. Художественный гений Данте в культурной традиции позднего Средневековья74

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Мухаббат ХАЛМУРАТОВА. Роль и значение инновационных технологий при изучении русского языка76

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Эльянора СЕРГЕЕВА, Олег КОН. Изучение текста литературного произведения в процессе преподавания иностранного языка78



XALQ ARDOG'IDAGI ADIB

Adiblar xiyoboni bugun har doimgidanda gavjum. Unda qad rostlagan siymolar ichida Said Ahmad va uning rafiqasi Saida Zunnunovaning haykali alohida ajralib turibdi. Haykal poyi gullarga to'lgan.



O'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, atoqli adib, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi Said Ahmad tavalludining 100 yilligi sinovli kunlarga to'g'ri kelganiga qaramay ko'tarinki ruhda nishonlandi.

Karantin qoidalariga qat'iy amal qilgan holda Adiblar xiyoboni-da ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Yozuvchilar uyushmasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va boshqa tashkilotlar tomonidan Zoom platformasida videokonferensiyalar tashkil etildi.

Said Ahmad o'zbek adabiyotida mohir hikoyanavis, o'tkir hajvchi sifatida xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lgan yozuvchidir. Adib ijodining o'ziga xosligini yumorsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Asarlaridagi obrazlarning betakrorligi, o'zgachaligi, xalqchilligi uni yanada o'quvchiga manzur etgani shubhasiz. Shu boisdan bo'lsa kerak, yozuvchini xotirlash uchun soha vakillaridan tashqari oddiy kitobxonlar ham tashrif buyurishdi.

To'yga to'yona deganlaridek, "O'zbekkino" Milliy agentligi tomonidan besh qismli "Sabru sadoqat" nomli kinoserial yaratilib, yurtimiz telekanallari orqali namoyish etildi. Shuningdek, Said Ahmad ssenariylari asosida suratga olingan "Kelinlar qo'zg'oloni", "To'ylar muborak" va "Muhabbat mojarosi" filmlari sifati yaxshilangan holatda tomoshabinlar e'tiboriga qayta taqdim etildi.


Bularning bari xalqimiz uchun millat ardog'idagi adibning 100 yillik to'yiga haqiqiy tuhfa bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi hamda Xitoyning Weidong Cloud Education kompaniyasi elektron ta'lim tizimida qo'llash uchun kompyuter uskunalarini ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risida kelishuv imzoladi. Unga ko'ra o'qituvchilar kompyuterlarni arzon va lizing orqali uzoq muddatda bo'lib to'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasining mudiri,

amaliyotchi tarjimon Xayrulla Hamidov va uning talaba-shogirdlari tomonidan Said Ahmadning o'nlab mashhur hikoyalari turk tiliga tarjima qilinib, kitob holida nashr qilindi.



Kitobsevarlar uchun "kitob.uz" yagona bilim portali o'z faoliyatini olib bormoqda. Unda 1000dan ziyod madaniyat va san'at, taniqli insonlar biografiyasi, darsliklar, doston, tarix, psixologiya, axborot texnologiyalariga oid kitoblar hamda o'zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'lishingiz mumkin. Portalda barcha kitoblar bepul bo'lib, ularning aksariyati audio versiyaga ega. Buning uchun "kitob_uz_bot" telegram kanaliga kirib, botni faollashtirishning o'zi kifoya.

Muxlisa DO'STMUHAMEDOVA



“MADANIYATLI INSON ADABIY TIL ME'YORLARIGA AMAL QILADI”

Milliy tilning mavjudligi va unga hurmat ko'rsatish, umuman, bu hodisaning nima ekanligini tushunish kishiga yuksak ma'naviy qoniqish hissini beradiki, buni madaniyatliman degan kishi yaxshi anglaydi. Demak, madaniyat va milliy til bir-biridan uzoq tushunchalar emas ekan. Insonning o'z ona tiliga hurmati va shu tilni qay darajada bilishi uning madaniyatidan darak beradi. Madaniyatni tom ma'noda tushungan har qanday inson o'z ona tilining softligi, uning dunyo tillari orasidagi mavqe-martabasi, e'tirofi va tantanasi uchun o'zini mas'ul hisoblaydi.

Shu nuqtayni nazardan Xalq ta'limi vazirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Umida Muslimova bilan bo'lgan suhbatimiz anchayin qizg'in kechdi.



– Umida opa, avvalo, zimmangizdagi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda sizga kuch-quvvat tilaymiz. Suhbatimiz avvalida Xalq ta'limi vazirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha maslahatchisining vazifasi nimalardan iboratligi haqida gapirib o'tsangiz.

– Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvarda “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 34-son qaroriga asosan respublikadagi barcha vazirlik, qo'mita, hokimliklarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha maslahatchi lavozimlari joriy etildi.

Xalq ta'limi vaziri maslahatchisining asosiy vazifalari:

– xalq ta'limi tizimida davlat tili to'g'risidagi qonun hujjalari talablariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishida ishtirok etish;

– vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar tomonidan taqdim etiladigan barcha turdagi hujjatlarning davlat tilida bo'lishini ta'minlash;

– Xalq ta'limi muassasalarida 21-oktabr “O'zbek tili bayrami” kunining keng nishonlanishi hamda bayram arafasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida “O'zbek tilim – iftixorim” respublika insholar tanlovini tashkil etish;

– Xalq ta'limi tizimida O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalarni kengaytirilgan yig'ilishlarda muhokama qilinishini ta'minlash;

– Xalq ta'limi tizimidagi barcha ta'lim muassasalari va ularga tegishli hududdagi tashqi yozuvlar, jumladan, lavhalar, e'lonlar, reklama materiallarining davlat tiliga muvofiq bo'lishini nazorat qilish; ommaviy axborot vositalari, internet saytlarida o'zbek tilining kelib chiqish tarixi, bu borada olib borilayotgan ishlar, davlat tilini keng targ'ib qilish, lotin yozuviga asoslangan o'zbek imlosini o'rgatishga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, maqolalar berib borish;

– Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarining internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarida o'zbek tilini keng targ'ib etish, ona tilini ulug'lovchi hikmatli so'zlar, fikrlar, mulohazalar, she'rlar, maqolalar, matnlar, qisqa hikoyalar kabi matnlarning ommaviy tarzda joylashtirilishini tashkil etish;

– vazirlik hamda uning tizimidagi tashkilotlarda davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, xalq ta'limi sohasida ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarini iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

– Aksariyat hollarda ko'cha-ko'yda, ba'zan ta'lim daroghalaridagi tashqi yozuvlar, jumladan, e'lonlar, lavhalar, reklama va ko'rgazmali axborot matnlarida o'zbek tili – ona tilimiz qoidalarining qo'pol buzilishi, qator imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarning mavjudligi dilimizni xira qiladi. Bunday xato va kamchiliklarni bartaraf etish, matnlarning qonun hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash borasida bugungi kunda qanday ishlar amalga oshirilmogda?

– To'g'ri aytasiz, bu borada Xalq ta'limi vazirining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hovlisi, bino va yo'laklari hamda sinf xonalarini banner va stendlar bilan jihozlashning namunaviy talablarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'i ishlab chiqilib, buyruq bilan yo'riqnoma tasdiqlangan hamda barcha hududiy boshqarma va muassasalarga yetkazilgan. Bugungi kunda ta'lim muassasalari binolarining peshlavhalari va yo'laklariga ilingan tashqi yozuvlar, banner va e'lonlar ishchi guruh tomonidan xatlovdan o'tkazilmogda. Yangi o'quv yili boshlangunga qadar xalq ta'limi tizimidagi barcha ta'lim muassasalari va ularga tegishli hududdagi tashqi yozuvlar, jumladan, lavhalar, e'lonlar, reklama materiallarining davlat tiliga muvofiqligiga erishish rejalashtirilmogda.

– O'tgan yilning 21-oktabr kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan “O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonda 2020-yilning 1-iyuniga qadar 2020–2030-yillarda O'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritish ham ko'zda tutilgan. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bu borada qanday takliflar ilgari surilmogda?

– Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2020–2030-yillarda O'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturiga “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinganligini munosib nishonlash yuzasidan “O'zbek tilim – iftixorim” respublika insholar tanlovini o'tkazish, Alisher Navoiy tavallud topgan kun munosabati bilan ta'lim muassasalarida “O'zbek adabiy tilining asoschisi” mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, ta'lim muassasalari kutubxonalarini lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi badiiy adabiyotlar bilan boyitib borish bo'yicha takliflar berildi, shuningdek, ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan sinf (guruh)larda 2020–2030-yillarda O'zbek tilini o'qitish metodikasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

– **Yoshlar tarbiyasi, milliy tilimiz va adabiyotimizga qiziqtirish, ular qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish, mamlakatimiz tarixi va tilimizni chuqur o'rganishlari, uning betakrorligi, go'zalligini his qilishlari uchun alohida izlanishlar olib borish bugungi kun talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalq ta'limi vazirligining ham yoshlar bilan ishlashda belgilagan rejalari bo'lsa kerak.**

– Albatta. Bu borada alohida izlanishlar olib borilishi taqozo etilmoqda. Ayniqsa, **Ona tili** darslarini shablon metodlar asosida emas, yangicha, innovatsion usullarda tashkil etish shu soha mutaxassislari va ta'lim tizimi mutasaddilari oldidagi birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Bu borada xalq ta'limi vazirligida kelgusida bir qator yangiliklar joriy etilishi rejalashtirilgan. Xususan, kelajakda o'quv dasturini soddalashtirish, o'quvchilarni zerikarli ma'ruzalar, murakkab grammatik qoidalarni quruq yodlatish bilan cheklanmay, ularning so'z boyligini oshirish maqsadida darsliklardagi grammatik qoidalarni 90 foizdan 50 foizga tushirish, bunda tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlariga oid ayrim mavzularni bakalavr bosqichiga ko'chirish ko'zda tutilmoqda. Chunki o'quvchiga grammatik yuklamalar, nazariy qoidalarning haddan ziyod ko'p berilishi, ularni ortiqcha darajada murakkabligi o'quvchilarni fanni chuqur o'zlashtirishlariga to'siq bo'libgina qolmasdan, qaysidir ma'noda darsdan ko'ngli sovushiga sabab bo'lmoqda. Buni ko'p yillik amaliy tajribalar va o'quvchilarimizning fanga munosabati ochiq-oydin ko'rsatib turibdi.

O'zbek tili ta'limini takomillashtirish pirovardida o'quvchi matnini o'qish, o'qiganini tushunish va tushunganini yoza olish salohiyatiga ega bo'ladi. **Ona tili** darslari o'qitilishining asosiy vazifasi, ustuvor mohiyati ham shunda ko'rinadi.

Mazkur jarayonda o'quv darsliklari bilan birga **“O'quvchi mashq daftari”** va **“O'qituvchi kitobi”** yaratilib, ularning amaliyoti parallel ravishda olib boriladi. Qolaversa, **Ona tili** ta'limida xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida raqamli diktantlar, audio va video materiallar, mantiqiy va fanlararo integratsiyani o'zida mujassam etgan matnlar beriladi, mashg'ulotlar so'nggida o'quvchilarning so'z boyligi, savodxonligini oshirish maqsadida **PISA** va **PIRLS** topshiriqlari kiritiladi.

– **Bugungi kunda tilimizda anchayin avj olgan bir muammo bor. Bu ayrim kishilarning o'zbekcha gapirib ruscha, ruscha gapirib o'zbekcha yoki inglizcha so'zlarini aralashtirishlari bilan bog'liq. Ayrimlar buni kichik muammo deb o'ylashlari mumkin. Ammo buning ortida, nazarimizda, milliy qiyofasizlik masalasi yotadi. Eng yomoni, o'z fikrlarini go'yoki “shir-u shakar” qilib bayon etayotgan o'sha kishilar bu ishlarini zamonaviylik, madaniyat deb tushunishlaridir. Bu boradagi fikrlaringiz bilan o'rtolashsangiz...**

– Har bir millatning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk boyligi bor. Bu ham bo'lsa uning tili. Aynan til odamlarni bir

millatga mansub xalq sifatida birlashtiradi. Til – har bir millat o'zligining ajralmas belgisi, xalqni – xalq, millatni – millat qildigan ramzlardan biri. Asrlar osha avloddan avlodga bevosita meros bo'lib yetib keladigan o'zaro muomala vositasidir. Mamlakatimizda 1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi istiqbolimiz sari qo'yilgan dadil qadamlardan biri sifatida tarixga muhrlangan edi. Ayni paytda ona tilimizga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham yuqori pog'onaga ko'tarilib, uning boy xazinasini qayta tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotir.

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanyapti. Nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagilar ham til o'rganishga astoydil bel bog'lagan. O'z tilidan tashqari yana o'zga xalqlar tilini mukammal biladigan, unda o'z tilidek bimalol so'zlasha oladigan insonlarni hurmat qilaman. Ayniqsa, hozirgi kun yoshlarining bir qancha tillarda erkin so'zlasha olishlari meni quvontiradi, ko'nglimni faxr va iftixorga to'ldiradi. Ularga havasim keladi. Lekin ba'zan jamoat joylarida, hatto oynayi jahonda ham o'zini o'ta madaniyatli deb bilgan ba'zi insonlarning o'z tilini buzib, unga turli tildagi so'zlarni qo'shib gapirayotganiga guvoh bo'lamiz. Bunday holatlarni o'z tiliga ham, o'zga tillarga ham hurmatsizlik deb bilaman. Mening fikrimcha, inson, avvalo, o'z ona tilini mukammal bilmog'i, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanmog'i lozim. Keyin esa o'zga tillarni o'rgansa ayni muddao bo'lur edi. Vaziyatni o'rganib, suhbatdoshining qaysi tilni yaxshi bilishiga qarab, ma'lum bir tilda gaplashmoq kerak. Gaplashganda ham adabiy til me'yorlariga amal qilib, barchaga tushunarli bo'lgan tilda so'zlashmoqlikni tavsiya qilgan bo'lardim. Haqiqiy ma'rifatli, madaniyatli, ziyoli inson shunday bo'limgo'i lozim.

Bugungi kunda biz barcha me'yoriy hujjatlarni davlat tilida yuritib, o'quv qo'llanmalar, adabiyotlarni ona tilida o'qimoqdamiz. Shuni ham ta'kidlash joizki, yuzdan ortiq millat va elat vakillari o'zaro tinch-totuv va birdamlikda yashab kelayotgan mustaqil yurtimizda ularning milliy madaniyati, urf-odatini, jumladan, ona tiliga hurmat-ehтиrom bilan munosabatida bo'lishga katta e'tibor berilyapti.

Ko'chib kiruvchi so'zlar to'plami ayrim hollarda “baynalminal so'zlar” sifatida xasposhlanadi. Bunga “biznes”, “market”, “mini”, “super”, “menejer”, “vip”, “lider”, “audio”, “video”, “aut”, “inter”, “servis” kabi bir qancha so'zlar misol bo'ladi. “Orgtexnika”, “kanselyariya” va bularga bog'liq vositalar, ji-hozlar nomlanishi ham shundayligicha qabul qilingan. Ayniqsa, kompyuter sohasidagi iboralar xorijiy nomlari bilan atalishi davom etib kelmoqda (masalan: файл, сайт, корзина, ссылка, гиперссылка, сноски, домен, сетевое окружение, слайд, спам, булутка va hokazo). Biz bu so'zlarning iloji boricha o'zbekcha muqobilini topishimiz kerak, albatta.

Til – millat ko'zgusi. Unda xalqimizning asrlar silsilasidan, mustabidlik to'fonlaridan sabr-matonat bilan bosib o'tgan hayot yo'li, madaniyati, tarixi, saviyasi, aql-zakovati aks etadi. Qadimgi ajdodlarimiz zardushtiyarning kitobi “Avesto”da to'rtta unsur – suv, tuproq, olov va havo muqaddas sanalgan. Men bular sirasiga beshinchi qilib tilni ham kiritgan bo'lardim. Tilimizni ham inson uchun muhim omil, aziz va qadrii unsurlar qatori muqaddas bilib, pokiza va ozoda saqlash, lug'atimiz ko'rki bo'lgan “VATAN”, “ONA”, “KITOB”, “MUSTAQUILLIK” kabi so'zlar mohiyatini chuqur anglash, milliy qadriyatlarimiz hamda til boyligimizni bor butunligicha kelajak avlodlarga yetkazish barchamizning burchimizdir.

– **Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat!**

Nigora Uralova suhbatlashdi.



Yorqinjon ODILOV,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi

O'ZBEK TILI PUBLITSISTIK USLUBI RIVOJIDA EVFEMIZMLARNING O'RNI

Globalashuv davri o'zbek tili publitsistik uslubi turli uslubiy figuralardan unumli foydalanilayotgani bilan ajralib turadi. Shunday uslubiy figuralardan biri evfemiya bo'lib, undan publitsistik matnlar tilining ta'sirchanligini oshirish, bir qadar ochiq, qaltis tuyulgan mazmunni yumshatish, "pardalab" ifodalash maqsadida foydalaniladi. Publitsistik matnlarda paydo bo'lgan yangi evfemik ifodalar tahliliga o'tishdan avval ushbu hodisani o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, lisoniy tabiati va lingvistik vazifalariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

O'zbek tilshunosligida evfemizmlarning paydo bo'lish sabablari, ifodalanishiga ko'ra turlari, qaysi tushunchalarning evfemiklashtirilishi kabi jihatlar juda batafsil, katta lisoniy material asosida o'rganilgan, bu orqali o'zbek evfemik nutqiga oid muhim chizgilar berilgan.¹ Evfemizmning lisoniy tabiati haqida milliy tilshunosligimizdagi tavsiflar bir-birini to'ldirganligi sababli A.Hojiyev va M.Mirtojiyev bergan tavsifni keltirish bilan cheklanamiz. A.Hojiyevning fikricha, evfemizm "narsa-hodisani ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash. Mas., *ikkifat*, *bo'g'oz* so'zlari o'rnida *homilador*, *og'ir oyoqli* so'zlarini qo'llash"²dir. M.Mirtojiyev esa evfemizmni "mavjud yoqimli ma'noli so'zga evfemistik ma'no berib qo'llashdir"³ deb tavsiflaydi.

Mazkur tavsiflarning birinchisidan evfemizmlarning tabulangan va yoki madaniy muloqot talabiga javob bermaydigan qo'pol, beadab so'z va iboralar o'rnida almashib qo'llanadigan lisoniy birlik ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Darhaqiqat, o'zbek tilidagi evfemizmlar ana shunday nutqiy maqsad talabi bilan nutqqa olib kiriladi va uning qay darajada o'rinli, jo'yali bo'lishi nutq egasining lisoniy layoqatligiga bog'liq. Ikkinchi tavsif evfemizmning lisoniy mohiyatini yanada aniqlashtirgan bo'lib, undan so'zlar alohida evfemizm sifatida hosil qilinmasligi, balki mavjud ijobiy ottenkali so'zga evfemik ma'no berib nutqqa olib kirilishi ma'lum bo'lmoqda.

Tilda fikr ifodalashning neytral, evfemik va disfemik tarzi bor. So'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga mos ravishda ushbu ifoda tarzlaridan birini tanlaydi. Agar so'zlovchi fikr ifodalashning evfemik tarzini tanlasa, tabiiyki, bu nutqda evfemik ifodalar salmoqli o'rin egallaydi. Va bunday nutqda evfemik vositalar xilma-xillik kasb etadi. Demoqchimizki, so'zlovchi so'z, frazeologizm, tasviriy ifoda, so'z birikmasi, gap, maqol, aforizm singari leksik-grammatik vositalar, qolaversa, metaforik, metonimik ma'no ko'chish usullaridan foydalangan

holda fikr ifodalashi mumkin. Zikr etilgan vositalarning to'g'ri tanlanishi va tatbiq qilinishi evfemik nutqning ta'sirchanligi, ko'zlangan maqsadga borib yetishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda publitsistik uslubda evfemik vositalarning vazifalari kengayib bormoqda. Ya'ni ular tabulangan yoki qo'pol, dag'al so'zlar o'rnida almashib qo'llanishdan tashqari ifodalanmoqchi bo'lgan fikrning qaltis o'rinlarini "pardalash", implitsit namoyon qilishdek aniq kommunikativ maqsadlarda foydalanilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi matnlarda yoki diplomatik nutqda buning yaqqol ifodasini ko'rish mumkin. Publitsistik uslubga oid matnlar asosan ijtimoiy-siyosiy mavzularda bahs etgani uchun evfemik vositalarning biz keltirgan xususiyatlarda voqelanganiga ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Internet jurnalistikasi yoritiladigan materialning erkin taqdim qilinishi va tarqatilish imkoniyatining kengligi sababli tez rivojlanib bormoqda. Evfemik vositalarning "pardalash", yumshatish kabi vazifalaridan virtual publitsistikada keng foydalanilmoqda. Masalan, qiyoslang: *Telegram'dagi kanallarda Sardoba suv omborining 1-may kuni soat 5:55 da buzilib, suv toshib chiqqan joyi videosi paydo bo'ldi. Unda to'g'onning bir qismi o'pirilib tushgani, ombordan suv oqib chiqayotganini ko'rish mumkin.* (<https://daryo.uz/k/2020/05/01/internetda-sardoba-suv-omborining-opirilib-suv-toshib-chiqqan-joyi-videosi-paydo-boldi>); *1-may kuni soat 05:55da Sirdaryo viloyatida joylashgan "Sardoba" suv ombori dambasining 6-piket devorida suv chiqishi yuzaga kelgan. Natijada Sardoba tumani Qo'rg'ontepa aholi yashash punktiga suv kirgan.* (<https://kun.uz/news/2020/05/01/sirdaryo-dagi-hodisa-boyicha-yangi-malumot-berildi>)

"daryo.uz" hamda "kun.uz" axborot tarmog'idan olingan yuqoridagi matnlar 2020-yil 1-mayda Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida ro'y bergan hodisa haqida. Birinchi matnda jurnalist yuz bergan falokatni boricha yoritgan va *buzilib, toshib, o'pirilib* so'zlarini ishlatgan. Ikkinchi matnda jurnalist o'quvchini xavotirga solmaslik, vahima uyg'otmaslik maqsadida evfemik bo'yog'i bor *chiqishi, kirgan* so'zlaridan foydalangan. Agar har ikki matnni qiyoslab ko'radigan bo'lsak, ikkinchi matnda qaltis tuyulgan o'rinlar evfemiklashtirilgani, fikr "pardalab" ifodalangani ma'lum bo'ladi. *Suv toshdi* birikmasida xatarlilik ottenkasi *suv kirdi* birikmasidan ko'ra ortiq va yaqqol bo'lgani uchun matn tuzuvchi *suv kirdi* birikmasidan foydalangan. Bu o'rinda mazmun-

ni evfemiklashtirishga xizmat qilgan *chiqishi*, *kirgan* so'zlari aslida evfemizmlar emas, ammo semantikasi-da evfemik bo'yoq borligi sababli tegishli so'zlar bilan birikib, evfemik vazifa bajargan. Nutqda til birliklaridan bu tarzda foydalanish ijtimoiy-siyosiy mavzudagi publitsistik matnlarning o'ziga xos belgisidir.

2020-yilning boshidan jahon publitsistikasi, jumladan, o'zbek publitsistikasida, ijtimoiy tarmoqlarda tojkor virus – koronavirus mavzusi juda ko'p yoritildi. Biz diqqat qaratmoqchi bo'lgan narsa "Koronavirus O'zbekistonda" jumlasidir:

Koronavirus O'zbekistonda:

<i>Koronavirus aniqlanganlar</i>	<i>Sog'ayganlar</i>	<i>Vafot etganlar</i>
2046	1133	9

Yoki: Koronavirus O'zbekistonda:

<i>Yuqtirganlar</i>	<i>Sog'ayganlar</i>	<i>Vafot etganlar</i>
2046	1133	9

"Koronavirus O'zbekistonda" tarzidagi gap tuzish qolipi, asosan, ko'tarinki ruhdagi matnlarda qo'llanadi. Ammo til sezgisi no'noq jurnalist tuzgan mazkur jumla gazetadan gazetaga, tarmoqdan tarmoqqa ko'chdi. Bizningcha, tantanali uslubga xos mazkur gap qolipi mavjud voqelik mazmuni va til egalarining ayni paytdagi kayfiyatiga mutlaqo zid. Shiordek jaranglaydigan ushbu jumla o'rnida tantanavorlikdan xoli, jamiyat kayfiyatiga mos gaplardan foydalanish lozim edi.

Shuningdek, "Koronavirus aniqlanganlar" va "Yuqtirganlar" ifodalarning birinchisida tushunchani evfemiklashtirish, ikkinchisida tushunchani disfemiklashtirish bor, ya'ni *yuqtirgan* so'zidagi xatar ottenkasi *aniqlangan* so'zida yo'q. Ayrim ijtimoiy tarmoqlarda *zararlangan* so'zi ham qo'llanmoqdaki (*MDH davlatlari orasida eng ko'p koronavirus bilan zararlanganlar Rossiyada qayd etilmoqda*. (<http://darakchi.uz/uz/>); *Avval xabar berganimizdek, O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi bilan zararlanganlar 145 nafarni tashkil qilmoqda*. (<https://www.xabar.uz/>), bu ham *yuqtirgan* so'zidagi xatar ottenkasini "pardalaydi", yashiradi, yumshatadi.

Globalashuv davri publitsistik uslubida ijtimoiy-siyosiy mazmundagi shunday evfemik birliklar borki, ularning ijtimoiy-siyosiy mavzudagi matnlarda ilk bor qo'lla-

nishidayoq evfemik maqsad bo'lgan. Masalan, *band bo'lmagan aholi* birikmasidagi *band bo'lmagan* so'zi *ishsiz* tushunchasini pardalash maqsadi bilan hosil qilingan bo'lib, publitsistik matnlardagi faol evfemizmlardan biridir. Masalan: *Shu bois partiya tashkilotlari band bo'lmagan aholi va kollej bitiruvchilarini ishga joylashtirishga qaratilgan loyihalar hamda tadbirlarni o'tkazib kelyapti*. (<http://uzbekistonovozi.uz>) *Ish bilan band bo'lmagan aholi vakillariga ishga joylashish borasida mehnat organlari tomonidan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini o'tkazish orqali ko'mak ko'rsatildi*. (<http://uzbekistonovozi.uz/>)

Yoki *bandlik muammosi* birikmasi tarkibida *bandlik* so'zining *ishsizlik* so'zi o'rnida qo'llanishi muammo maqomidagi tushunchani "pardalash", ifodadagi keskinlikni kamaytirishdek kommunikativ maqsad bilan bo'lgan. Masalan: *Ushbu farmonning partiyamiz elektorati uchun ahamiyatli tomoni shundaki, tadbirkorlik rivojlanisa, yangi ish o'rinlari ko'payadi, bandlik muammosi yechimiga xizmat qiladi, ijtimoiy himoya kuchayadi, aholi turmushi farovonlashadi*. (<http://uzbekistonovozi.uz/>) – *Pirovardida, aholi turmush darajasi yuksalib, bandlik muammosi samarali hal etilishiga erishilyapti*. (30-son, 2013. <http://turkistonpress.uz/>) Yoki "ishsiz" tushunchasining vaqtincha *band bo'lmagan* birikmasi bilan voqelanishida ham evfemiklashtirish maqsadi bilan bo'lgan. Qiyoslang: *O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasining asosiy vazifasi vaqtincha band bo'lmagan aholi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ...jalb etilganda, ularning mehnatini moliyalashtirishdan iborat*. (<http://uzbekistonovozi.uz/>)

Evfemik maqsad bilan bir qator muassasa nomlari o'zgartirildi. Masalan, *qamoqxona* so'zi o'rnida *jazoni ijro etish muassasasi* (Vazirlar Mahkamasining ...farmoyishiga muvofiq *jazoni ijro etish muassasalarida* rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib borildi. (uzbekistonovozi.uz) Bunday evfemizatsiya natijasida kishida salbiy taassurot qoldiradigan denotativ ma'no bir qadar yumshaydi, evfemistik vazifadagi nom esa denotativ ma'noni to'g'ridan to'g'ri va ochiqdan ochiq ifodalamaydi, balki ishora qiladi.

Yuqoridagi tahlillar globallashuv davri publitsistik uslubida evfemik ma'no bilan yukungan til birliklaridan unumli va kommunikativ maqsadga mos foydalanilayotganligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. So'z va birikmalar misolida ko'rsatilgan evfemiklashuv jarayonlari qaltisdek tuyulgan va noxush kayfiyat uyg'otadigan o'rinlarni "yumshatish", "pardalash" ehtiyoji bilan bo'lgan.

¹Исмаатуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1963; Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006; Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010; Qodirova X. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati. Filol.fan.nomz.diss. – Toshkent, 2011.

²Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 131-bet.

³Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 120-bet.

R.Ayatov,
 teacher of the Department of Foreign
 Languages of Tashkent region
 Chirchik State Pedagogical Institute

NEW APPROACHES IN THE ART OF LITERARY LANGUAGE

Art is the essence of human life. The idea that life without art is an act of cruelty is an axiom. However, listening, seeing, feeling art, and its enjoyment, as well as understanding it, is the problem of its comprehensive interpretation. The basis of art is a simple human culture. At the same time culture is the basis of human and international tolerance. In terms of understanding art, human beings use the highest form of emotion - a word.

Artistic literature is the art of words. Language is realized in different ways: human language; animal language; the language of plants.

These forms of language can be used to respond to the social context of users. In this regard, as we consider the language of human-social communication, we must also distinguish ethnic-geographical categories of language: national language; state language; international language.

The national language is always expressed in different ways: national language, literary language, official language, scientific and publicist language, book language, the language of an interview, Chinese language, native language, the language of different strata and groups, artistic language.

There are limited and unlimited language forms depending on the scope of its application. There are many classifications of language, and the division between them still occurs. However, we want to think about the way in which forms of language can be summarized; and in our opinion this is a literary language and artistic literature.

The art of artistic literature has a generalizing character, because artistic work shows the social reality and characters in it. "In the development of artistic literature, the author studied the wisdom of the folklore, the collective creative work of countless descendants, the experience of creating images, the richness of language and the horizons of imagination." However, a work of art can be directly applied to any expression of the language through the author's personality and the figurative linguistic scale. Scientific, official, public, dialectal, restricted and unrestricted language is its expression aspect. Therefore, the art of artistic literature has a mass character. It is this popularity that turns the Hermeneutics of artistic literature into a social phenomenon.

In the process of hermeneutic analysis of the text as a work of art, one of the most important attributes of artistic literature is art, i.e. the relation of art to philosophical and aesthetic fantasy in the human mind, artisticity is closer to the notions "originality", "exception", "normalization" and this is the first requirement for the art of existence. These meanings arise in the shape of the literary sample. Figures and directions are the specific aspects of logic. Knowing - thinking is the activity, and this activity of the mind reflects the language. Fiction is also a language of its kind in art literature.

Artisticity is artistic language. Another important feature of the artistic literature is that it is an example of individual creation. The most important phenomenon in fiction is that

individualism is the essence of the creator's work that he is trying to convey to humanity through his work. This principle covers the entire category of creation. The existence of the universe is expressed in a straightforward manner: by forms of expression, language and speech. Artistic work is a realistic version of artistic speech.

Language is the state of the nation's consciousness. As a rule, everyone realizes his thoughts through language. Language is the key to intelligence in the world. Speech is a written, oral, intuitive form of language. The expression is the speech that can be seen in the sound of an actual language. All of these phenomena are common in the national language, and individual creativity is unique. Individual creativity requires a single language, namely the new language. With the exception of the real form of art, the fact that literary literature is a shadow of artistic imagination and a particular artwork, we recognize that such contexts are connected only to one form of artistic existence. Artistic literature is a figurative perception of the existence of these realistic material processes and their appearance is proportional to the nature of human beings.

Creativity is based on the artistic personality of art. Everything is empty, but it is the simplest form of unbroken originality. In the phenomena of the universe, only infiniteness is involved. Any femoral event indicates a general association. It leads us to syllogism. The weakest place of human thought is that it is the syllogisms - the denial of denial or the fact that the causes and consequences remain. This is the case of materialism, which is realism.

The uniqueness of the work is often the subject of the genius's efforts to break through the shell. This category is the state of the human mentality in understanding the laws of nature and society. Human beings should be able to enlarge the history and the future with what is happening, to keep them in mind, to imagine and to reconsider the events, and most importantly, to make their own conclusions, concepts. A phenomenon that can offer such an opportunity can create an idea of existence of an individual and the universe of existence through it. Any phenomenon is manifested primarily by human imagination. The imagination works with images. This phenomenon confirms the art as the most important precondition for understanding of the existence.

When the thoughts turn into speech, they can turn into pearls of thought. Everyone has an individual world, his or her own land, dreams, nations and oceans, and all the existence of the Earth is in a way that one which is in human beings' mentality. So, every human being has a unique world. The literary reflection of this world literally means creativity.

Hermeneutic individualism is the most important condition of living. The only work which discovered the universe individually or discovered the individual state of the mind makes its author famous and it lives for the next generation as a classic example: fame - popularity, popularity - celebrity. A prominent

person is a person who has come up with a material, a real shell. This happiness favors only talented people. Talented ones are geniuses and creators. In the community, the idea is merely materialized, enslaved to reality, and destroys creativity. That is why creativity is a great land of thought. Individual thinking is celestial, the celestial is originality innovation is uniqueness, uniqueness is creativity.

Creativity and individuality are united in this system. As we have already seen, any individuality is still associated with social thinking because its meaning should be understood by society. If society is unable to understand individualism in it, a person of this kind of individualism is considered to be unreasonable, and society does not accept it. Individuality and creativity are understood only by the unique form of language. In this regard, we consider thinking and consciousness as a key to the reality. However, it should be noted that realism restrains creativity. Connecting individualism to creativity and emotion is one of the requirements of Romanticism (England, the romanticism of the 19th century). Emotion denies intelligence, logic, and rationality. All the events call for events to be governed by passion, emotion, heartbeat, and heart feeling, not by perception. These categories are reflected in the imagination and, therefore, the imagination is recorded as the state of existence. Any idea of the existence of the imagination can be processed by the author's desire. The existence of creativity gives talented people the opportunity to feel the original appearance of the universe, and to imagine. This is the basis for Belinskiy to admit that Shakespeare's works have become a means for humanity to have intelligence twice more than ever. The process of forming the artistic language in accordance with the work of the art will be reflected in the above requirements. The artistic language is often monitored by the use of linguistic and lingo-poetic means of the formation of hermeneutic means. The meaning of the words must be subordinated to the spirit, subtle, or conscious, intelligent work of the Creator, whether in the individual or in the background, according to the archetype of the work. This is in a variety of ways in the genre of the genre: in a small and short form of poetry, in a broad and detailed, dramatic, but periodically, system of events that occur rapidly in less time. In the theory of Aristotle's syllogism, inductive and deductive methods of creating whole and fragmentary gravity in the presence of one's being in the society, whether it is big or intelligent, strong, small, or mentally weak, artistic literature creates events based on social psychology of the time. Humanitarianism requires the proper understanding of each condition of existence and its adequate treatment, based on its own mentality.

Now, one of the important features of fiction, which should be taken into account in the formation of the work of art, is to become popular. Popularity is an important prerequisite for the function of functioning of art, its formation in hermeneutic

conditions. Artistic work can only be a literary, artistic example when it is widely accepted by the general public. The public accepts the work based on three important qualities that are united: artistic purposes, aesthetic needs and individual creation created by a genius. These three features reach the masses through the word of existence - the word of the speech, which has made the work of art. The word and its meanings are understood by the consciousness as the key to the true nature of the artistic work. This is how the linguistics and linguistic features of the art work can be seen.

Society expects a new work and a new word from the creator. In this regard, "a new word" means a new idea. At the moment, the word "a new word" also means other meanings, in addition to the meaning of "a new idea", "guidance" in the press, "superiority" and "stability" in politics, "fulfillment of promise" and others. When a human being is manifested through understanding and explanation of the existence of a man, he interprets it with words. So, the word lies on the basis of everything. The whole thing can be explained by a single word. This fact proves that the form of existence of the artwork depends on the language in public. The diversity of action and situation and events are within the scope of human linguistic possibilities. The phenomenon of human consciousness - that is, its material hub - does not turn into a word. That is not a language phenomenon. In the process of discovery of the diversity of life, artistic creativity often names, creates and presents these unseen events. Infertility in nature, in particular the aspiration to the center, emphasizes the most important role of generalization of events that is - phenomena, and their realization and generalization. Popularity is related to this feature of the language. At the beginning of the last century, European scientists have shown that sounds have different signs, like light. However, light lies in the origin of existence. Light appears in different colors. Hence, the sound that is sound-based, the sound that is based on them should be colored. Artistic force and power are determined by the same color spectrum. A brief analysis of the literary language has shown that the artistic work is a creature of creativity and a speech in the mind of a popular idea of the art.

The perception happens through forms of emotion and language. The real shell of the line is adequate to feel and speak. It is based on the fact that the artistic text is interpreted in a hermeneutical way by its language acquisition. The success of the artwork is linked to the diversity of the flames it creates and the originality of the color of the spark. The perfection, attractiveness and elegance of the artistic language are the most important guarantee of the success of the artistic work. Humanity accepts and promotes artistic work by means of this feature. Every member of the community sees, hears, feels and creates conclusions and thoughts from the relationships between nature and society. Katharsis is the key to social understanding in artistic literature.

References

1. Tiselton E. Hermeneutics. – Cherkassy, 2008.
2. Mikhailov A.A. Modern philosophical hermeneutics / A.A. Mikhailov. – Minsk, 1984.
3. Bakhtin M.M. Aesthetics of verbal creativity / M.M. Bakhtin. – Moscow, 1986.
4. Shpet G.G. Hermeneutics and its problems / G.G. Shpet // Context. Literary and theoretical studies. – Moscow, 1989-1992.
5. Sultonov I. Theory of Literature / I. Sultonov. – Tashkent, 1982.
6. Mallaev N. History of Uzbek Literature / N. Mallaev.

Manzura SATTOROVA,
 Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi
 4-maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

DARSLIKDAGI MATNLAR – PISA ASOSI

PISA (ingl. Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligi (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur bo'lib, bu dasturda qatnashishdan maqsad raqobatbardosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat.

Xo'sh, PISA dasturining maqsadi nima, u qanday zaruriyat tufayli paydo bo'lgan?

XXI asr – axborot texnologiyalari asri. Bu asr o'z mutaxassislarida oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o'z sohasida iloji boricha ko'proq ma'lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo'lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, online ensiklopediyalar, sohalar bo'yicha mukammal online bazalar yaratildiki, endi bu ma'lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi darajaliga aylandi. Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda, "kosa tagidagi nimkosa"ni ko'ra olish kompetensiyasi birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. PISA testlari xuddi shu o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotgani, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

PISAning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – o'qish savodxonligi bo'lib, bu insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushuna olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqatidir.

Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik xaritalar kabi rang-barang mavzudagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, jadvallarni tushunish, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho bera olish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bildira olish kabi kompetensiyalarni aniqlash hisoblanadi.

Yangi nashrdan chiqqan 8-sinf ona tili darsligidagi ko'pgina mavzular o'quvchilarni kelgusi PISA talablariga moslashi aniq. Mualliflarimiz tomonidan berilgan mavzular PISA talablariga muvofiq tanlangan. Xususan, shu darslikning 95-betida "Matn va lug'atlar bilan ishlash" mavzusi ostida "So'z sehiri" sarlavhali ikkita matn: "Hukmnoma", "Maktub" o'quvchilarga o'rganish uchun berilgan. Bu mavzuni yoritishda sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib olsak, darsdan ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Har ikki guruhdan bir nafar o'quvchi **133-mashq** matnini ifodali o'qib beradi.

1. Hukmnoma.

O'xshamag'an yerda bir xotinning arzga kelishi qo'rboshining ko'ngliga shubha soldi. Majhula xotinning

qanday arzi bo'lg'anlig'ini bilib ketishka tilasa ham, qushbegidan ruxsat olib qo'yg'ani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi. Qo'rboshi mahkama eshigidan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga o'ralg'an bir xotin qushbegi to'g'risig'a to'xtab, bukilib ta'zim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi. Shuning uchun qo'rboshining boyag'i shubhasi yana kuchaydi, qushbegining ko'zidan yo'qolib turish maqsadida o'zini eshikning orqasiga olib, ketmay to'xtadi.

Xotin shoshilib kavshini yeshdi-da, eshik ostida nimanidir paranj ichidan oxtarindi. Xotinning bu harakatiga tushunolmay ajablangan qushbegi:

– Ichkariga kirib arzingizni so'zlang, opa, – dedi.

Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldig'a borib, unga nimadir berdi-da, orqasig'a qaytib, eshik yonig'a kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch, to'rt buklangan bir qog'oz edi. Qushbegi sekin-sekin qog'oz taxtlarini ocha boshladi...

– Xudo rizosi uchun tezroq. Yo'qsa... ikki gunohsizning qonlarig'a botarsiz!

Xotinning bu so'zidan a'yon bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qog'oz taxtlarini ochib bitirdi va yo'g'on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o'qumoqqa oldi.

Maktubni o'qub chiqish uzoqqa cho'zilg'anliqdan nihoyatda toqatsizlashgan edi. Oxirda qushbegi maktubning so'ngrog'ig'a kelib to'xtadi-da, chaqirdi:

– Pirmat, Pirmat!

2. Maktub.

"Qudamiz Mirzakarim qutidorg'a va qudachamiz xonimg'a yetub ma'lum bo'lg'aykim, bizlar munda sog'-salomatdirmiz va ul jonibdagi siz hurmatlik va izzatliklarni parvardigori olamdin sihatlaringizni saloti xamsa oldida so'rab turmoqdamiz. Ba'daz maxfiy qolmag'aykim, kuyav o'g'lingiz xizmatlariga yuborilg'an edi. Inshoolloh, salomat yetkan bo'lsa kerak. Ammo siz hurmatlilarga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyoqimiz va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. Muhtaram siz burodarimizning shul yagona o'g'limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag'anlari bizning janoblaridin bo'lg'an minnatdorlig'imizni va yana o'g'limizg'a bo'lg'an marhamatlarini biroq tugallay olmadilar. Ammo kaminalari bu xususdagi aybni sizning ustingizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo'lg'an "yolg'iz tuyoqliq" savdosi sizning ham boshingizda bordir. Nachukkim, Otabekning ko'p umri Marg'ilonda o'tib, bizlarni ham siz o'ylag'an og'irliqqa solmoqdadir. Birodari aziz, siz manim bu so'zlarimdin xafa bo'la ko'rmangiz, zeroki, faqiringiz bu so'zlarni bir yo'sin kelish vajhidin yozib o'tdimiz. Dunyo orzu-havas uyi derlar. Yuqorida bayon qiling'anidek va o'zlari bilganlaridek, ayniqsa, qudashalarining dunyoga kelib kutkani shu yolg'iz o'g'ulning orzu-havasidir. Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo'qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham taalluqdor qilmoqchi bo'lib, bul ma'niga ba'zi harakatlarini qilib qo'ygan erdik. Bizlarning bul ra'yimizga o'g'lingiz qarshi tushib harchand rad qilsa ham, nihoyatida onasining so'zini yerda qoldirmasliq uchun qabul qilg'an

erdi. Ammo bul to'g'risidagi siz janoblarining ruxsatlaringiz ba'dida javob bermakchi bo'lib, xizmatlariga ketkan erdi. Siz hurmatlilar bul ma'nini savob toparsizlarmi-yo'qmi, bu jihati yana marhamatlaringizga bog'liqdir. Bu maktubni yozishdan qasdimiz shulkim, Otabekning u ikkinchi taalluqqa aslo ra'yi bo'lmay va yana sizlarga aytmay bul tarafda bizlarni xijolat chekdirib qo'yarmi, deb o'yladiq. Burodari kiromi, siz dunyo ko'rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo'b mulohaza qilib ko'ringiz, bu to'g'ridagi ra'yi o'g'lingizga qarag'anda ham faqirlaricha sizlarda bo'lg'ani vajhidin, albatta, ko'ndirishka sa'y va ko'shish qilursiz, deb ishonamiz. Otabekning ikkinchi taalluqi to'g'risida kelin bolamizg'a bildirilmasa xo'b erdi. Bizlarning xursandchiliklarimiz yo'lida Otabek bilan birga Toshkand tushib, o'z qo'llari bilan to'yimizni o'tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudachalari. 17-savr oyida 1265-hijriyada yozildi".

Topshiriq. Guruh a'zolariga tushunmagan so'zlarining lug'atini tuzish va izohli lug'atdan ma'nolarini aniqlash topshiriladi. Mazkur mashq "Kim chaqqon?" metodi orqali bajariladi. Qaysi guruh eng ko'p tarixiy so'zlarni topsa, shu guruh g'olib sanaladi.

1-guruh "Hukmnoma" matnidagi tarixiy so'zlarni aniqlaydi:

1. **Qo'rboshi** – o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari va ayrim Sharq davlatlarida: dastlab shaharni tunda qo'riqlovchi mirshab; so'ngra qurol-yarog' ombori mutasaddisi, qurol-yarog' korxonasi boshlig'i.

2. **Majhula** – notanish, noaniq.

3. **Qushbegi** – amir va xonlar saroyida bosh vazir, yirik amaldor.

4. **A'yon** – saroy ahli.

5. **Hukumat (arabcha)** – boshqarish, boshqaruv.

2-guruh "Maktub" matnidagi tarixiy so'zlarni aniqlaydi:

1. **Ba'daz** (Ba'd+f.) -dan qo'shimchasiga teng so'z: keyin, so'ng, so'ngra; avval taom ba'daz kalom.

Ba'd (arabcha) – uzoqlik, masofa, keyin, so'ngra.

2. **Taalluq** arabcha 1) aloqa, bog'liqlik, sodiqlik, muxlislik, ishq, muhabbat; 2) uylanish, xotin, rafiqa. Masalan: Otabek ikkinchi taalluqi (Zaynab) to'g'risida kelin bolamizga bildirmasa xo'p edi.

3. **Qutidor** (a+f. – quti egasi) – Qo'qon xonligida soliqlardan to'plangan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori.

4. **Ra'y** (arabcha) – fikr, qarash, aql-idrok, mulohaza.


5. **Hijriy** (arabcha) – musulmon yil hisobiga tegishli hijriy yil hisobi.

6. **Saloti xamsa** (arabcha: namoz, ibodat, iltijo, o'tinib so'rash; shukrona; duo; fотиha) – din. 1) islom dinidagi beshta ruknning eng asosiysi: bir kunda muayyan vaqtlarda belgilangan tartib, shartlar asosida qilinadigan ibodat; 2) Xudo va payg'ambarga atalgan madhiya, hamd-u sano.

7. **Birodari kirom** (kirom) – karamli, saxovatli, buyuk.

Guruhlar shu tartibda bajargan ishlarini taqdim etadilar va lug'at daftarlariga qayd etadilar.

145-mashq. Matndan belgi bildiradigan so'zlarni quyidagi "Klaster" shaklidagi jadvalga joylash topshiriladi. Qaysi guruh birinchi bajarib bo'lsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi.



135-mashq. 1-guruh ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni, 2-guruhga matnlarda ishlatilgan iboralarni topish topshirig'i beriladi:

1. O'xshamagan yerda bir xotinning arzga kelishi (xotin kishi uchun kelishi va yurishi mumkin bo'lmagan hudud).

2. O'zimizdan keyin qoldiraturgan tuyoqimiz shul Otabek (o'zimizdan keyin qoladigan naslimiz davomchisi. Ma'no ko'chishining sinekdoxa usulidan foydalanib ifodalangan).

3. Dunyo orzu-havas uyi derlar (bu dunyoga kelgan inson faqat orzu-havas bilan yashaydi).

4. Siz dunyo ko'rgan bir kishisiz (ko'p kishi bilan muloqotda bo'lgan, ko'p voqealarga guvoh bo'lgan va yaxshi-yomonni farqlay oldigan inson).

5. O'z qo'llari bilan to'yimizni o'tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudachalari (to'yda ishtirok etish va marosimni o'tkazishga bosh-qosh bo'lish).

Iboralar

1. Ko'ngliga shubha solmoq.

2. Aybni ustiga yuklamoq.

3. So'zini yerda qoldirmaslik.

4. Ra'yi bo'lmaslik.

5. Ko'z tikmoq.

Guruhlar shu tartibda ishlarini taqdim etadilar.

136-topshiriq. Ushbu matndagi belgi bildiruvchi so'zlarning ma'nodoshini lug'atdan toping va lug'at daftaringizga ko'chirib oling.

Majhul – noaniq

Eskirgan – ko'hna

Hayajon – to'lqinlanmoq

Yo'g'on – qalin

Uzun – cho'ziq

Maxfiy – yashirin

Yolg'iz – yakka

Aziz – mo'tabar

146-mashq. Matnning asosiy mazmunini uch jumlada yozma bayon qiling va matnlardagi sehrli so'zlarni aniqlang.

1. Ikki begunoglarning – umid uchquni.

2. Maktubda farzand taqdiri.

3. Rizolik maktubi.

Guruhlardan "ikki gunohsizning qonlari", "yolg'iz tuyoqliq savdosi", "ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz", "Dunyo orzu-havas derlar..." kabi matn asosini tashkil etgan sehrli so'zlarning ma'nolarini sharhlash so'raladi.

137-topshiriq. Matnda o'zingiz bilmagan qanday yangi hayotiy haqiqat mavjudligini aniqlang.

1. Inson faqat o'z manfaatini o'ylab emas, o'z g'alar taqdiri uchun ham kurashishi kerak.

2. Ota-ona rizosi farzand uchun oliy saodat.

147-mashq. Matn mazmunini og'zaki bayon qilish bo'yicha "Ifodali nutq" nominatsiyasi o'tkaziladi va g'olib guruh taqdirlanadi.

Darsni xulosalashda savol va topshiriqlar ustida ishlanadi:

1. Matnga yana qanday sarlavha qo'yish mumkin?

2. Sarlavhani gap holiga keltirib, qayta tuzing.

3. Matnni o'qish jarayonida o'zlashtirgan so'zlaringizni ma'nosi bilan yoddan ayting.

Guruhlar ishi xulosalanib, g'olib guruh taqdirlanadi.

Nargiza IBOTOVA,
Qarshi shahridagi 12-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

“QUTADG‘U BILIG” ASARI TA‘SIRIDA O‘QUVCHILARDA KOMILLIK BELGILARINI TAKOMILLASHTIRISH

8-sinf Adabiyot darsligida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida “Beklikka loyiq bek qanday bo‘lishini aytadi” deb nomlangan 31-bobi keltirilgan. Unda jamiyatni boshqarish uchun hukmdorga, ya‘ni bekka katta muhtojlik borligidan kelib chiqib, shoir bu lavozimga loyiq shaxsda aynan qanday insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi lozimligi masalasini atroficha bayon etadi.

Yaqin yillargacha o‘quvchining bilish faoliyati o‘qituvchining unga tayyor bilimlarni uzatishi va mazkur bilimlarni u esda saqlab qolishi tarzida tushunilar edi. Endilikda o‘quv materiallarning muayyan qismi va unda aks etgan bilimlar va axborotlar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga tayyor holda uzatilmaydi. Darsda o‘quvchilar mustaqil izlanish jarayoniga olib kirilib, ularning bilimlarni muammoli vaziyatlar yordamida o‘zlashtirishlariga imkoniyat yaratiladi.

Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlaridagi o‘xshashlik jihatlarni o‘qituvchi taqqoslab o‘tadi. Ikkala alloma shoir ham dostonlarida darveshlik va odamiylik tushunchalarini bir-biridan ajratmaydi; haqiqiy pok inson darveshdir yoki, qalbida ilm ziyosi porlagan odamdan yomonlik chiqmaydi. Ikkala dostonda ham nafsga ruju qo‘ymaslik darvesh va hukmdor (Kuntug‘di va Iskandar) timsolida gavdalantirilgan va bir xil rivoyat keltirilgan.

“Bir darvesh podshohga qarab shunday savol beradi:

– Sen to‘kin dasturxonida o‘zing xohlagan taomni yeb uyquga ketasan, men esa qattiq bir tishlam non yeb uxlayman. Aytchi, qay birimiz uyqudan turganda birinchi och qolamiz”.

O‘quvchilar muammoli savol yuzasidan bahs-munozaraga kirishadi. Bunday vaziyatlar o‘quvchini samarali harakat qilishga, fikrlashga o‘rgatadi.

“Qutadg‘u bilig” asarining o‘qilishi bugungi kun o‘quvchisi uchun og‘ir. Dars jarayonida “Fikrlar galeriyasi” usuli orqali muammoli vaziyatlar hosil qilsa bo‘ladi. Dostondagi quyidagi suhbatni men darsimda qo‘llaganman va ijobiy natijaga erishganman. Asardan sahna ko‘rinishi orqali ham savollarni shakllantirish mumkin.

Elig bir kuni yangi vazirini yoniga chorlaydi. Uni o‘tirishga undaydi. Oyo‘ldi yonidan bir to‘p (koptok) chiqaradi-da o‘shanga o‘tiradi. Elig unga ko‘plab savollar beradi. Kuntug‘di bundan shodlanadi, chehrasi ochiladi. Buni ko‘rib, Oyo‘ldi ko‘zlarini yumib oladi.

G‘azabladi elig, yuzi ko‘p qaro,

Dedi: Shoshqaloqlik kishiga balo!

Ishonchda yangilashdim chog‘i men o‘zim

Nima deb ochayin kishiga so‘zim?!..

Shoshilish adashgan kishilar ishi,

Bosiqlik qilish kerak har kishi...

Yumushingni ko‘rmay bilibman a‘lo

Tugalroq sinamay qilibman xato.

Oyo‘ldi nima uchun ko‘zlarini yumib oldi. Bu holatni izohlang, deya savol beriladi. O‘quvchilar muhokamasidan so‘ng javob aytiladi. Eligning bu mulohazalariga O‘yo‘ldi shunday deb javob beradi:

– Ey, Elig, sen mening qiyofamda davlat va boylikni ko‘rmoqchi eding. Men ularni aniqroq tasavvur qilgin, deb shu ishlarni qildim. To‘p (koptok) davlat (boylik)ka juda o‘xshaydi. Ularning ikkalasi ham bir joyda to‘xtab turmaydi, yumalab ketaveradi. Menga kulib boqqaningda ko‘zlarimni yumib olishimga sabab, davlatning ko‘zi ko‘r ekanligini senga uqtirish edi. Boylik bilan davlat ko‘zi ko‘r odamlarga o‘xshaydi. Kim boylik va davlatning qo‘lidan tutsa, o‘shanga ergashib ketaveradi. Bu yaxshi, mana bunisi esa yomon, deb ajratib o‘tirmaydi. Oqar suv, yo‘riq til va qut bir joyda to‘xtab turmaydi.

Asarda elig, ya‘ni hukmdor Kuntug‘di – adolat ramzi, Oyo‘ldi vazir esa davlat ramzi sifatida berilgan.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini yanada oshiradi. Mavzu doirasida asarning 3 ta nusxasi saqlanayotgan muzeylarni (Britaniya muzeylarini), XI asrda Qashqar yurtining joylashuvini geografiya fani bilan bog‘lab xaritada proyektor yordamida ko‘rsatish mumkin. Chunki o‘qituvchi-o‘quvchi hamda kompyuter faoliyati aloqadorligini ta‘minlash yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talabi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, alohida didaktik ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy soat darslarida ham “Beklikning fazilati” bobini o‘tish mumkin. Venn diagrammasi asosida beklikning fazilatlarini va bekni buzadigan jihatlarni tahlil qilish mumkin. Qadriyatlar ustun bo‘lgan joyda ta‘lim-tarbiyani natijasi bo‘ladi. Dars jarayonlarida o‘quvchilarga milliy qadriyatlarimizni singdirish, ota-bobolarimizga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish maqsadida Chingiz Aytmatovning “Bizning ovulda otasini bilish odatiga qat‘iy rioya qilingan. Shu sababdan o‘zimizdan oldin o‘tgan 7 ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdanoq ongimizga singdirilardi”, degan so‘zlarini izohlash mumkin. “Qutadg‘u bilig” dostonida ham qanoat timsoli sifatida qalamga olingan keksa O‘zg‘urmishdan elig har doim davlatni boshqarish bo‘yicha maslahatlar olib turganligini tushuntirib ketish lozim. Qolaversa, uyga vazifa qilib doston yuzasidan yuqorida ko‘tarilgan muammoli savollarni keksalar bilan maslahatlashib bajarib kelish topshirig‘i berilsa, o‘quvchida yoshi kattalarga hurmat, o‘z ustida ishlash tuyg‘usi yanada oshadi.

Beg'am QORAEVA,

Moskva davlat lingvistika universiteti

o'zbek tili fani o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi

O'ZBEK TILINI CHET TIL SIFATIDA O'RGANISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

(Moskva davlat lingvistika universitetida o'zbek tilini o'qitish misolida)

Bugungi ta'lim jarayonida nafaqat zamonaviy texnika vositalaridan, balki o'qitishning turli usullari va shakllaridan ham foydalanilmoqda. Buni chet tillarni o'rganish misolida ham ko'rishimiz mumkin. Hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, quyidagicha ikki muhim jihat borki, bu jihatlar chet tillarni o'rganish jarayoniga bevosita ta'sir etadi: axborot texnologiyalarini qo'llash va o'quv jarayonida kommunikativ yondashuvdan foydalanish. Hayotning barcha jabhalarida yuz berayotgan tezkor taraqqiyot ta'lim tizimida ham samarali natijalarga erishishni talab qiladi. Shuning uchun ham bugungi o'quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Ta'lim jarayonlarini tezkor rivojlantirishga qo'yilgan yangi talablar bugungi kun talabalarida ijtimoiy-madaniy layoqatni shakllantirishni kun tartibiga qo'yadi.

Aytish mumkinki, hozirgi kunda o'quv jarayonida axborot va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish tobora ommalashib bormoqda. O'quv jarayoniga bu kabi texnologiyalarning tatbiq etilishi oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimini yanada yaxshilash va uni tubdan yangilashga yordam beradi, shuningdek, chet tillarning o'qitilishiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishni va ularning bugungi kun fan va texnika rivojlanishi darajasiga mos bo'lishini taqozo etadi. [4:45]

Hozirgi davrga kelib, chet tillarni o'rganish va ularni o'qitish metodikasida kompyuter dasturlaridan foydalanishning yanada tezlashib borishi, uni to'xtatib bo'lmaydigan bir jarayonga aylanib borayotganligi ham bu borada ko'plab bahslar mavzusiga aylandi. Chunki bu jarayon o'quv faoliyati natijalariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Turlicha yondashuvlar, qarashlar, fikrlarning xilma-xilligi esa kelajakda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida, xususan, chet tillarni o'rganish va uni o'qitish metodikasida foydalanishga doir yangi ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini va bu mavzuning yanada chuqur o'rganilishini taqozo etadi. [2:3]

Bugungi axborot texnologiyalari audio, video, smartfon, planshet, kompyuter, proyektor kabi texnika vositalari va ular bilan bog'liq Internet faoliyatidan iborat. Bizning tajribamizda esa o'zbek tilidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki uning mazmunini ham boyitadi, mavzuni o'zlashtirishga yordam beradi. "Учебник узбекского языка для стран СНГ" ko'rinishida chop etilgan darsligimizda ham axborot texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi, darslikka ilova sifatida berilgan kompakt-diskda yozilgan audiodkurs va darslikning elektron shakli tavsiya etiladi. Darslikda maxsus belgilar bilan berilgan mashqlarda audio yozuvlar

berilgan. [1:6] Bu audio yozuvlar talabalarga o'zbek tilini astoydil o'rganish imkoniyatini beradi, chunki audio yozuvlar nutq faoliyati turlari ichida eng muhimlaridan biri sanaladi. Taklif qilinayotgan audiomateriallarni tinglash va takrorlash muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqni yengish va talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Aytish mumkinki, bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish keng tus oldi, ularning ichida ovoz ishtiroki muhim bo'lgan, ya'ni audio matnlar (monologik nutqlar, dialog-suhbatlar va bir necha kishi ishtirokidagi suhbatlar-poliologlar, video materiallar) asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Talabalar aniq bir mavzular bo'yicha multimedia taqdimot loyihalarini tayyorlashda faol ishtirok etadilar.

Bu borada talabalarining aniq bir mavzudagi maqsadli loyihalar ustida ishlashlari diqqatga sazovor. Bu loyihalar bilan ishlash jarayonida talabalarga O'zbekiston tarixi, madaniyatiga doir qator mavzular tavsiya etiladi, ular mustaqil ravishda o'zlarini qiziqtirgan mavzularni tanlashlari, turli xil axborot manbalariga murojaat etishlari mumkin va yakuniy natijani ma'ruzalar ko'rinishida, taqdimot materiallari, suhbatlar, kechalar va boshqa shakllarda ko'rsatib berishlari mumkin. Ular tayyorlagan taqdimotlarda slaydlar, video lavhalar, qo'shiqlar va raqslar bo'lishi mumkin. Masalan, kasbiy muloqotga tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati va bugungi kuni, olimlari, yozuvchi va shoirlari, madaniyat arboblari, mamlakat yoshlari hayotiga doir taqdimotlarni tayyorlaydilar. Bu taqdimot tadbirlarining olib borilishida texnika vositalaridan unumli foydalaniladi.

Bunday texnologiyalardan doimiy ravishda foydalanish va har bir darsda ularni qo'llashning iloji yuq, chunki bu o'tilayotgan darsning qanday rejalashtirilganligiga bog'liq. Shunday dars turlari borki, ularda, asosan, nazariy materiallarni berish mumkin, lekin o'rni kelganda aytish mumkinki, hatto faqat nazariy materialni o'zlashtirish ko'zda tutilgan bunday mashg'ulotlarda ham audio va video materiallardan unumli foydalanish mumkin.

Hozirgi amaliyotda interfaol o'qitish usuli mavjud bo'lib, u kompyuter dasturlari asosida amalga oshiriladi, o'quv jarayoni esa ancha mazmunli va qiziqarli tus oladi. Bu borada bir jihatni hisobga olish zarur bo'ladi, agar til o'rganish jarayoni talab qilsa, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni o'ylab rejalashtirish zarur bo'ladi. Kompyuter yoki boshqa texnologiyalar o'qituvchining rolini bajara olmasligini ham unutmashimiz kerak, foydali maslahatlar, tavsiyalar talabalar uchun har doim foydali bo'ladi.

Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalar, albatta, kompyuter bilan bog'liq mashg'ulotlarni rejalashtirishda ulardan qanday holatlarda foydalanish mumkinligini ko'rib chiqamiz:

- 1) ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi yangiliklar, xabarlarini ko'rish;
- 2) onlayn ko'rinishidagi seminar, anjuman va boshqa tadbirlarni uyushtirish;
- 3) mavzu bo'yicha materiallar va yangi axborotlarni izlash;
- 4) to'plangan materiallarni tahlil qilish;
- 5) reklama lavhalari, ommabop hujjatli filmlar va badiiy filmlarni ko'rish;
- 6) taqdimot loyihalari uchun materiallar to'plash.

Masalan, taqdimot loyihasiga tayyorgarlik ko'rish uchun talabalar turlicha vaqt sarflashlari mumkin. Agar aniq bir mavzuga doir loyiha bo'yicha taqdimot tayyorgarligi bo'lsa, unga bir necha kun tayyorlanish mumkin. Agar oddiy xabarlar, ma'lumotlarni to'plash zarur bo'lsa, talaba unga 10 daqiqadan 20 daqiqagacha vaqt sarflashi mumkin, keyin esa shu material asosida o'z nutqini yozadi, tengdoshlari oldida so'zga chiqishga tayyorlanadi. Bu har bir talabaning qay darajada tezkor ishlay olishini ko'rsatadi, shuning uchun o'qituvchi topshiriqlarni berayotgan paytda har bir talabaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondashuv asosida ishlashi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham bunday amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish o'qituvchidan tashkilotchilik qobiliyatini va mashg'ulotni ishonch bilan olib borishni talab qiladi. Talabalarining esa dunyoqarashi kengayadi, bilim darajasi, ko'nikma va malakalari oshadi, anglash, fikrlash qobiliyati o'sib boradi.

O'qituvchilar eng muhim narsani unutmasliklari lozim, ya'ni zamonaviy axborot texnologiyalari bugungi kunda qanchalik tezkor bo'lmasin, ular yordamchi xarakterga ega bo'lib qolishi kerak. Innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonida hech qachon talaba va o'qituvchi o'rtasidagi jonli muloqotning o'rnini bosa olmaydi. [3: 46–49]

Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlar jarayonida kompyuter va boshqa texnika vositalari bilan ishlashni obdon rejalashtirish, agar darsning maqsadi va o'quv jarayoni talab qilsa, shu holatlardagina ulardan unumli foydalanish zarur bo'ladi.

O'quv dasturlarida mustaqil ishlarni bajarish va loyihalar bilan ishlash bo'yicha talabalar faoliyati ham nazarda tutiladi. Ijodiy ishlar uchun talabalarga qator mavzular tavsiya etiladi, bu mavzular ularning kelajakdagi kasb yo'nalishi bilan bog'liq bo'ladi. Talabalar mustaqil ravishda mavzularni tanlaydilar va tanlagan mavzularini ochib berish uchun taqdimot loyihasi ustida izlanadilar va taqdimot o'tkazishga tayyorlanadilar. Taqdimotga tayyorgarlik

ko'rish jarayonida ular xorijiy tilga, bizning misolimizda esa o'zbek tilida mavjud bo'lgan manbalarga murojaat etadilar, turli ma'lumotlar to'playdilar va ularni qanday taqdim etishni rejalashtiradilar, fotolavha, videolavhalar tayyorlaydilar. Materialni bayon eta turib, ma'lum bir xulosalarga keladilar, o'z tajribasidan kelib chiqqan holda tavsiyalar beradilar, o'z nuqtayi nazarlarini bayon etadilar.

Bunday ijodiy ishlar kompyuter va texnika vositalari bilan ishlash bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlashda yordam beradi. Talabalar o'quv darsliklari, o'quv lug'atlari, ma'lumotnomalar va boshqa manbalarning elektron ko'rinishlari bilan tanishadilar; o'z bilim darajalarini kengaytiradilar, test topshiriqlari, sinovlarni bajarishlari va shu tariqa chet til bo'yicha o'z bilim darajalarini aniqlashlari mumkin.

Internetdan foydalanish jarayonida talabalarining aloqalari kengayadi, tanishlar orttiradilar, ularda madaniyatlararo muloqot doirasi yuzaga keladi, o'zaro axborot almashinuvlari boshlanadi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'rtoqlashadilar. Bu jarayonda esa bevosita chet tildan foydalana boshlaydilar, muloqot qilishga xalaqit beradigan to'siqlar barham topa boshlaydi, kundan-kunga ijodiy imkoniyat va salohiyatda rivojlanish ro'y beradi.

Internetdan foydalanish imkoniyatlari qator lingvodic didaktik vazifalarni samarali hal etishda yordam beradi:

- nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozuv) bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish;
- jamiyatning ijtimoiy-siyosiy qurilishini, mamlakatlarining madaniyati, tarixi va an'analarni hisobga olgan holda talabalarining so'z boyligini oshirib borish;
- talabalarda tarjima qilish faoliyatini rivojlantirish (ya'ni tarjimaning to'g'riligini nazorat qilish, matnini tahrir qilish);
- Internet materiallari asosida talabalarining dunyoqarashini kengaytirish, o'rganilayotgan madaniyatning o'ziga xos jihatlari, tili o'rganilayotgan mamlakatning an'analari, nutq odobi, nutq madaniyatining o'ziga xos jihatlari bilan tanishish;
- Internet yordamida chet tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish.

Ushbu mavzuning dolzarbligi kundan-kunga oshib boraveradi, chunki axborot texnologiyalaridan foydalanish yangi ko'rinishga ega bo'lmoqda, ularning samaradorligi, sifat darajasi oshib bormoqda, shu sababli, ulardan o'quv jarayonida foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa o'rnida esa o'zbek tilini o'rganish bo'yicha quyidagi ayrim multimedia dasturlariga murojaat qilishni tavsiya etishimiz mumkin: 1) O'zbek tilini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish (Abdujabbarova F.A., Egamova Sh.D.); 2) Oliy o'quv yurtlarining rusiyazbon guruhlarida axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning roli (Raximova K.N., Abdujabbarova F.A.).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бакиева Г.Х., Караева Б.Х., Коршунова Е.Н., Краева И.А., Тешабаева Д.М., Фролова Г.М. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2012. – С. 331.
2. Евдокимова М.Г. Проблемы теории и практики информационно-коммуникационных технологий обучения иностранным языкам. – Москва, 2004. – С. 312.
3. Рабочая программа дисциплины Б1.О.19.03 **Иностранный язык** (второй **узбекский**, 41.03.01 – **Зарубежное регионоведение**) направленность (профиль, специализация) образовательной программы: Международно-политический анализ регионов мира. – Москва, 2019. – С. 51.
4. Тухлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Методика преподавания узбекского языка. Учебное пособие. – Ташкент, 2003. – С. 191.

Mohidil NIZOMOVA,

Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidagi
16-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

DARSLARDA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Bugungi kunda mukammal ishlangan dastur, takomillashtirilgan ish reja va pedagogik mahorat asosida o'tkaziladigan darslarda ta'lim jarayoni yangi mazmun va shaklda bo'lishi uchun o'quvchi bilim darajasi, idroki, fikrlash qobiliyati, qiziqishi va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi pedagogik texnologiyani joriy etish va shu asosida komil insonni tarbiyalash ona tili va adabiyot fanini o'qitishning eng dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Pedagogik texnologiya o'quv omillarini yaratishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni tezkorlikka, o'quv, o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish imkonini berishi lozim. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda ona tili va adabiyot fanini o'qitishda noan'anaviy usullardan foydalanish davr talabi hisoblanadi. Bunda o'z tajribalarimiz asosida sizga taklif etayotgan quyidagi usullar sizga faoliyatingiz davomida qo'l keladi, degan umiddamiz.

"Asalari uyasi" usuli. Ushbu usuldan ona tili va adabiyot darslarida o'tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin. Usulni qo'llash uchun doskaga asalari uyasining maketi ilinadi. Uyaning har bir katagiga so'z turkumlarining nomi yoziladi. O'quvchilar esa asalari vazifasini bajaradilar. Buning uchun ularga so'roq olmoshlari yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Shartga ko'ra "asalari" o'zlaridagi so'roq olmoshlarini tegishli kataklarga – qaysi so'z turkumi qanday so'roqqa javob bo'lsa uni o'z joyiga joylashtirishlari kerak bo'ladi.

Ushbu usul yordamida o'quvchilarning ona tili darsida o'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirishlariga erishish mumkin.

"Xatosini top!" usuli. Bilamizki, o'quvchilar ko'pincha "H" va "X" undoshlarini farqlashda qiynalishadi. Bunday holatda bizga ushbu usul qo'l keladi. Buning uchun o'quvchilarga "H" va "X" undoshlariga oid beshtadan so'z yozishlari kerakligi aytiladi. O'quvchilar mustaqil tarzda o'zlari xohlagan so'zlarni yozadilar. Shundan so'ng ular daftarlarini yonidagi sheriklari bilan almashadilar. Shu tariqa o'quvchilar bir-birlarining yo'l qo'yg'an xatolarini topadilar. Ushbu usuldan foydalanish o'quvchilarni hushyorlikka, ziyraklikka, topqirlikka chorlaydi.

"Men kimman?" usuli. Ushbu usuldan ham ona tili va adabiyot darslarida foydalanish mumkin. Buning uchun bir o'quvchi o'zi xohlagan ijodkorga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni aytadi. O'quvchilar esa bu ijodkorning kim ekanligini topishlari kerak bo'ladi. Qaysi o'quvchi bu adib yoki shoirning kim ekanligini topsa, o'sha o'quvchi adib qiyofasiga kirish imkoniyatini qo'lga kirtadi. Masalan:

1-o'quvchi: Men 1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Katta Tagob qishlog'ida tug'ilganman. 1949-yili Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili Toshkent davlat universitetini bitirganman. So'ng bir necha yil Farg'ona viloyatining Bog'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori lavozimlarida ishlaganman. Men "Omonboy va Davronboyning sarguzashtlari", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" kabi bir qancha asarlar muallifiman.

2-o'quvchi: Siz sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevsiz.

Ushbu usuldan foydalanish nafaqat o'quvchilarni darsga qiziqtiradi, balki ularni adiblar hayoti va ijodini puxta o'rganishga ham chorlaydi.

"Hozirjavob" usuli. Bu usuldan ona tili darslarida juft va qarama-qarshi so'zlar mavzularini mustahkamlash maqsadida foydalansa bo'ladi. Bunda birinchi o'quvchi bir so'zni aytadi, ikkinchi o'quvchi esa hozirjavoblik bilan ushbu so'zning jufti yoki antonimini aytishi kerak bo'ladi. Ushbu usulni guruhlar bilan yoki yakka tartibda ham amalga oshirish mumkin.

Ushbu usuldan adabiyot darslarida asar qahramonlarini aytish yo'li bilan amalga oshirsa ham bo'ladi:

1-o'quvchi: Farhod, Otabek, Anvar.

2-o'quvchi: Shirin, Kumush, Ra'no...

"Sehrlil qalpoqcha" usuli. Bunda o'qituvchi qo'lidagi sehrlil qalpoqchani sinfdagi istagan o'quvchisining boshiga kiygizadi. O'quvchilar esa sehrlil qalpoqchani kiygan o'quvchiga o'tilgan mavzular yuzasidan savollar beradilar. Qalpoqcha sohibi esa berilgan savollarga javob berishi kerak bo'ladi. Masalan:

1. Gap deb nimaga aytiladi?

2. Ma'nodosh so'zlarga misol keltiring.

3. Mustaqil so'zlar deb nimaga aytiladi?

Ushbu usul orqali o'qituvchi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashi, ularni darsga qiziqtirish olishi mumkin. Bu usul o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchning ortishi, mavzularning puxta o'zlashtirilishi va ziyraklikka chorlaydi.

"Mening misram" usuli. Bunda bir o'quvchi adabiyot darsida yod olgan she'ridan bir misra o'qiydi, ikkinchi o'quvchi esa ikkinchi misrani, uchinchi o'quvchi undan keying misrani o'qiydi. Misol uchun G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ri bilan tanishilgandan so'ng bu usulni qo'llash mumkin:

1-o'quvchi: Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek.

2-o'quvchi: Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.

3-o'quvchi: Eng kichik zarradan Yupitergacha.

4-o'quvchi: O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.

Bu usul o'quvchilarni darsga qiziqtirish bilan birga ularning xotirasini mustahkamlaydi, og'zaki nutqini rivojlantiradi va har qanday holatda ham o'zini yo'qotmaslikka o'rgatadi.

"Kamalak" usuli. Ushbu usulni guruhlar o'rtasida amalga oshirish mumkin. Bunda guruhlariga kamalak shakli tushirilgan kartochkalar tarqatiladi. Har bir kamalak rangining ichiga adabiy janrlar yozib qo'yiladi. Masalan: hikoya, qissa, roman kabi. Guruhlar esa ma'lum bir adibning asarlarini yozilgan janriga qarab kamalak ichiga joylashlari kerak bo'ladi. Bu shartni qaysi guruh birinchi va to'g'ri bajarsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi.

Bu usul adiblar ijodini puxta o'rganishga undash bilan bir qatorda o'quvchilarni hamjihatlikka, o'zgalarning fikriga quloq solish va o'z fikrini asoslay olishga o'rgatadi.

Oydin AMETOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi

FOLKLOR NAMUNALARI – NUTQ O'STIRISH OMILI SIFATIDA

Har bir insonning ma'naviyati, xulqi, avvalo, uning nutqida aks etar ekan, chiroyli nutq egasini yetishtirish orqali biz yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy olami, dunyoqarashini boyitishni ham amalga oshiramiz. O'quvchilar nutqini o'stirishda folklor namunalari foydalanish ham ona tili, ham adabiyot darslarida bab-baravar amalga oshirilishi mumkin. Zero, ona tili va adabiyot darslarida mavzuga mos, oldindan rejalashtirilgan holda doston, terma, ertak, lof, naql, afsona, rivoyat, o'lan, maqol, topishmoq, olqish, qarq'ish, lapar, aytishuv kabi rang-barang janrlardan foydalanish o'quvchilarning tilimiz go'zalligi va boyligini o'zida aks ettiruvchi folklori o'qish-o'rganish, eshitish, nutqida qo'llashga bo'lgan rag'batini oshiradi.

Ma'lumki, an'anaviy dars mashg'uloti besh bosqichda amalga oshiriladi. Aynan qaysi bosqichda folkloridan foydalanish orqali nutqni boyitish mumkin? O'z tajriba va kuza-tishlarimizdan kelib chiqib, har bir bosqichda, deb javob bera olamiz. Adabiyot darslarida qo'shimcha materiallardan foydalanish o'qituvchidan ijodkorlik, izlanuvchanlik, mehnatsevarlik, eng asosiysi, fidoyilikni talab qiladi, chunki o'qituvchi har bir darsga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, asosiy materialdan tashqari qo'shimcha ma'lumot topishi va uni o'z rejasida qayd qilishi lozim. Bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy texnika vositalaridan ham ijodkorona foydalanish kutilgan natijaga tezroq erishish kafolatidir. Nutqni og'zaki ijod namunalari asosida o'stirish tajribasidan hamkasblarimizga quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

Darsning tashkiliy qismida o'qituvchi "Ma'naviyat daqiqasi" uchun yangi mavzu mohiyatiga mos kun hikmati, ya'ni maqol-ni e'lon qilishi va ish daftarga yozdirishi mumkin. O'qituvchi ishni shunday ustalik bilan tashkil qilishi kerakki, o'quvchilar dars yakunida beixtiyor o'sha maqol-ni esga olsinlar. Masalan, "Aql bilan odob – egizak", "So'z qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas", "Archa xushbo'yligidan mingga kiradi", "Mard o'zidan ko'rur, nomard – o'zqadan", "Bekor o'tirguncha bekor ishla" kabi maqollarni darsning "Kun hikmati", "Ma'naviyat daqiqasi", "Dars epigrafi" kabi qismlarida e'lon qilish orqali nafaqat nutqni boyitish, balki kasbga yo'naltirish, boshqa fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlash, katta hayotga tayyorlash kabi qator ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni ham "zimdan" amalga oshirish mumkin. Ularni daftarga qayd qildirish bilan esa quyidagi ishlarga zamin hozirlaymiz: maqol unutilmaydi; yozma nutq savodxonligi yuksaladi; kerakli o'rinlarda unga qayta-qayta murojaat qilish mumkin bo'ladi; o'quvchi nutqi orqali maqol ommalashib boradi.

Darsning uy ishini so'rash bosqichida o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni nazorat qilish mumkin. Masalan, "Adabiyot – so'z san'ati" mavzusi o'rganilgan darsda o'quvchilarga "Xalq og'zaki ijodida yaratilgan kichik janrlardan namunalarni daftaringizga yozing, tushunilishi qi-yin so'zlarning tagiga chizing va asarni yod oling" kabi vazifani beradigan bo'lsak, o'quvchini izlanish(jamiyat orasida yoki kutubxonada ishlash)ga yo'naltiramiz, o'tilgan mavzuni eslashga majbur qilamiz, xotirasini mustahkamlash hamda ifodali o'qishga tayyorlaymiz. Qolaversa, biz hali to'plamlarga kirmagan, o'zimiz ham eshitmagan yoki o'qimagan noyob folklor namunalarni o'quvchimiz orqali xalqning jonli so'zlashuv nutqidani yozib olish, o'rganish, mutaxassis(folk-

lorshunos, ijodkor...)lar e'tiboriga havola qilish, ya'ni unutilib ketmasligi uchun zamin hozirlash imkoniga ega bo'lamiz.

Yangi mavzu bayoni boshlanishidan oldin o'quvchilarda biroz toliqish, charchash aromatlari seziladi, bu holatni to'g'rilash uchun darsda " lirik chekinish" qilish, ya'ni xalq og'zaki ijodidagi kichik hajmli janrlardan foydalangan holda o'quvchilarga "dam berish" mumkin. Bunda topishmoq namunalarni tarqatmalar shaklida o'quvchining o'ziga tayyorlatish, ulardan dars jarayonida foydalanish ham darsning qiziqarli o'tishi, o'quvchilar faollashuviga sabab bo'ladi. O'qituvchi kichik hajmli nasriy asarlarni ustalik bilan yangi mavzuni xulosalash jarayoniga bog'lab yuborishi mumkin. Ishning davomi sifatida har bir darsda bitta o'quvchidan naql (afsona, rivoyat, asotir...) gapirib berishni talab qilish mumkin. Maqsad o'quvchi ma'lumotni o'zlashtiribgina qolmay, o'zi ham izlansin, topsin, o'rgansin hamda darsda boshqalarga o'rgatsin. Masalan, taqdim qilish uchun hajman qisqa, ammo mazmunan boy asarlardan namunalari:

"Ilm yozuv bilan boqiy" (rivoyat). Bir donishmand aytdi: "Ilm bobida nimaiki eshitsu, yozib qo'y, qog'oz bo'lmasa, devorga bo'lsa ham, yoz. Chunki yodlangan narsa unutiladi, yozilgan narsa esa abadiy qoladi". Rivoyat bayonidan keyin o'quvchilar kerakli ma'lumotlarni daftarga ongli ravishda qayd qilib borishga odatlanadilar.

"Bahoni qo'shnilar beradi" (rivoyat). Bir kishi donishmandning oldiga kelib, undan:

– Aying-chi, men yaxshi odammanmi yoki yomonmi, buni qanday bilsa bo'ladi? – deb so'rabdi.

– Qo'shnilaringdan borib so'ra: agar ular seni yaxshi de-yishsa, demak, sen yaxshi odamsan, – deb javob beribdi donishmand.

Bunday didaktik asarlar o'quvchini nafaqat mustaqil fikrlashga, balki fikrini asoslashga ham o'rgatadi. Albatta, o'qituvchi bularni hikoya qilish uchun darsning asosiy maqsadi – yangi mavzu bayonidan uzoqlashmasligi va vaqtini boy berib qo'ymasligi lozim. Tanlangan material tasodifiy bo'lmasdan, mavzudagi qaysidir qirrani ochib berishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq. O'quvchining "O'qituvchimiz bizga nima uchun bu rivoyatni gapirib berdi?" degan savoliga o'rin qoldirmaslik lozim. Asarni ifodali hikoya qilishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Mustahkamlash qismida folklorning lirik turiga mansub janrlardan foydalanish mumkin, chunki yangi mavzu bayoni asosan ma'ruza shaklida bo'lgani sababli ba'zi o'quvchilarda zerikish holatlari kuzatiladi. O'qituvchi xalq qo'shiqlaridan parchalarni xirgoyi qilib yod aytadi, uning matni yuzasidan savollar beradi va hokazo. Qo'shiq yoki she'riy parchalarni video, audio, taqdimot shakllarida oldindan tayyorlab qo'yish va kerakli o'rinlarda namoyish qilib borish esa vaqtdan unumli foydalanishga imkon beradi. Ishni turli og'zaki janrlar misolida ham amalga oshirishimiz mumkin. Bu esa, albatta, o'qituvchi fantaziyasi – ijodkorligi bilan bog'liq.

Darsning oxirgi bosqichida esa "Uyga vazifa"ning bitta bandini og'zaki ijod namunalarni o'rganish bilan bog'lash mumkin. Tabiiyki, o'quvchilar folklor namunalari matnidagi ayrim so'z yoki jumalarning ma'nosini tushunmasligi aniq. "So'zlarning ma'nosini izohlang. Bu bilan siz kishilarni yarim qorong'ilik dunyosidan xalos qilasiz!", deydi taniqli fransuz

olimi F.Dekart. Og'zaki ijod namunalari matnida dialektizm, arxaizm, istorizm, frazeologizm kabi chegaralangan leksik birliklar ham uchraydiki, bu holat asar tilining lug'ati ustida ishlash lozimligini ko'rsatadi. Matn tarkibidagi tushunarsiz so'zlar sharhlansa, matn mohiyati o'quvchi tomonidan to'la anglanadi. O'rni kelganda shuni eslatish zarurki, yuqoridagi usullarning barchasini bitta darsda emas, navbati bilan, maqsadli tarzda qo'llash lozim, aks holda o'quvchi bunday bir xillikdan zerikishi tabiiy. Sinfdan tashqari o'qish va to'garak

mashg'ulotlarida ham bunday ish usullari davom ettirilsa, albatta, o'quvchilarning yoshi hamda folklor asarining tur, janr xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak, og'zaki ijod namunalari xalqimiz milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida katta ijtimoiy qiymatga ega. Demak, estetik did, go'zallik, so'zning qadri, qiymati va salmog'i, ona tili imkoniyatlarini his qilish, nutqni o'stirishda folklor namunalariidan foydalanishning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Zuxra XAZRATOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarni o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazi ilmiy xodimi

CHET TILNI SAMARALI O'RGATISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Ommaviy axborot vositalari axborotni davriy tarqatuvchi ko'p qirrali media texnologiyalardan iborat bo'lib, bu aloqa vositalari elektron va bosma tarzda ma'lumotlarni ommaga yetkazishga xizmat qiladi.

Internet ham ommaviy axborot vositalarining bir turi hisoblanib, elektron pochta, veb-sahifa, blog, Internet radio va televideniye kabilarni taqdim etadi. Bundan tashqari, Internetda boshqa ko'plab imkoniyatlar ham mavjud, masalan, veb-sahifaga bog'langan reklama orqali foydalanuvchini boshqa veb-sahifaga yoki tezkor javob kodi (QR kod) orqali mobil foydalanuvchini biror veb-sahifaga yo'naltirish imkoni mavjud. Shu yo'sinda Internet tarmog'idagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida osonlik bilan dunyoning turli mintaqalariga uzatish mumkin.

Hozirgi yoshlar qiziqishi va zamon talablaridan kelib chiqib hamda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotimizdagi roli cheksiz ekanligini hisobga olgan holda chet til darslarini rejalashtirish, tashkillashtirish til o'qitish va o'rganishda yaxshi samara berishi tabiiy. Bu til o'rganish bilan bir qatorda talabalarining kasbiy mahoratini o'stirishga yordam beradi hamda ularning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Shu sababli chet tilni o'qitishda Internet va ijtimoiy tarmoqlardan hozirgi kunda amaliy foydalanib kelinmoqda.

Chet til darslarida Internetdan foydalanish bir qator didaktik muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi. Masalan, talabalarining aqliy qobiliyatlarini oshirish, passiv talabalarni dars jarayoniga jalb qilish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish hamda nutq faoliyati turlari (tinglash, o'qish, gapirish va yozish)ni shakllantirishda Internet manbalari qo'l keladi. O'qituvchilar uchun esa darslarda zamonaviy ko'rgazmali qurollar va ilgari mavjud bo'lmagan autentik materiallardan foydalanish imkoni o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi. Internetning yana bir muhim jihati shundaki, unda boshqa mamlakat va madaniyat vakillari bilan jonli aloqa o'rnatish imkoniyati ham mavjud.

Hozirgi davrda darsni tashkillashtirish bo'yicha Internet resurslari va ulardan foydalanish imkoniyati cheksizdir. Global Internet Tarmog'i orqali dunyoning istalgan joyidagi talaba va o'qituvchi uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotni: min-

taqaviy geografik materiallar, yangiliklar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, zarur sohaga oid adabiyotlar va boshqalarni olish mumkin. Internet orqali chet ellik do'stlar bilan muloqot qilish talabalarining madaniyatlararo bilim va ko'nikmalarini boyitadi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar va Internet resurslari talabalarga leksika o'rgatishning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Talabalar Internetda turli ma'lumot va manbalardan foydalanish jarayonida o'z bilim va ko'nikmalarini ishga solishga majbur bo'ladi. Bunda ular e'tibor berishi kerak bo'lgan muhim jihat – so'z va iboralar, terminlar hamda idiomalarni to'g'ri qo'llay olish. Agar dars jarayonida Internet ma'lumotlaridan foydalanib til ko'nikmalarini o'stirishga qaratilgan mashg'ulot va topshiriqlar berib borilsa, talabalar Internet xizmatlaridan foydalanishda qiyinchilik sezmaydilar.

Ingliz tili o'rgatishda veb-bloglardan foydalanish o'qituvchi ham, talabalarga ham ko'p imkoniyatlarni beradi. "Veb-blog bu – xronologik tartibda buyurtma qilingan va HTML brauzer orqali ko'rinadigan matnlar, rasmlar, media va ma'lumotlar to'plami". Blog, asosan, Internetdagi mavjud gazeta deb ham tushuniladi. Ko'pchilik bloglar o'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha sharh yoki yangiliklar bilan ta'minlab boradi, ba'zi Internet bloglari esa shaxsiy onlayn kundalik sifatida faoliyat olib boradi. Odatda, bloglar matn, tasvir va rasm, grafik va boshqa bloglarga tegishli havolalar, veb-sahifalardan iborat bo'ladi. Aksariyat bloglar, asosan, matnshunoslikka qaratilgan bo'lsa-da, ayrimlari, ya'ni san'at (artlog), fotosurat (fotoblog), eskiz-blog, video (vlog), musiqa (MP3 blog), audio (podkasting) kabilar ijtimoiy axborot vositalarining kengroq tarmog'iga kiradi. Mikroblogger juda qisqa xabarlar berib boruvchi blog turi hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchilar o'z darslari uchun o'qish ko'nikmasi (reading skill)ni shakllantirish materiali manbasi sifatida bloglardan foydalanishlari, talabalar uchun sinf blogi yaratishlari yoki o'zlari blog yuritishlari mumkin. Til o'rganayotgan talaba darsliklarda berilgan matnlarni o'qishdan ko'ra bu kabi bloglardagi ma'lumotlarni o'qishga ko'proq qiziqishadi. Ko'p hollarda bloglar interfaol ko'rinishda bo'lganligi sababli tashrif buyuruvchilar (talabalar) bloglarda izoh va hatto bir-biriga xabar qoldirishlari ham mumkin, bu o'z-o'zidan

talabalarning o'rganilayotgan tilda muloqot qilishiga zamin yaratadi.

Ommaviy axborot vositalarining hozirgi davrda juda omalashgan yana bir turi podkasting (inglizcha: podcasting – iPod va broadcasting – har tomonlama, keng yoritish so'zlaridan olingan) bo'lib, u orqali ham xorijiy til darslarini samarali tashkillashtirish mumkin. Podkasting ovozli yoki videofayllar tayyorlash jarayoni hamda ularni Internet uslubida tarqatish, ya'ni podkast qilish tushunchalarini qamrab oladi. Odatda ovozli podkastlar MP3, AAC, Ogg/Vorbis formatida, video podkastlar esa Flash Video yoki AVI shaklida Internet sahifasida berib boriladi. Ular Internet foydalanuvchilari uchun juda qulay manba hisoblanadi.

Podkasting, asosan, biror yo'nalishdagi ma'lumotni, o'rganilayotgan tildagi so'z va iboralarni o'rganish barobarida so'zlarning talaffuzi hamda grammatik strukturalarini amalda ko'rish, tinglash imkonini beradi. Masalan, radio intervyu

orqali talabalar haqiqiy vaziyatdagi suhbat jarayonini tinglashi va shu orqali o'zlariga kerakli grammatika va so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari podkasting talabalarga til o'rganishda quyidagi imkoniyatlarni ham beradi:

- o'rganilayotgan sohaga oid chet tildagi tushunchalarga aniqlik kiritish;
- imtihonga tayyorlanish va o'tkazib yuborilgan darslarni o'zlashtirish;
- nutq tezligi orqali tushunishni yaxshilash;
- sohaga oid intervyular tayyorlash va o'tkazish;
- audio va video post intervyular yozib Internet tarmog'iga joylash va boshqalar.

Yuqorida qayd etilgan usullardan foydalanib xorijiy til darslarini tashkillashtirish talabalarning til ko'nikmalari hamda kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorbunova T.S., Faxrutdinova A.V. The use of audiovisual means of teaching a foreign language in a non-linguistic university. Scientific notes of Kazan State Academy of Veterinary Medicine. – Moscow, 2014. 218(2). – pp 64–69.
2. Petrova M.V. Video blogging as an information form of project-based foreign language teaching to journalism students. Education and Science, 3. – pp 140–159.
3. Ashton-Hay S., Brookes D. Here's a story: using student podcasts to raise awareness of language learning strategies. EA Journal. 26(2). – pp 15–27.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003.

Buzulayho QODIROVA,
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'RGANISH

Arab tilidan o'zlashgan "mumtoz" so'zi bizning tilda tanlangan, saralangan ma'nolariga to'g'ri keladi. Demak, bu tushuncha bilan sifatlangan adabiyotga ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha asarlar emas, balki ular ichidan saralangan eng oliy insoniy qadriyatlar, yuksak badiiyatga yo'g'rilgan, asrlar osha insonlar qalbini, shuurini zabt etib kelayotgan adabiy bitiklar kiradi.¹

Ta'limning barcha bosqichlarida mumtoz adabiyot bilan tanishtiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari ham bundan mustasno emas. Jajji tarbiyalanuvchilarga adiblar suratlarini ko'rsatiladi, uncha murakkab bo'lmagan she'rlari yod oldiriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar suratlar, ma'rifiy matnlar orqali adiblar shaxsiyati, ularning ijodi, ibratli fikrlari bilan ilk bor tanishadilar. Mazkur bosqichda mumtoz adabiyotni quyidagi shakllarda o'rganishni tashkil etish mumkin:

1. Adabiyotimiz tarixida o'tgan eng mashhur siymolar (masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi) suratlarini bilan tanishtirilganda ularning asl ismi, taxallusi, tug'ilgan joyi va tavallud sanasi hamda eng mashhur asarlaridan bir-ikkitasining nomini aytib, yozdirib qo'yish mumkin. Agar mazkur ma'lumotlar oldingi sinflarda yoki darslarda aytilgan bo'lsa, buni o'quvchilarning o'zidan so'rash o'rinni bo'ladi.

2. "O'qish kitobi"da berilgan mumtoz siymolar haqidagi riv-

oyatlar, hikoyalar, qissadan parchalarni o'qish, o'rganish orqali ularning hayoti, ijodi, ma'naviy olami bilan tanisha boradilar. Masalan, amaldagi 3-sinf darsligida² mumtoz adiblar bilan bog'liq to'qqizta matn berilgan bo'lib, ular Alisher Navoiy, Bobur va Ibn Sino haqidadir. Shu bilan birga ikki o'rinda hadislardan namunalar ham keltirilgan. 4-sinf darsligida³ ham yana shu siymolar, Pahlavon Mahmud to'g'risidagi rivoyat hamda hadis namunalarini o'qish uchun kiritilgan. O'qituvchi darsda ushbu matnlar bilan ishlar ekan, ularning mazmunini qayta so'zlatish bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Bosh qahramonning xatti-harakati, gap-so'zlari, u yoki bu hayotiy lavhalaridagi o'zini tutishi, holati, kechinmalariga o'quvchilarning diqqatini qaratish mutolaaning eng muhim shartlaridan biridir. O'qituvchi bu vazifani to'g'ri ado etish uchun o'quvchilarga yo'naltiruvchi savol, topshiriqlar berib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Matndagi ma'lum lavha, tasvir yoki dialog o'qilgach, "Qahramonning bu holatini qanday baholaysiz?", "Shu o'rinda u to'g'ri yo'l tutdimi?", "Siz ko'rgan harakatlari orqali uning qaysi fazilatlarini namoyon bo'lmoqda?", "Uning shu topda ko'nglidan nimalar kechayotganini aniqlashga urining" kabi savollarni berish mumkin. Shunda tarbiyalanuvchilarning sujetni so'zlash bilan nutqi rivojlansa, savollarga javob berish bilan fikrlash qobiliyati kengayadi, tafakkuri o'sa-

di, matnga ijodiy yondashish malaka va ko'nikmalari shakllana boshlaydi.

3. Mumtoz adiblar ijodidan olingan parchalarning hozirgi tilga tadbil qilingan namunalarini o'qitiladi. Masalan, 3-sinfda Navoiyning bir nechta hikmatli baytlari (ularning ikkitasi tadbil qilinmay, asl holda berilgan) hamda 4-sinfda Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Husayn Koshifiy asarlari o'rganiladi. Ko'rinadiki, mumtoz adabiyotdan namunalar boshlang'ich sinfda juda oz. Shuning uchun ularni o'rganishda yanada e'tiborliroq bo'lish talab etiladi. Negaki, boshlang'ich sinfni tugatib, 5-sinfga o'tgach, o'quvchilar birdaniga adabiyot darslarida mumtoz adiblarning to'liq berilgan she'rlari, asarlaridan olingan anchagina katta parchalarni o'rganishlari, tahlil qilishlari kerak bo'ladi. Bu borada dastlabki ko'nikmalarni shakllantirib borish boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Shu maqsadda u o'quvchilarga "O'qish kitob"larida berilgan mazkur namunalarini misrama-misra tahlil qilish, matndagi ma'noni uqish, unga munosabat bildirishni o'rgatish lozim. Hajmi katta bo'lmagan she'rlarni o'quvchilar oson yod oladilar. Yoddan o'qib berganlaridan so'ng "Shoir bu she'ri orqali bizga nimalarni nasihat qilmoqda?", "O'zingga undan qanday xulosa chiqarding?" kabi savollar berishi mumkin.

4. Darslikdagi rivoyat, hikoyalar, adiblar ijod namunalarini sahna ko'rinishi bilan ham o'rganish mumkin. Buning uchun o'qituvchi uncha murakkab bo'lmagan, matndan uzoqlashmagan holda ssenariy yozib, o'quvchilarga rollarni taqsimlab berishi kerak. Shuningdek, darslikka kiritilmagan mumtoz namunalardan ham foydalanilsa bo'ladi. Alisher Navoiyning

"Hayrat ul-abror" dostonidagi "Sher va Durroj", Gulxaniyning "Zarbulmasal"idagi "Toshbaqa va Chayon" masallari, Huvaydoning "Rohati dil" dostonidagi "Uch ochko'z aka-uka fojiasi" ("Bayoni g'addoriyi dunyo") kabi asarlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi bilan birga sujeti kichik, ssenariy yozishga qulay va g'oyat ibratlidir. Asarlar sahnalashtirilgach, albatta bolalar bilan uning mazmuni, kelib chiqadigan xulosa yuzasidan kichik suhbat o'tkazilishi kerak.

5. Tavallud sanasi nishonlanayotgan adiblarga bag'ishlab o'tkazilayotgan maktab miqyosidagi tadbirlarda ishtirok etish yoki sinfning o'zida kecha o'tkazish mumkin. Bunda o'qituvchi imkon qadar adib asarlarining tadbilini emas, asl matnini o'quvchilarga yodlatishi, u haqida muxtasar ma'lumot beruvchi matn tayyorlashi lozim. Matndagi ma'lumotlarni o'qituvchining o'zi yoki bir yoxud bir necha o'quvchi bayon etishi mumkin.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, joriy "O'qish kitob"larini ko'zdan kechirar ekanimiz ularda sanoqli (besh-oltita) mumtoz adabiyot namoyandalari haqida ma'lumotlar berilganining guvohi bo'lamiz. Nazarimizda, bu qamrovni kengaytirish lozim. Boshlang'ich sinfda Ahmad Yassaviy, Nosir Xisrav, Ogahiy, Munis, Uvaysiy, Nodira, Anbar Otin kabi ijodkorlar haqidagi hikoya, rivoyatlar berilsa, shuningdek, ularning asarlaridan parchalar keltirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'ylaymiz. Bu esa darslik materiallarining rang-barang bo'lishini ta'minlashi bilan bir qatorda bolalarga mumtoz adiblarning kengroq auditoriyasi bilan tanishtirish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, ularda tarixiy xotirani shakllantiradi.

¹V.Qodirov. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 72-bet.

²M.Umarova, Sh.Hakimova. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2008.

³S.Matchonov va boshq. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo'l poligraph servis, 2008.

Saida MAKSUMOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

RUSIYZABON TALABALARGA O'ZBEK TILINI O'RGATISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISH

Til orgatishda klaster metodidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda, ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda bayon qilishga o'rgatadi, mavzuni chuqur o'rganishdan avval ularning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Klasterning quyidagi turlari mavjud:

1. Klassik klaster.

O'qituvchi darsning boshida mavzuga doir tayanch so'zlarni doskaga yozadi. Talabalardan shu so'zga doir fikrlarni tarmoqlashni so'raydi. Bir necha daqiqadan so'ng talabalar o'z fikrlarini guruh bilan birgalikda muhokama qilishadi.



Bunday chizmani har bir talaba mustaqil ravishda daftariga chizishi va davom ettirishi mumkin.

2. Qog'ozli klaster.


Mazkur klaster nafaqat yozma, balki og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday holatda talabalarga kartochkalarga yozilgan alohida so'z (masalan, Markaziy Osiyo) yoki gap taqdim etiladi. Talaba kartochkadagi

yo'zuvni o'qib chiqadi va tayanch so'z yozilgan qog'ozni kerakli joyga yelimplash orqali joylashtiradi. So'ng muhokama qilinadi.

So'z				
Qo'shma so'z	Tub so'z	Juft so'z	Takror so'z	Ibora

3. Mavzuga oid art-klaster (rasmi klaster).

Mazkur klasterni tuzish uchun biror bir mavzuga doir rasm doskaning o'rtasiga yelimplanadi. So'ngra o'quvchilar uni tashkil etuvchi komponentlarini chizishlari yoki tayyor rasmlardan foydalanishlari kerak bo'ladi. Tayyor rasmlar mazmuni faqat bir predmet (narsa-buyum, jonli mavjudot va h.k.) yoki yaxlit sujet (tabiat hodisasi, kishilarning mashg'uloti va h.k.) dan iborat bo'lishi mumkin.



4. Raqamlangan so'zlar asosida tuzilgan klaster.


Mazkur klasterdan mavzuni og'zaki bayon etishda voqealar ketma-ketligini aniqlashtirishda foydalaniladi. Raqamlangan so'zlar asosida klaster jamoaviy tarzda quyidagi usulda tuziladi. Doska markazida mavzuga doir tayanch so'z yoziladi, so'ngra talabalar tomonidan mavzuga doir aytilgan barcha fikrlar ketma-ket muhokama qilishga kirishiladi. O'qituvchi yordamchi so'zlar bilan ko'mak beradi va ular bilan birga doskaga yozilgan so'zlarning oldiga tartib bilan raqamlarni qo'yib chiqadi. Birinchi gapda qo'llanilgan so'zning oldiga 1 raqamini, ikkinchi gapda qo'llanilgan so'zning oldiga 2 raqamini joylashtiradi va h.k.

Tarjimaiy holning ketma-ketligini ifodalagan holda tegishli raqamlarni doirachalarga yopishtiradi. Masalan:

1 raqami **ismi, familiyasi**;

2 raqami **tug'ilgan joyi, vaqti**;

3 raqami **millati** deb yozilgan doirachaga yelimplanadi. Raqamli klaster shu tartibda davom etadi.




Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Inoyatov va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent, 2013.
2. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.
3. M.Tojiyev va boshqalar. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish. – Toshkent, 2012.




5. Guruhli klaster.

Guruhli klaster biror bir mavzuga doir masalalarni kichik guruhlarga taqsimlash va jamoaviy tarzda klaster asosida o'quv savolining mohiyatini ochib berishni ko'zda tutadi. Masalan, rusiyzabon guruhlarda "Predikatni ifodalash" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayotgan vaqtda talabalar guruhlarga bo'linib quyidagi mavzularda klaster tuzishlari mumkin. "Fe'l zamonlari", "Fe'l mayllari", "Fe'l nisbatlari", "Fe'lning ma'no turlari" va h.k. Vatman qog'ozga tayyorlangan klasterlar asosiy mavzu atrofiga yopishtiriladi. Har bir guruh a'zosi o'zining klasteriga asoslanib mavzuni bayon etadi. Shuningdek, talabalar boshqa guruh tomonidan tuzilgan klaster bo'yicha mavzu yuzasidan savollar berishi mumkin.



6. Qayta esga tushurishga yo'naltirilgan klaster.

Mazkur turdagi klasterdan mashg'ulotning boshlanish qismida o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin. Ushbu klaster quyidagi tartibda tuziladi: mavzuning asosiy tushunchasini yoki muhokama predmetini aniqlashtirish uchun doskaning o'rtasiga chizilgan doira ichiga so'roq belgisi qo'yiladi yoki ochiq qoldiriladi. Masalan, o'tilgan mashg'ulotni qayta esga tushurish uchun o'qituvchi talabalarga quyidagi klasterni taqdim etadi va mavzuning qanday nomlanishini so'raydi.



Darslarda klaster metodini qo'llashning juda ko'p afzalliklari bor: darsda talabalarning barchasi faol ishtirok etadi; ularni mustaqil fikrlash, o'tilgan mavzularni esga tushurish, yangi mavzuni mustahkamlashga undaydi. Shuningdek, guruhdagi barcha talabalarni baholashga yordam beradi.



Nargiza Xodjaqulova,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasida katta o'qituvchisi

MASOFAVIY TA'LIM MOODLE PLATFORMASI MISOLIDA

Masofaviy ta'limning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori ta'lim tizimini tubdan yaxshilashga, xalqaro standartlar darajasida kadrlarni tayyorlash mazmun-mohiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga yangi turtki bo'ldi.

Mazkur hujjatga muvofiq, mamlakatimizda ta'limning zamonaviy shakllari va texnologiyalarini joriy etish, sohalarni yo'nalishlarga ajratish va mutaxassislarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi 2017–2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Shu o'rinda bir statistikaga yuzlansak, YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra "... butun dunyoda ta'lim olish istagida bo'lganlar soni ta'lim muassasalaridagi o'rinlar soniga nisbatan ko'p va taxminlarga ko'ra, 2025-yilga kelib, talabalar soni 165 milliondan yana 98 milliontaga oshadi". YUNESKO "Ta'limni axborotlash instituti" mutaxassislarining fikricha, ta'lim jarayonini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy o'qitish va mustaqil o'qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'minotini yaratishdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'limda yangi masofaviy ta'lim yo'nalishining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda respublikamiz ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etishga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga fan-texnika bilim, malaka, ko'nikma tarkibining o'zgarishi hamda hajmining uzluksiz ravishda ortib borishi bugungi kun mutaxassislariga jiddiy talablar qo'yish bilan xarakterlanmoqda.

*Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitishdir, ya'ni o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladi.*¹

N.X.Avliyakov, N.N.Musayevlarning fikriga ko'ra masofaviy o'qitish, ayniqsa:

– o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o'qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;

– turg'un sharoitda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;

– o'qituvchilar va boshqa soha mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda;

– chet el o'quv muassasalarida ta'lim olishni istaydiganlar uchun;

– ikkinchi mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun juda dolzarb bo'lishi mumkin.

Masofaviy o'qitish AQSH, Ispaniya, Italiya, Yaponiya,

Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Koreya, Finlandiya, Avstraliya, Rossiya kabi davlatlarda rivojlanmoqda.

Masofaviy o'qitish faqat milliy ta'lim tizimlaridagina rivojlanib qolmay, balki alohida tijorat kompaniyalari, masalan, Apple, Google, General Motors, Ford va boshqalarda ham rivojlanmoqda.

N.X.Avliyakov, N.N.Musayevlar ta'kidlaganidek, "Masofaviy o'qitishning maqsadi davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirilib, bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu iyerarxik tizim bo'lib: o'qitish maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi."

Ta'lim oluvchilar. Masofaviy o'qitish tizimida ta'lim oluvchilarning nomlanishi hali aniqlanmagan. Ba'zan ularni tinglovchilar deb ataydilar. Masofaviy o'qitish tizimi ta'lim oluvchilarning yetarlicha tayyorgarligini va ish o'rinlarining texnik ta'minotini talab etadi.


O'qituvchilar. Ta'lim jarayonini tashkil etish samaradorligi, asosan, o'qituvchilarga bog'liq bo'ladi. Ammo masofaviy o'qitishning didaktik tizimi xususiyatlari ular bajaradigan vazifalarning serqirraligi va xilma-xilligini talab etadi.

Masofaviy o'qitish tizimida, xuddi an'anaviy o'qitish tizimidagidek, o'qitishning besh metodi qo'llaniladi: axborot-retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

Zoom dasturi va MOODLE platformalari yordamida masofadan o'qitish mazmuni va dars jarayonini bir-biri bilan bog'lab dars tashkil etish mumkin. Har bir o'qitish vositasi, ya'ni o'qitishning texnik vositalari: kompyuter, video kamera, Internet yordamida ishlaydigan dasturlar o'z didaktik imkoniyatlariga ega bo'lib, o'qituvchi bu didaktik imkoniyatlarini bilishi va ularning didaktik maqsadlarga erishish uchun kerakli o'qitish vositalari majmuyini shakllantirishi lozim bo'ladi.

Barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining me'yoriy faoliyat ko'rsatishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy maqomi o'quv muassasasining o'quv material bazasi bilan chambarchas bog'liq. An'anaviy o'quv muassasasining o'quv material bazasi o'quv jarayoni uchun kerak bo'lgan barcha moddiy va texnik vositalar majmuyini, ya'ni o'quv va yordamchi binolar, laboratoriya anjomlari, asbob-uskunalar, o'qitishning texnik vositalari, darsliklar, o'quv-uslubiy materiallarni o'z ichiga oladi.

Masofaviy ta'limning amaliy misoli. 2020-yilning 15-martida yurtimizda favqulodda holat, ya'ni koronavirus sabab karantin e'lon qilinganligi va talabalar bilim olish imkoniyati cheklanganligi tufayli O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 27-martdagi "Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida"gi 233-sonli buyrug'i asosida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" (<http://e.navoiy-uni.uz>) axborot tizimi va MOODLE masofaviy ta'lim platformasi (<http://moodle.navoiy-uni.uz>) ishga tushirildi.



1-rasm. Moodle masofaviy ta'lim platformasi interfeysi

Universitetda 5 ta bakalvriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 174 ta fan, 7 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 43 ta fan, jami 217 ta fandan talabalarga masofaviy shaklda ta'lim olish uchun sharoit yaratildi. Professor-o'qituvchilar tomonidan barcha fanlar bo'yicha tegishli o'quv materiallari ushbu platforma tizimiga muntazam kiritilmoqda.

Professor-o'qituvchilar tomonidan fanlar doirasida tegishli mavzular bo'yicha jami 154 ta videodars, 66 ta audiodars tayyorlanib, youtube.com tizimiga joylashtirildi. Professor-o'qituvchilar turli masofaviy ko'rinishlarda, jumladan MOODLE tizimi, telegram kanallari (t.me/prTSUULL) va boshqa tizimlar orqali talabalar bilan muloqotga kirishib, tegishli mavzular bo'yicha ularga onlayn tarzda maslahatlar berib bormoqdalar.

Shuningdek, 2019–2020-o'quv yilining bahorgi semestrda talabalar bilimini onlayn test (<http://test.navoiy-uni.uz>) axborot tizimi orqali baholash bo'yicha bugungi kunga qadar 30 ta fandan testlar bazasi shakllantirildi. Qisqa muddatda barcha fanlardan testlar bazasi shakllantirilishi va talabalarning fanlar doirasida o'zlashtirish darajalari mazkur tizim orqali baholanishi rejalashtirilmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu tizim talabalarni masofadan turib o'qitishga mo'ljallangan. Talabalar ushbu tizim orqali ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joyda turib mavjud elektron resurslardan foydalanishi, ularni o'qishi, o'qituvchidan vazifa va takliflar olishi mumkin. O'qituvchi doimiy ravishda resurslarni yangilab turishi va o'quvchilarining tashrifi hamda bajarilayotgan vazifalarini nazorat qilib turishi mumkin. Vazifalar tuzilgan testlar yordamida yoki laboratoriya ishi turiga ko'ra berib boriladi. Platformada ishlash sodda bo'lib, jahon standartlariga javob beradi. Talabalar o'qish uchun zarur bo'lgan barcha o'quv materiallarini ushbu platformadan topishlari mumkin.

O'qituvchi platforma orqali talabalar ishini o'z vaqtida baholab, ular yuzasidan tegishli fikr berib borishi muhim. Agar talaba bajargan vazifalarga vaqtda izoh berilsa, xatolari tushuntirilsa, bundan u to'g'ri xulosa chiqarishi tabiiy.

Onlayn muloqot imkoniyati, ya'ni Blue button funksiyasi orqali talabalar onlayn konferensiyalarda, forumlarda, bahs-munozaralarda jonli muloqot qilishlari mumkin. Bunda o'qituvchi konferensiya tashkil qiladi va talabalarni taklif qiladi. Buning amaliy jihatdan afzalligi shundaki, talabalar ingliz tilida jonli muloqot qilib o'z nutqini rivojlantirishlari mumkin.

ZOOM dasturi orqali video konferensiya o'tkazish bo'yicha kullanma

Video konferensiyani amalga oshirishning 2 usuli mavjud:

1. Mobil telefon yordamida. Bunda Google playmarketdan Zoom Cloud meetings apps ilovasi yuklab olinadi (2-rasm).
2. Kompyuter yoki noutbuk yordamida. Bunda Internetdan ZoomInstallerXP dasturi yuklab olinadi (3-rasm).

So'ng, ZoomInstallerXP dasturi kompyuterga o'rnatiladi. Dastur o'rnatganidan keyin ro'yxatdan o'tiladi. Odatda, ro'yxatdan o'tayotganda, elektron pochta so'raladi yoki facebook-dagi account ishlatilishi ham mumkin.

Ro'yxatdan o'tgandan keyin "Организовать" tugmasini bosish orqali Zoom konferensiyasi tashkil qilinadi. Agar konferensiya boshqa foydalanuvchi tomonidan tashkil qilingan bo'lsa, dastur maxsus identifikatsiya kodi va parolini talab qiladi.

Zoom dasturida ro'yxatdan o'tish

Konferensiyaga qolgan ishtirokchilarni taklif qilish uchun ularga "приглашения" yuboriladi. Bunda URL manzili nusxasi olinib foydalanuvchining elektron pochta-siga yuboriladi, yoki telegram ilovasiga yuborilishi ham mumkin (4–5-rasm-lar). Konferensiyaga "приглашения"dagi kod va parol orqali kiriladi.

Moderator video-konferensiyani tashkil qiladi va linkni boshqa a'zolarga yetkazadi. Har bir konferensiya a'zosi ID va parol bilan tizimga kiradi, tovush va video tizimni sozlaydi.

Shu tariqa video-konferensiya tashkil qilinib, masofaviy ta'lim mashg'ulotlari olib boriladi.

¹N.X.Avliyakov, N.N.Musayeva. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: "Cho'lpon" NMIU, 2012. 173-bet.

Feruza SHAROPOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistri

ONA TILI DARSLARIDA MATNNI O'QIB TUSHUNISH MALAKASI

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash imkonini beradi. O'zbekiston qo'shilgan xalqaro ta'lim sifatini baholash tadqiqoti PISA loyihasi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlar va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining **matnni o'qish va qabul qilish** bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning yutuqlarga erishishiga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va o'rtamassus ta'limi DTS va dasturining yangi nashrida o'quvchilarning yosh darajasiga qarab ular ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar (A1, A1+, B1, B1+...) belgilanib, kompetensiyalarga mos talablar ham kiritilgan.

Bilamizki, o'quvchilarning o'qish savodxonligi boshlang'ich sinflarda "O'qish" darsligidan boshlanadi va unda o'quvchilarga matnni o'qish qoidalari, usullari o'rgatiladi. Yuqori sinflarda esa o'qish darsligining o'rnini Adabiyot fani egallaydi va badiiy matnlardagi badiiy obrazlar o'rganila boshlaydi. Ma'lumki, badiiy matndagi birliklar o'quvchi ko'rayotgandek to'g'ri dekodlanmaydi, balki yozuvchi maqsadiga ko'ra tahlil qilinadi. Shunday ekan, Ona tili darslarida turli mavzudagi matnlarni ustida ishlash, uning tushunilishini aniqlaydigan va osonlashtiradigan topshiriqlarni tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tushunish o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni yangi o'qilayotgan yoki eshitilayotgan xabar bilan solishtirish, taqqoslash orqali sodir bo'ladi. Tushunish haqida ingliz tilshunosi Cheryl J.Gowie o'zining "O'qib tushunish ko'nikmasining psixolingvistik yo'nalishlari" nomli maqolasida: "Bolada mavjud bo'lgan bilimlarga mos matn bolada uni tushunishga tuynuk ochadi. Berilayotgan ma'lumot uning oldingi bilimini chuqurlashtirishi, aniqlashtirishi kerak", – deydi. Ingliz tilshunosi Cheryl T.Gowie o'zining tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga bir nechta sodda (aniq va majhul nisbatdagi) gaplarni o'qitirib, ulardan nimani tushunganlarini so'rash orqali hamma retsiyentlar aniq nisbatdagi ma'lumotlarni tez, to'g'ri va oson tushunganliklarini aniqlagan.

O'zbek tilshunosligida I.Azimova tomonidan universitetning I bosqich talabalari bilan olib borilgan tadqiqotda talabalarga turli mavzudagi gazeta matnlari taqdim etilgan va matnlarning qay darajada tushunilganligi

o'rganilgan. Tajriba natijalariga ko'ra gapning o'ta uzun bo'lishi, gap tarkibida noodatyi birliklarning qo'llanishi ko'pchilikda tushunishning qiyinlashuviga sabab bo'lishi aniqlangan.

Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot obyekti Toshkent shahar Chilonzor tumanida joylashgan 114-maktabning 5-"B" sinf o'quvchilari bo'ldi. Bunday sinov darslarida o'quvchilarga qiziqarli matn hamda mazkur matn yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi. Bitta dars uchun tayyorlangan mashqlar misolida biz matnni o'qib tushunish bo'yicha topshiriqlarning psixolingvistik jihatlarni ko'rib chiqdik. Quyida shunday darslardan birini tahlil qilamiz.

O'quvchilarga "Kislorod" mavzusidagi matn berildi ("Jajji akademik" jurnali, 4(52)-son, 2019-yil, 7-bet). Matn 338 so'zdan iborat bo'lib, sarlavha va 6 ta qism (xatboshi)dan iborat. Matn qismlari harflar (a, b, c, d, e, f) bilan ajratilgan.

Berilgan topshiriqlar quyidagi guruhlariga ajratildi:

1. Matnda qo'llangan so'z va iboralar mazmuni.
2. Eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma'lumotdan xulosa chiqarish.
3. Implitsit (yashirin ifodalangan) ma'lumotdan xulosa chiqarish.

1-topshiriqda o'quvchilarning matnga asoslangan holda so'z ma'nosini qay darajada tushunganliklari aniqlandi, unda matn mazmuniga aloqador so'zlar berilgan bo'lib, ularning izohlari tartibsiz joylashgan. O'quvchilar izoh qaysi so'zga tegishli bo'lsa, ajratilgan joyga o'sha so'zni yozishlari kerak bo'ladi. Bu usul matnning perseptiv birliklarini aniqlashga yordam beradi, ya'ni o'quvchilardan tanlab olingan gaplarni qayta xotirlab, ma'nosini tahlil qilishga majbur qiladi.

Unda quyidagi so'zlar tanlab olingan edi: *tabiiy ofatlar, kislorod, o'rmon, yog'och*.

1. *Ular o'rmonlarning asosi bo'lib, hayotning qulay bo'lishi va sanoatning rivojlanishi ularga bo'lgan talabni oshirib yubordi.*

2. *Tirik jonzot usiz hayotni tasavvur qila olmaydi, u toza havo tarkibidagi eng muhim moddalardan biri bo'lib, rangsiz, hidsiz va ta'msiz gaz hisoblanadi.*

3. *U turli xil ko'rinishlarda bo'lib, barchaga qayg'u va tashvish olib keladi, odatda, odamlar unga chora topa olmaydilar.*

4. *Ular quruqlikning uchdan bir qismini tashkil qiladi, ular bo'lmasa yer yuzi ulkan sahroga aylanib qoladi.*

1-topshiriq natijalariga ko'ra barcha o'quvchilar izohlarga mos so'zlarni topib yozgan va topshiriq 100% to'g'ri bajarilgan. Tanlangan gaplar qo'shma gaplar, shunday bo'lsa-da o'quvchilar ma'lumotlarni to'g'ri tushungan: 1-izohga – yog'och, 2 – kislorod, 3 – tabiiy ofatlar, 4 – o'rmon javobi yozilgan.

2-eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma'lumotdan xulosa chiqarish topshirig'ida qismlarga bo'linib harflar bilan ajratilgan matnning orasidan beshta gap tanlab olinib, raqamlandi. O'quvchilar raqamli izohlar matnning qaysi qismida joylashganini aniqlab, to'g'ri harflarni yozishlari kerak:

2-topshiriq natijalariga ko'ra:

1-izohga 2 nafar o'quvchi "c" ning o'rniga "a";

5-izohga 1 nafar o'quvchi "b" ning o'rniga "a";

3-izohga 1 nafar o'quvchi "f" ning o'rniga "d" ni belgilagan.

2- va 4-izohlar barcha o'quvchilar tomonidan to'g'ri belgilangan.

"Usiz barcha narsa vayron bo'ladi, hatto mustahkam binolar ham" gapi matnning "c" qismida berilgan, "Havoda kislorod 7% dan kamayib ketsa, odamlar halok bo'lishi mumkin, usiz ulkan, mustahkam binolar qum zarralariga aylanib to'kilib ketadi". Ammo 2 nafar o'quvchi "a" qismni belgilagan: "Kislorod bo'lmasa, Yer yuzida birorta ham tirik jon qolmaydi". "Birorta ham" birikmasi o'quvchilarda "hamma narsa, hattoki mustahkam binolar ham" tarzida xulosa chiqarishga olib kelgan.

5-izohda (b) "Yer qobig'ining deyarli 50%i kisloroddan iborat" va (a) qismdagi "kislorod havoning 21% ini tashkil qiladi" jumllarida kislorod so'zining takror qo'llanilganligi va foiz belgilari o'quvchini chalg'itgan va "kislorod – bu havo" tasavvuri jumllarni tahlil qilmasdan javobni belgilashga sabab bo'lgan. Matnda berilgan ma'lumotda esa kislorod – havo emas, balki uning tarkibiy qismi ekanligi aytiladi. O'quvchilar % belgisiga asosiy e'tiborni qaratganliklari ko'zga tashlanadi, aslida ular foizlar yonidagi sonlarni tasavvur qilishlari kerak edi.

3-izohda berilgan jumla matndan aynan uzib olinmasdan, **semantik transformatsiya** ko'rinishida berilgan edi. O'quvchilar gapning mazmuniga e'tibor bermasdan, shakliga qarab (har ikkala qismlarda "60" soni ishlatilgan) boshqa, noto'g'ri javobni belgilashdi va bu orqali o'quvchilarning matnni o'qish jarayonidagi e'tiborsizligi matn birliklarini idrok qila olmaslikka sabab bo'ladi.

3-implitsit (yashirin ifodalangan) ma'lumotdan xulosa chiqarish topshirig'ida matn yuzasidan savollar taqdim qilinadi, o'quvchilar javobni matndan tushunganlarini o'z nutqlarida bayon qiladilar. 1–5-savollarga matndan aynan javob topish mumkin, shu sababli ular eksplitsit (ochiq ifodalangan) savollar hisoblanadi. Lekin 6-savolga o'quvchi matn mazmunidan kelib chiqqan holda o'z mustaqil fikrini bayon qilishi lozim (implitsit):

1. Kislorod toza havomi yo uning tarkibiy qismi?

2. Kislorod qachon va kim tomonidan kashf qilingan?

3. Kislorod Yer yuzining necha foizini tashkil qiladi?

4. 125 kg kislorod nechta odamning yil davomida yashashiga yetadi?

5. Qanday hududlar qo'riqxonalariga aylantirilgan?

6. Nima sababdan odamlar o'rmonlarning haqiqiy kushandasi hisoblanadi deb o'ylaysiz?

3-topshiriq natijalariga ko'ra 2 nafar o'quvchi 1-savolga, "toza havo" deb noto'g'ri javob bergan. Ular havo kisloroddan tashqari azot va karbonat angidrid gazidan tashkil topganligiga e'tibor qaratmagan, savolga javob berishda o'zlarining avvalgi bilimlariga tayangan. 2-savolga 8 nafar o'quvchi to'g'ri javob berdi. 3-savolga 5 nafar o'quvchi to'g'ri javob berdi. Qolganlar esa matndagi boshqa foizli raqamlarni yozgan: 21%, 125, 7%, 60%. Bu natija ularning foizlar miqdorini tasavvur qila olmasliklarini bildiradi. 4-savolga 12 nafar o'quvchi to'g'ri, 1 nafar o'quvchi noaniq javob yozgan. 5-savolga 12 nafar o'quvchi to'g'ri javob bergan, 1 nafar o'quvchi esa umuman javob bermagan. 6-savolga o'quvchilar 11 nafar o'quvchi qoniqarli javob yozgan, 2 nafar o'quvchi esa savolni tushunmagan yoki fikrlarini to'g'ri ifodalay olmagan.

Mazkur tajriba natijasida o'qib tushunish jarayonining quyidagi holatlariga e'tibor qaratildi:

So'z ma'nosining tushunilishi. Birinchi topshiriqda so'z qo'llanishi mumkin bo'lgan kontekstlarning variantlari berilgan. Mazkur topshiriqda birorta bola xato qilmagan. Bu holat so'z ma'nosining o'zlashtirilishida kontekstning roli muhimligini yana bir bor isbotlaydi.

Matnda berilgan informatsiyaning tushunilishi. Ikkinchi topshiriqda matnda berilgan ma'lumotning o'quvchilar tomonidan qanday tushunilganligi semantik transformatsiyalar (matnda berilgan ma'lumotni boshqa so'z va gap shakli yordamida berish) vositasida tekshirildi. Mazkur topshiriq ham deyarli xatosiz bajarildi. Xatolar, asosan, matnda o'xshash raqamlarning qo'llanganligi bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur topshiriq semantik transformatsiyalar bolaning tushunish qobiliyatini tekshirishda samarali vosita bo'la olishini ko'rsatdi.

Matndagi detallar bo'yicha berilgan savollarga javob berishda xatolar nisbatan ko'proq kuzatildi. Bunda, ayniqsa, 3-savolning javobida ko'proq xatoga yo'l qo'yildi. Bunda turli qiymatdagi bir nechta raqamning matnda kelishi ularning chalkashtirilishiga olib kelgan. Aytish mumkinki, shu kabi ma'lumotlar berilganda ularni ta'kidlaydigan qo'shimcha vositalardan foydalanish yoki raqam bilan bog'liq har bir ma'lumotga o'quvchining diqqati jalb etilishi kerak.

Xullas, matnni o'qib tushunish malakasini rivojlantirishda so'z ma'nosini kontekst bilan bog'lab berish, matndagi ma'lumotni turli shakllarda ifodalash, tafsilotlarga alohida urg'u berishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.oecd.org/pisa/aboutpisa/
2. David Nunan. Language teaching methodology. Macquarie university, 1991.
3. Cheryl J.Gowie. Psycholinguistic strategies for improving reading comprehension. The elementary school Journal, Volume 79, number 2. Dec. 2015.
4. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: f.f.n.diss. – Toshkent: O'zMU, 2008.



Komiljon HAMRAYEV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

HIKOYADA SO'NGGI JUMLANING POETIK VAZIFASI

So'nggi jumlada badiiy asar kompozitsiyasining yalpi garmoniya oydinlashadi. So'nggi jumla – zabt etilgan cho'qqi. Unda badiiy asar olamining estetik go'zalligi va zavqu-shavqi mujassam. So'nggi jumladan so'ng yozuvchi yengil tin oladi, dardi ariydi, o'quvchining esa hayrati oshadi, iztirobga tushadi. So'nggi jumlada aytilgan fikrlar sarhisob qilinadi, xulosa chiqariladi.

Mukammal so'nggi jumla har qanday holatda badiiy asar kompozitsiyasini tugal, yaxlit bir butun hodisaga aylantiradi. Hazrat Navoiy yozadi:

*"Majnun g'amidin bori azoliq,
Layli o'lumi uchun qaroliq.
Ya'ni bu sifat firoqnoma,
Bo'ldi manga qatraz xoma.
So'g'in nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir"*.

Ko'rinadiki, so'nggi jumla nafaqat badiiy asar kompozitsiyasini tashkil qilishga, balki san'atkorning ijod psixologiyasini va badiiy uslubini anglashga xizmat qiladi. Ilk jumla badiiy kompozitsiya sathida bosh fikrni yoyishga asos bo'lsa, so'nggi jumla badiiy matnda yozuvchining poetik nuqtayi nazarini umumlashtirib, badiiy fikrlarni yig'ib, xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Ayniqsa, so'nggi jumlaning poetik vazifasi hikoya janrida yorqin ko'rinadi. Hikoya kompozitsiyasining tezis, antitezis, sintez tuzilishida so'nggi jumla antitezis yoki sintez qismida o'z ifodasini topadi. Agar hikoya voqeasi sujet chizig'ida kulminatsiya lavhasi bilan tugasa, so'nggi jumla antitezisda ifodalanadi. Agar hikoya voqeasiga sujet chizig'ida yechim lavhasi tasvirlangan bo'lsa, so'nggi jumla sintez xarakterda bo'ladi. Har ikkala holatda ham so'nggi jumla firklarini umumlashtiradi. Badiiy matn tarkibida poetik modul vazifasini bajaradi. So'nggi jumla o'qilgandan so'nggina butun asar voqealari o'quvchi tasavvurida qayta tiklanadi. Bir zum bo'lsin, badiiy pafos ta'sirida hayot haqidagi qarashlar tiniqlashadi.

Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo'raqulov "Etakdagi kulba" hikoyasining bosh va so'nggi jumlasini haqida shunday deb yozadi: "Etakdagi kulba" asari voqeasi shunchaki kechmaydi, aynan "sodir bo'ladi". Negaki, qishloq ahli chaqmoqdek kelib-qaytgan voqeani anglab-anglamay qoladi. Agar hikoyaning birinchi jumlasini: "Jimjit Qishloqqa (bu o'rinda qishloq so'zining bosh harfda berilishida gap ko'p – U. J.) jimjitlikni buzib bir devona oraladi", deb boshlanishini, so'nggi jumlaning esa "Xuddi u aslida bo'lmaganiday..." ("Sharq yulduzi", 2010, 1-son) tarzida uch nuqta bilan yakunlanishini hisobga olsak, bosh va so'nggi jumlar hikoya-metforaning tayanch modeli – qolip jumlar ekani oydinlashadi. Model ichidagi voqeaning qanday favqulodda boshlangan bo'lsa, shunday shiddat bilan tugashi, an'anaviy hikoyalarda bo'lganidek, asar so'nggidagi "xulosa-hissa"ning yo'qligi, yozuvchi mahorati, badiiy uslubiga xos sifatdan ko'ra, ko'proq voqelikni metaforik qabul qilish hamda ifodalashning ong va ongsizlik orasida sodir bo'lishini urg'ulaydiki, bu ijodiy jarayonning, sof badiiy asarning ijodiy sakarot (ekstaz) holati mahsuli ekanidan dalolat beradi".

Olimning ushbu qarashlari o'quvchida fikr uyg'otadi. Haqiqatan ham, hikoya janrida ilk va so'nggi jumla badiiy matn qatida o'zaro botiniy aloqada bo'ladi. Hikoyaga xos kompozitsiyaning tezis, antitezis, sintez sxemasida bosh va so'nggi jumla o'rtasida poetik bog'lanishga sharoit yaratadi. Bu o'rinda A.Suyunning "Oqtirnoq" va "Ikki tong orasi" hikoyasini fikrimizga misol bo'ladi: "Ular biyaning narxini xomcho't qilib, bepoyon kengliklar ichida tonggi g'ira-shiraga singib boradi..."³. "Ikki tong orasi" asarida sarlavhaga muvofiq hayotning bir parchasi tasvirlangan. Hikoyada bosh va oxirgi jumla mana shu parchani qamrovlab ko'rsarishga xizmat qilgan. Hikoya voqeasi erta tongda boshlanib, erta tongda tugaydi. Ilk va so'nggi jumla zamon va makon tasviri, obrazlarning xatti-harakatlari aynan takrorlanadi. Ilk va so'nggi jumla hikoya janrida tugal voqelik bayon qilinmasligiga ishora qilib, ko'p seriyali kinoni eslatadi.

Ilk va so'nggi jumla hikoya janrida o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Deylik, ilk va so'nggi jumla muayyan yozuvchining ijodiga mansub hikoyalarini qiyosan tahlil qilishda, ijodkorlarning epik tafakkur qamrovini belgilashda badiiy tayanch vazifasini bajaradi. Umuman, birinchidan, ilk va so'nggi jumla hikoyaning badiiy ritmini belgilab beradi; ikkinchidan, hikoyaning mazmun mohiyatini o'zida aks ettirishda ko'zga misol poetik modul vazifasini bajaradi; uchinchidan, hikoyada ilk jumla qanday shiddat bilan boshlansa, so'nggi jumla ham shunday tempda tugaydi; to'rtinchidan, ilk va so'nggi jumla badiiy vaqt nuqtayi nazaridan hikoyaning sujet chizig'ida poetik bog'lanishda bo'ladi; beshinchidan, ilk va so'nggi jumla hikoya kompozitsiyasiga poetik butunlik kasb etadi. Umuman olganda, ilk va so'nggi jumla hikoya kompozitsiyasi tarkibida polifunksional xarakterga ega.

O'zbek hikoyachiligida so'nggi jumlaning xilma-xil shakllari uchraydi. Bu birinchidan, janr tabiati bilan izohlansa, so'ng yozuvchining badiiy uslubi bilan bog'liq. Mana shu ikki xususiyat so'nggi jumla shakllarini ajratishda yetakchilik qiladi. Quyida so'nggi jumlaning aniqlangan shakllari misolida fikrimizni asoslashga urinamiz:

1. Epilog-jumla. Epilog yunoncha, "so'nggi so'z, yakun, xotima" ma'nolarini ifodalaydi. Epilog epik asarlarda asosiy sujet voqeasidan so'ng beriladigan poetik parcha hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda epilogni kimdir badiiy sujet unsuri sifatida tahlilga tortsa, yana kimdir uni kompozitsiya elementi deb biladi. Bizningcha, agar epilog badiiy asar voqeasining davomiyligiga da'vo qilsa, badiiy sujet unsuri sanaladi. Ya'ni badiiy sujet chizig'i qamrab ololmagan asar voqeasining bir bo'laki muxtasar jumla epilogda ifodalanadi. Aksincha, epilog asarning badiiy g'oyasiga ishora qilsa, kompozitsiya elementi hisoblanadi. Har ikkala holatda ham epilog asar kompozitsiyasining sathida o'zining poetik vazifasini o'taydi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Ming bir jon", Nazar Eshonqulning "Bahouddinning iti" hikoyalarda badiiy epilog sujet voqeasining davomi sanaladi. Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi", G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" asarlarida esa yozuvchining badiiy g'oyasiga ishora qilingan: "Men, albatta, juma kuni maktabga borib, afandimizdan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtingiz bo'lsa juma kuni siz ham boringiz".

2. Harakat-jumla. Hikoya voqeasi personajlarning xatti-harakatlari bilan tugasa, so'nggi jumlaning harakat shakli hosil bo'ladi. Bu tipdagi hikoyalarda badiiy sujet voqeasi kompozitsiya sathida soat strelkasiga o'xshab joylashadi. O'zbek hikoyachiligida harakat-jumlaning ko'plab namunalarini uchratish mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "Nurli cho'qqilar", Luqmon Bo'rixon "Qo'noq", Nazar Eshonqulning "O'pqon"i mana shunday hikoyalar sirasiga kiradi. Harakat-jumla hikoya tabiatining mahsuli o'laroq, individual xarakterga ega. Unda hikoya badiiy sujetining notugalligi anglashiladi. Bunday hikoyalarda bosh mavzuning tasviri, yozuvchining badiiy g'oyasi personajlarning xatti-harakatida o'z ifodasini topadi: "U, nazarimda, o'zining bepoyon Oqlik o'lkasi tomon mangu parvozga shaylanayotganday tuyuldi. Poyezd o'kirib shiddat bilan yelib borar edi".

3. Sintez-jumla. Hikoya yakunidagi umumlashma fikr ifodasi sintez jumlagi tegishli bo'ladi. Sintez-jumla badiiy matn tarkibida fikr va nuqtayi nazarlar umumlashtirilib, xulosa chiqariladi. Hikoya kompozitsiyasining tezis, antitezis yoki antitezis yoki sintez semantik qurilishida so'nggi jumla yozuvchining bosh fikrini oydinlashtiradi. Sintez-jumla badiiy adabiyotning kichik janrlarida keng tarqalgan. Jumladan, o'zbek hikoyachiligida Uchqun Nazarovning "Kal mulla", Nazar Eshonqulning "Qultoy" hikoyalari sintez-jumla bilan tugagan: "Baqirib-chaqirishsa ham mayli, jimlikdan tuzuk".

4. Peyzaj-jumla. Ushbu so'nggi jumla shaklida hikoya oxirida tabiat tasviri beriladi. Peyzaj-jumla hikoya yakunida ramziy ma'no kasb etadi. Ko'p hollarda hikoyada badiiy sujet va poetik obrazlarga xos xususiyatlar hikoyaning so'nggi jumlasida tabiat tasviriga ko'chiriladi. Masalan, peyzaj-jumla hikoya xotimasida yechim vazifasini bajaradi yoki personajlarning ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi. Abdulhamid Cho'iponning "Novvoy qiz", Normurod Norqobilovning "Ayriqliq quvonchi", Tohir Malikning "Tiriklik suvi" kabi hikoyalari fikrimizga misol bo'ladi: "Dengiz mavjlari va to'lqinlari quchog'iga olib, ularni qirg'oqlardan saqlash: qo'riqlash qayg'isiga botdi".

5. Kinoya-jumla. Hikoya yakunida so'nggi jumla antifrazis xarakterda bo'ladi. So'nggi jumla badiiy matn tarkibida ko'chma ma'no ifodalaydi. Kinoya-jumla shakli hikoya voqeasining mahsuli o'laroq yozuvchining badiiy g'oyasiga ishora qiladi. O'zbek hikoyachiligida Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Mayiz yemagan xotin", "San'atkor" hikoyalarda kinoya-jumlaning go'zal namunasi uchraydi: "Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi: – Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan!"

6. Yechim-jumla. So'nggi jumlaning ushbu shaklida hikoyaning badiiy sujet chizig'ida tugun yechiladi. Bu o'tkir sujetli hikoyalarda uchraydi. Hikoyaning badiiy konflikti so'nggi jumla oydinlashadi. Yozuvchi hikoya xotimasida kutilmagan yechim taqdim qiladi. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi", "O'lik mavsum", "Tobut" hikoyalari yechim-jumla bilan xotima topadi. "Tobut" va "O'lik mavsum"da yechim jumla ramziy ma'no ifodalasa, "Shamolni tutib bo'lmaydi"da esa o'z ma'nosida keladi. Hikoyada personajlarning o'zaro va ruhiyatidagi ziddiyat so'nggi jumla yechiladi: "– Bizga o'lik ustozlik qilibdi. Biz o'likka muhabbat qo'yibmiz".

7. Kulminatsion jumla. Mazkur so'nggi jumla shaklida hikoya voqeasining avj nuqtasi bayon qilinadi. Kulminatsion jumla hikoyaning badiiy konflikti taranglashadi. Personajlarning taqdirida va ruhiyatida o'zgarishlar kuzatiladi. Bu bilan muallif hikoya xulosasini o'quvchiga havola qiladi va o'quvchi ijodiy faolligining oshishiga sababchi bo'ladi. Kulminatsion jumla hikoya kompozitsiyasini tashkil qilishda so'nggi tayanch nuqta sanaladi. Kulminatsion jumla hikoyaning badiiy pafosi o'quvchini junbushga keltiradi. Mirkarim Osimning "Shiroq", Nazar Eshonqulning "Bevaqt chalingan bong" hikoyalari kulminatsion jumla bilan nihoyalanaadi.

8. Psixologik jumla. Ushbu so'nggi jumla shakli hikoyada personajlarning ruhiy holatini tasvirlashga xizmat qiladi. Bu tipdagi hikoyalarda badiiy sujet ichki konflikt asosiga quriladi. So'nggi jumla hikoyaning bosh g'oyasi personajlar ruhiyatiga orqali tasvirlanadi. Abdulla Qahhorning "Anor", Pirimqul Qodirovning "Ilinj", Murod Muhammad Do'stning "Dasht-u dalalarda" hikoyalari fikrimizga misol bo'ladi.

9. Portret-jumla. Hikoya so'nggida badiiy obrazlarning portretiga oid muayyan belgi tasvirlanadi. Yozuvchi badiiy g'oyasini hikoya xotimasida qahramon portretiga yuklaydi. Xullas, so'nggi jumla hikoya personajlaridan birining portreti tasviri orqali yozuvchi g'oyasiga ishora qilinadi. Uchqun Nazarovning "Qish nafasi", Qudrat Do'smuhhammadning "Oltin tuxum", Orziqul Ergashning "Dala o'rtasidagi daraxt" hikoyalari portret jumla bilan tugaydi.

10. Detal-jumla. So'nggi jumlaning ushbu shaklida hikoya oxirida badiiy detal tasviri beriladi. Detal-jumla hikoyada personajlarning ruhiy holatiga va yozuvchining badiiy g'oyasiga ishora qiladi. O'quvchini fikrlashga undab, xulosa chiqarishiga turtki beradi. Ko'p hollarda detal-jumla hikoya sarlavhasiga chiqadi. Masalan, Shukur Xolmirzayevning "Oqtosh" hikoyalari fikrimizga misol bo'ladi.

11. Dialog-jumla. Hikoyaning poetik nutq shakli so'nggi jumla dialog ko'rinishida bo'ladi. Hikoya voqeasi savol-javob, bahs-munozara ruhida bayon qilinadi. Dialog-jumla hikoyada badiiy konfliktning yechimi bo'lishi bilan birga personajlarning xulosasi hisoblanadi. Shukur Xolmirzayevning "Ikki jahon ovorasi", Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyalarda yuqoridagi fikrlar o'z tasdig'ini topadi.

12. So'roq-jumla. Hikoya xotimasida so'roq jumla roviy-personaj nutqining bir bo'laki sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining g'oyaviy niyati hikoyaning badiiy sujet yechimi mana shu ritorik so'roq jumla o'z ifodasini topadi. So'roq-jumlaning javobi badiiy matn qatida hikoyaning bosh mavzusini ifodalaydi. Ahmad A'zamning "Gul ko'tarib ketayotgan erkak", Nurulloh Muhammad Raufxonning "Oq bino oqshomlari" hikoyalari bunga misol bo'ladi.

Umuman olganda, yozuvchining butun hikoya davomida ilgari surgan qarashlari so'nggi jumla jamlanadi. Ayni xususiyatlar bilan so'nggi jumla hikoya kompozitsiyasi sathida badiiy modulning sintezlovchi bo'laki vazifasini bajaradi. So'nggi jumla hikoya kompozitsiyasining intihosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy Alisher. Layli va Majnun. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1992. T.9. 228-bet.
2. U. Jo'raqulov. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G'.G'ulom, 2015. 220-bet.
3. Suyun A. G'udbintog' hikoyalari. – Toshkent: Akademnashr, 2016. 25-bet.
4. Solijonov. Detallar tilga kirganda. O'zbek adabiy tanqidi: [antologiya] – Toshkent: Turon-Iqbol, 2011. 213-bet.
5. Qodiriy A. Jinlar bazmi. // XX asr hikoyasi antologiyasidan. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. 18-bet.
6. Bo'rixon L. O'pqon // XX asr hikoyasi antologiyasidan. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. 574-bet.
7. Nazarov U. Kal mulla // XX asr hikoyasi antologiyasidan. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. 574-bet.
8. Cho'ipon A. Novvoy qiz // XX asr hikoyasi antologiyasidan. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. 24-bet.
9. Qahhor A. Anor to'plamidan. – Toshkent: G'.G'ulom, 2016. 9-bet.
10. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam to'plamidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. 15-bet.

Ravshan IKRAMOV,
yuridik fanlari nomzodi, dotsent;
Norqul BEKMIRZAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

“AVESTO”DA AYOL VA OILA HUQUQLARI TALQINI

“Avesto”da oila erki, xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rnini, onaning xonadondagi mavqeyi masalalari turli o'rinlarda qayd etilgan, izohlangan. Zardushtiylikda qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Zardusht ta'limoticha har bir ota-ona o'z qizini balog'at yoshiga (15 yoshga) yetguncha zamona-sining barcha hunarlari, mol boqish, ro'zg'or tutishni bilishini ta'minlashi, e'tiqodda bosiq, pokiza qilib tarbiyalashi zarur. Bu bir tomondan, ota-ona ishini yengillatib, xonadonning hamisha saranjom, pok, isrofgarchiliksiz bo'lishini, ikkinchi tomondan, oila mustahkamligini ta'minlaydi. Buning uchun qiz bola ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan barkamol bo'lmog'i zarur. Bunda onaning roli va mavqeyi ancha yuksakdir.

“Avesto”ning juda ko'p o'rinlarida bevosita ayollar madhini uchratamiz. Jumladan, 3-xatda “Biz barcha ayollar va erkaklarning pok raftarlari va ravonlarini madh etamiz”, deyilsa, Yashtlarda “Biz pok va shijoatli ayol-u erkaklarning ruhi ravonlarini madh etamiz”, degan fikrlarga duch kelamiz. Zardusht bo'lsa, “ayol huquqini tahqir etmoq yomon amaldir, u nodonlik belgisidir”, deydi.

Zardusht qizini turmushga berish oldida quyidagicha nasihat qiladi: “Ey Pruchisto, ey kenja qizim, men sening otang ekanman mazdaparstlik dinining targ'ibotchisi Jomaspni senga jufti halollikka intihob etdim. Endi sen o'zing bilan aql-u farosat bilan maslahat qil, bu maslahatni qabul etsang, poklik rasmi bilan ahdi nikoh bog'laymiz”. Zardusht yana bo'lg'usi kelin-kuyovlarga quyidagicha murojaat qiladi: Endi men Sizlarga shaxsan murojaat etaman: pandimga quloq soling va aytganlarimni xotirangizga muhrlab oling. Halollik bilan kun kechirish yo'lida g'ayratli va shijoatli bo'ling. Har biringiz yaxshi xulqingiz bilan bir-biringizga mehr qo'ying, tokim muqaddas er-xotinlikni xursandchilik va hushbaxtlik bilan o'tkazing”.

Zardushtiyalarda nikoh bir umrga muhrlangan, bir erkakka ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh ravo bo'lgan emas. Er-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la'natlangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilinib, jazolangan va nikohda eri uchun “xarom” hisoblangan.

Ajdodlarimiz jamiyatda, oilada ayolning erlar bilan barobar huquqli bo'lishlariga intilishgan. “Avesto”ning 53-yashtida Ahuramazdaning bu xususidagi farzlari-yu Zardusht pandlari keltirilgan. Yashtlardagi mulohazalarga qaraganda jamiyat hayotining biron sohasida xotin-qizlar huquqi cheklangan emas. Chunonchi, ular ro'za tutgan, besh vaqt namoz o'qishni kanda qilmagan, ibodatni o'z xohishlariga ko'ra yakka yoki erkaklar jamoasiga hamrohlikda ado etishgan. Otashkadalardagi qiroatda musiqa jo'rligida Yazdonni madh etuvchi madhiyalarni ijro etishda qatnashgan. Oila butunligi va farovonligini ta'minlashda ayolning o'rniga alohida e'tibor berishgan.

Shuning uchun ham ayol ma'buda Osha yaxshilik timsoli. U yer yuzida hamisha yaxshilik tantanasini ta'minlaydi: yurt osoyishtaligi, el farovonligining barqarorligini bunyod etmoq uchun Ahriman hamda “Oshabonu” deb nom qo'yishning rasmiy tus olganligi ham ana shu ramz bilan bog'liq.

“Avesto”ning, asosan, nasriy bayonlaridan iborat bo'lgan “Vendidod” qismida oila butunligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyati nikohning bekor qilinishi sababi va

shartlari ancha batafsil bayon etilgan. Alohida Yashtlarda Ahuramazda yoki Zardushtning kelin-kuyovlarga da'vati, murojaatlari keltirilgan. Ahuramazda deydi: “Ey Spetamon (Zardushtning laqabi. Uning Spetamon qavmidan ekanligiga ishora) Zardusht! Men oilali erkaklarni oilasiz mardlardan ko'ra muhtaram tutaman. Kimda-kim balog'at yoshiga yetgan yigitning uylanishiga moddiy yordam bersa, unga bu dunyo-yu u dunyoda savob yogdiraman. ...uylanish uchun oila qurmoqchi bo'lgan har bir kishiga yo'l ko'rsatmoq va moddiy yordam bermoq hammaning vazifasidir”.

Zardusht deydi: “Ey oila qurayotgan yigit-qizlar, sizlarni ogohlantirib shuni aytamanki, har biringiz pokiza hayot yo'lida g'ayrat qilingiz. Har biringiz yaxshi xulq va yaxshi xatti-harakat, amal bilan o'z hayotingizning hurramp va saodatli o'tishiga erishing!” Shunisi xarakterliki, zardushtiyalar odaticha qiz bola balog'atga yetgach, uni turmushga berish ota-ona izmida bo'lsa ham qizning roziligi, albatta, so'ralgan va u bilan hisoblashgan. Kadxudo (er), xatbonu (xotin) mashvaratisiz, roziligisiz qizni erga berishmagan. O'z vaqtida jufti halol tanlay olmay yoki boshqa jismoniy sabablarga ko'ra turmush qurmay, yoshlari o'tib qolgan ayollar dodgurtir (qozi) fatvosi bilan Otashkada va uning qaramog'idagi kitobxonada, darmogoh (poliklinika), sihatgoh (kasalxonada) hamda hujralarda xizmat qilishgan. Buning uchun natural tarzda maosh olgan.

Zardushtiylikda ko'p xotinlik qat'iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga yetgan qiz bola ota-ona, jamoaning ra'yini pisand qilmay, o'zidan zurriyot qoldirishi qobiliyati bo'la turib ataylab uylanmay yursa, uni badnom qilish maqsadida har doim temir kamar bog'lab yurishga majbur etilgan.

Bundan tashqari “Avesto”da oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish xususida ham diqqatga molik mulohazalar mavjud: “Ey mardum, o'zgalarning yaxshi maslahatlariga quloq tuting va ularga ravshan andisha bilan qarang. Yaxshi bilan yomonni farqlashga diqqat qiling. Har bir erkak va ayol fursatni boy bermay o'zi to'g'ri yo'lni tanlasin, tokim hayoti pok va hunarmand yor bilan o'tadigan bo'lsin”. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, “Avesto”da nikoh va taloqning o'ziga xos mezonlari birma-bir qayd qilingan. Jumladan, turmushga chiqish va uy bekasi bo'lishning besh turi ko'rsatilgan:

Podshoh xotin. Buning ma'nosi shundaki, yigit va qiz ota-onalarining roziligi bilan turmush quradilar. Bunda onalarning mavqeyi baland bo'ladi.

Ayukxotin. Ya'ni “yakkabonu”. Agar yigit biron oilada yagona farzand-qiziga uylansa, ota-onani yakkalab, merosxo'rsiz qoldirmaslikka va'da beradi. Yangi oilada tug'ilgan birinchi o'g'il bobosi-yu buvisining nomiga o'tkaziladi va bola ularning merosxo'ri bo'ladi.

Chokar xotin. Avvalgi jufti halolidan ajralgan erkak yoki ayol o'ziga yangi turmush o'rtoq tanlaydi. Zardushtiylik e'tiqodicha, er yoki xotin vafotidan so'ng oldingi jufti haloliga nikoh sohibi hisoblanadi. Binobarin ikkinchi er yoki xotin oldingisining “chokari” bo'lib qolaveradi. Shuningdek, er farzand ko'rish ilinjida birinchi xotin roziligi bilan ikkinchi marotaba

uyansa, ikkinchi ayol birinchisiga nisbatan "chokar xotin" hisoblanadi.

O'z boshimcha xotin. Zardushtiylik qoidasiga ko'ra, o'g'il-qizlar 21 yashar bo'lganga qadar erkin jufti halol tanlash huquqiga ega emas. Agar yigit qiz bilan ahd-u paymon qilib, ota-onalar roziligisiz nikohdan o'tmoqchi bo'lsa, jamoat vakillari bunday to'yni o'tkazishgan. Ammo nikoh o'qiyotganda tomonlar o'zboshimchalik bilan oila qurayotganlari uchun ularga tegajak merosdan mahrum etilgan. Bu kelin "hudsar – o'zboshimcha xotin" nomini olgan.

Sittar xotin. Agar er-xotin uzoq muddat yashasalar-u zurriyot qurmasalar yoki ko'chaga birov tashlab ketgan chaqaloqni olib "farzandxon" qilib olishsa, oila ayoli "sittar xotin" bo'ladi.

"Avesto"ning aynan shu masalaga oid boblarida nikohni bekor qilish va taloq masalasi ham izohlangan. Bu yerda ham er-xotinning teng huquqliligiga alohida e'tibor berilgan. Nikoh bekor qilinishining quyidagi holatlari sanab o'tilgan:

Nikohdan so'ng tomonlarning birida asabiy noqislik, telbaliq alomati zohir bo'lsa, solim tomon bu nikohdan voz kechish huquqiga ega.

Er erkaklik qobiliyatiga ega bo'lmagan taqdirda ayol taloq qilish imkoniyatlaridan foydalana oladi.

Uch yil davomida er oilaning moddiy jihatini ta'minlay olmay kelsa, xatto ayolini boqa olmasa, xotin bunday erni tashlab keta oladi, ya'ni taloq qiladi.

Agar tomonlar bir-birlarining boshqa er va xotin bilan zino qilganlarini sezsa, bunday nikoh "xarom" bo'ladi hamda solim tomon nopok tomonni gunohkor sifatida taloq qiladi.

Agar xotinning hayoti er zulmidan xavf ostida qolsa, u jufining taloq qilish huquqidan foydalanadi.

Xotin o'z eridan qoniqmay nojo'ya, noshari'iy harakatlar

qilsa, erkak bunday ayoldan voz kecha oladi. Erkak uylanish paytida oldingi xotinini bekitsa-yu to'ydan keyin bu sir fosh bo'lsa ham bunday nikoh botil hisoblanadi.

Erkak yoki xotin zardushtiy dinidan yuz o'g'irsa, ya'ni boshqa dinni qabul etsa, taloq vojibdir.

Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko'ra jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilishga yo'l qo'yilmagan. Chaqimchilik, xusumat gunohi azim sifatida qoralangan. Gap tashuvchi ig'vog'arlar darra urish bilan jazolangan.

Quyidagi fikr ayol zotining jamiyatda, oilada, insoniyat tarixida tutgan o'rniga berilgan eng adolatli bahodoy tuyuladi: "Dastlabki kundayoq Axuramazda ayollarga buyurdi: "Ey ayol! Seni e'tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga keltirib mehr to'la og'ushingda parvarish et, deb yaratdim. Toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini yer yuzidan yo'qotsinlar".

Shunisi xarakterliki, "Avesto"da ayollar nomi ham ramziy mohiyatga ega ekanligi izohlangan. Masalan, yodgorlik matnida xotinlar "Rita Ciyabonu" yoki "Oshabonu" deb atalgan. Buning ma'nosi "poklik va rostlik nuri"dir. "Bonu" so'zi ham "charog'on", "yorug'lik" ma'nosini anglatadi. "Matri" ya'ni "Ona" so'zi "tarbiyalovchi" ma'nosida izohlangan. "Avesto"da singil so'zi "Sovasri" shaklida qo'llangan bo'lib, "Muqaddas va xayrixoh" ma'nosini anglatadi.

Xullas, butun Turon-u Eron xalqlarining mushtarak yodgorligi "Avesto"da ajdodlarimizning xotin-qizlarni muharram, oilani muqaddas bilish haqidagi peshqadam fikrlari o'z ifodasini topgan, mujassamlangan. Eng muhimi zardushtlik dinidagi bobolarimiz oilani jamiyatning muqaddas bo'lari deb bilib, uning rivoj-u ravnaqi, mustahkamligi uchun kurashgan.

Abduraxmon BODIROV,
Ulug'bek SANAQULOV,

SamDChTI akademik litseyi o'qituvchilari

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SAMARQANDDA NAZM VA NASR

Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham alohida va munosib o'rnini bor. Urush xalqimizdan moddiy va ma'naviy kuchlarini to'la ravishda ishga solishni talab qildi. Shu sababli bu davrda siyosiy targ'ibotning roli benihoya oshdi. Bu esa ta'sirchan badiiy so'zga bo'lgan ehtiyojni har qachongidan ham kuchaytirdi. Yozuvchi va san'atkorlarimiz ana shu talabni qondirish, mamlakatimiz xalqlarining nemis bosqinchilariga qarshi olib borilgan urushda munosib o'rinni egallash uchun ishchan ijodiy hayot bilan yashadilar. Muxtor Ashrafiy, To'xtasin Jalilovlarning musiqiy asarlari va boshqalar buning dastlabki namunalari bo'ldi.[1]

Bu asarlarda vatanparvarlik, xalqlar do'stligi g'oyalari ilgari surildi.

Bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotida, madaniyat va san'atning rivojlanishida Samarqand ijodiy muhiti muhim rol o'ynadi. Samarqand yozuvchilari ham urush yillarida hukumatimiz rahbarligi va yordami bilan yashab, ijod qildilar. Keksa yozuvchi Sadridin Ayniy 70

yoshga yaqinlashib qolganiga qaramay, urush davrida yoshlarga xos ijodiy g'ayrat bilan ishladi. U muhim ilmiy asarlar, ko'p publitsistik maqolalar, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlarining arab bosqinchilariga, Chingiz zulmiga qarshi olib borgan mardona kurashini aks ettirgan, kishilarni vatanparvarlik, qahramonlik ruhida tarbiyalashda juda katta rol o'ynagan "Muqanna", "Temur Malik" kabi tarixiy asarlarni yaratdi. Bulung'urlik Fozil Yo'ldosh, narpaylik Islom baxshi kabi xalq shoirlari yangi qo'shiqlar yaratib, armiyamiz shon-shavkati va g'alaba g'oyalarini kuyladi. Ularning do'mbiralari tumanlardagi qishloqlar bo'ylab, tinimsiz ravishda qahramonona zafarlarga chaqirib yangrab turdi.[2]

Ikkinchi Jahon urushi yillarida Narpay dostonchilik maktabining kekxa vakili baxshi Islom shoir o'zining "Jangnoma"(1941), "Qahramonnoma"(1942) asarlarini yaratdi.[3]

O'zbekiston xalq shoiri baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li "Jangchi o'g'limga", "Ota nasihati", "Qurollanish", "Er yigitlar, maydonga" kabi termalarini yaratdi.[4]

Bu davrda Samarqand adabiy muhitiga kirib kelgan Said Nazar, Ra'no Uzoqova, Sharof Rashidov, Hakim Zohidiy, Vohid Abdulla, Karim Karimiy kabi yosh shoir va yozuvchilar she'rlari, hikoyalari, ocherk va ashulalari bilan nemis bosqinchilarini g'oyaviy frontda ham tor-mor qilinishida xizmat qildi.

Samarqand yozuvchilarining 1943-yilda she'r va hikoyalar to'plami chop etilgan bo'lsa, 1944-yilda 6 ta asarlar to'plami nashr qilishga qabul qilindi. Shundan ikkitasi bosmadan chiqadi.

Urush yillarida shoira Ra'no Uzoqovaning "Mardona yuring" (1943) she'rlar to'plami shoira Oydin muharrirligida O'zbekiston davlat nashriyotida chop etildi.

U o'zining "Mardona yuring" she'rida mehnatkash ayollarning yuksak vatanparvarlik intilishlarini zo'r samimiyat bilan ifodalaydi.

*Jangchilarga bo'laylik hamdam,
 Yarasiga qo'yaylik malham,
 Onalardek mehribon mahram,
 Hamshiralar tez safga kiring,
 Ko'krak kerib mardona yuring!*

Shuningdek, to'plamdagi "Farzand" she'rida esa urush sharoitida ota-onasidan ajralgan bolalarga nisbatan o'zbek xotin-qizlarining g'amxo'rliqi va mehribonligini yuqori haroratli misralarda aks ettiradi:

*Sen o'ksinma, ko'zimning nuri,
 Bag'rimda sen yetim emassan,
 Ma'yus bo'lib har yon termulib,
 – Qani mening onam? – demassan. [5]*

Ikkinchi Jahon urushi yillarida Samarqand adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Said Nazar ijodi muhim ahamiyat kasb etadi.

Said Nazar urush yillari Lenin yo'li (hozirgi "Zarafshon") gazetasida adabiyot bo'limi boshlig'i (1940–1944-yillar), Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat universiteti aspiranti (1944–1947-yillar), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo'limi raisi (1942–1952-yillar) sifatida faoliyat ko'rsatishi bilan bir qatorda, o'sha paytda "Qahramonning qaytishi" (1943) pyesasi, "Muhabbat va nafrat" (1941), "Visol va hijron" (1943) poemalari, "Lavhalar" (1943) publitsistik asari va ko'plab she'r hamda maqolalarini yozdi.[6]

Uning ijodi haqida adabiyotshunos olim, professor S. Mirzayev "u poeziya, proza, dramaturgiya, publitsistika va jurnalistika bilan shug'ullanib, qariyb 30 yil davom etgan ijodiy faoliyati mobaynida ijodiy yuksaklikka, xalqqa manzur bo'ladigan asarlar yaratishga urindi", deb munosib baho bergan edi.[7]

Urush yillarida Said Nazar qalamini dushmanga qarshi nayza qilib, g'azab bilan maydonga chiqdi. Shoiring to'plamiga kirgan she'rlari badiiy jihatdan puxta, teran ma'noga ega:

*Toshdiring ko'klamdagi seldek g'azab daryosini,
 Bildiring dushman uchun bunda ajal sirtmog'i bor,
 Mayli daryo mavj urib oqsin qizil yov qonidan,
 Chunki jangdan so'ng, Said, bir shonli ko'klam chog'i bor.*

To'plamda hikoyalar ham muhim o'rin tutadi. To'plamdagi "Oltin", "Kim uchun" hikoyalari chinakam boy mazmunni siqiq formada ifoda qilishda muallifning erishgan dastlabki yutug'idir.

Urush yillarida shoir Sharof Rashidovning O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan nashr qilingan "Qahrim" she'rlar to'plamiga tankchilarning urush frontlarida ko'rsatgan mardlik va mahorati, muallifning shaxsan o'zi shohid bo'lgan jang hodisalari haqidagi she'rlari kiritilgan. To'plamga kirgan "Ofarin", "Jang qil", "Shirin kelarmish", "Yor kelur", "Ishq qo'ydim", "Mehnatim" kabi she'rlarida chuqur ko'tarinkilik ruhi balqib turadi:

*Olamga erk mayog'i,
 Qalbda sevinch bulog'i,
 Iqbolimning chirog'i –
 O'lkam, omon bo'!! [8]*

Bu davrda O'zbekiston Davlat nashriyoti jangchilar uchun "Baxt keldi" nomli hikoyalar to'plamini nashr qildi. To'plam Said Nazarning Samarqand viloyat mehnatkashlarining baland himmati tasvir etilgan "Baxt keldi" hikoyasi bilan boshlanadi. Kitobda shoira Ra'no Uzoqovaning ko'chirib keltirilgan bolalarni tarbiyalashda ajoyib vatanparvarlik va onalik mehr-muhabbatini ko'rsatgan o'zbek ayoli obrazini gavdalantirgan "Uchrashuv" hikoyasi, shoir Hakim Zohidiyning faol jamoatchi va xalqparvar vrach tasvir etilgan "Yordam", yozuvchi Abdulla Qahhor, Oydin va boshqalarning hikoyalari jamlangan.

Urush davrining katta qurilishlaridan biri bo'lgan Farhod GES qurilishidagi samarqandliklarning mehnat jasoratidan ilhomlangan shoir Said Nazar "Qurilish" dostonini yozadi. Shoir Chustiy urush davrining og'ir sharoitida qurilishlarda ishlayotgan o'zbek qizlarini o'z she'rlarida madh etadi. Hamid G'ulom esa o'zining "Samarqand shahrining askarlariga shon-sharaflar" she'rlarida urush frontlarida jang qilayotgan samarqandliklarning shijoat va qahramonliklarini hikoya qilib beradi.[9]

"Adolat" asari bilan dramaturg sifatida tanilgan Ismoil Akram urush yillarida "Taqdir", "Iskandar", "Farzand" nomli dramalarini yozdi. Bu asarlar Samarqand viloyat musiqali drama teatrida sahnaga qo'yildi. Xususan, muallif o'zining "Farzand" pyesasida o'zbek xalqining urush davrida ota-onasiz qolgan va ko'chirib keltirilgan bolalarga nisbatan qilgan g'amxo'rliklari va mehribonligini xalqchilik bilan tasvirlagan. Asarda ukrain partizani Vasiliy Makarovichning o'g'li Pavlikni farzand qilib, o'z oilasiga olgan va unga chuqur muhabbat hamda mehr bilan qaragan o'zbek kolxozchilari Sodiq aka va Anzirat opa obrazlari tasvirlanadi.[10]

Samarqand yozuvchilari viloyat bo'limi ijodiy ishlar bilan bir qatorda, badiiy adabiyotni targ'ibot qilishishiga ham katta e'tibor berdi. Fabrika, artel, jamoa xo'jaliklari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari hamda gospitallarda jami 900 dan ko'proq joylarda uchrashuvlar, badiiy kechalar va seminarlar o'tkazildi.

1945-yil bahorgi ekin ekish davrida Samarqand ijodkorlaridan Fozil Yo'ldosh, Islom Shoir hamda Said Nazar, Hakim Zohidiy, Ra'no Uzoqova, Vohid Abdullo, Malaxov, Karim Karimiy va boshqa shoirlardan iborat

to'rt ijodiy guruh tuzilib, mehnatkashlar o'rtasida adabiy kechalar o'tkazadi. Shuningdek, yozuvchi Sadridin Ayniy ham mehnatkashlar o'rtasida chiqishlar qilgan. Shu yilning fevral, mart, aprel oylarida yozuvchi va shoirlar 6 marta radio orqali o'z asarlarini o'qib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi Jahon urushi yillarida samarqandlik ijodkorlar sobiq Ittifoqning turli

shaharlaridan ko'chirib keltirilgan rus, ukrain, moldavan, yahudiy va boshqa millat yozuvchilari bilan birgalikda ijod qilib, mislsiz qahramonlik ko'rsatib, front va mamlakat ichkarisining mustahkam birligini ta'minladi. Bu esa xalqimizning sobiq Ittifoq xalqlari qatorida fashizm ustidan to'la va uzil-kesil g'alaba qozonishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Nazar. Adabiyot va san'atimiz // "Lenin yo'li" gazetasi, 1944-yil 22-oktabr. 246-son (3835).
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 2002. 243-bet.
3. O'sha manba, 9-jild. 273-bet.
4. Mardona yuring // "Lenin yo'li" gazetasi. 1945-yil 6-iyul. 104 (3945)-son.
5. S.A. Allazov. Adabiyotimiz o'tmishidan bir zarvaraq. – Samarqand, 2009. 6–25-betlar.
6. Hakim Zohidiy. "Lavhalar" // "Lenin yo'li" gazetasi. 1943-yil 5-sentabr. 184 (3512)-son.
7. Samarqand yozuvchilarining yangi asarlari // "Lenin yo'li" gazetasi. 1945-yil 27-may. 97 (3938)-son.
8. Samarqand tarixi. Ikki jildlik. 2-jild. Mas'ul muharrir I.M. Mo'minov. – Toshkent: Fan, 1970. 228-bet.
9. Farzand // "Lenin yo'li". 1943-yil 28-yanvar. 22 (3550)-son.
10. Teatr // "Lenin yo'li". 1942-yil 3-iyun. 128 (3350)-son.

Ayjan NARMATOVA,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

CHET TILLARNI O'RGATISHDA TINGLAB TUSHUNISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Chet tillarni o'rgatish va o'rganish ko'p jihatdan ona tilidan farq qiladi. Bu o'zga tilni o'rgatishning noan'anaviy texnologiyalarini ishlab chiqish ehtiyojini tug'diradi.

Tafakkur so'z, so'z birikmalari va jumalarni nutq faoliyatida qo'llash orqali sodir etiladigan murakkab psixik jarayon bo'lib, inson faoliyatining ko'pgina sohalarida tadqiq etiladi. Ilmiy adabiyotlarda nutq faoliyatining to'rt asosiy turi – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv farqlanadi. Bu nutq faoliyati turlari, shuningdek, leksik, grammatik, fonetik sathlar orqali chet til mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar o'zaro ma'lumot almashish ko'nikmalarini shakllantirib boradilar.

Ma'lumki, gapirishdan ko'ra tinglab tushunishga o'rgatish jarayoni qiyinroq kechadi. Gapirishni individual ravishda shakllantirish mumkin, ammo tinglab tushunish esa xilma-xillik asosida kechadi. Muloqot jarayonida tinglovchi qabul qilinayotgan ma'lumotni tushunishga harakat qiladi va ma'lum darajada bunga erishadi, eshituvchi esa, o'z o'rnida tinglaydi, bunda tinglab tushunish to'liq bo'lmasligi ham mumkin. E.G.Azimov va A.N.Shukinlarning e'tirof etishlaricha, "tinglab tushunish – bu og'zaki muloqot mazmunini idrok etish, bir vaqtning o'zida lisoniy shakl va og'zaki bayon etilgan fikr mazmunini tushunishdan iborat bo'lib, chet tilni o'rgatishda asosiy maqsad – shakl va mazmun yaxliligini saqlagan holda tinglash qobiliyatini rivojlantirishdir" [1:24].

Kundalik hayotda biz radio, televideniya va Internet orqali xorijiy tillarda turli mazmundagi ma'lumotlarni

tinglab tushunishga harakat qilamiz. Talabalarni o'rganilayotgan tilda tinglab tushunishga o'rgatish hozirgi kunda madaniyatlararo muloqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Agar ushbu nutq faoliyati turining xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, rus olimi N.D.Galskova tinglab tushunishni "og'zaki nutqdagi ma'lumotlarni idrok etish, tushunish va qayta ishlash bilan bog'liq murakkab retseptiv aqliy-mnemonik faoliyat" [2, 192] deb ta'riflaydi. Shuningdek, psixolingvistika – nutqni idrok etish nuqtayi nazaridan, I.A.Zimnyaya tinglab tushunishning quyidagi xususiyatlariga to'xtalib o'tgan: "tinglab tushunish og'zaki va to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlaydi, muloqot jarayonida reaktiv va retseptiv nutq faoliyati turi hisoblanadi va uning namoyon bo'lish shakli bir xil kechmaydi" [3:94], ya'ni tinglab tushunish deganda o'zgalar nutqini farqlash va tushunish qobiliyati, so'zlovchining talaffuzi, nutqining grammatik tuzilishi, so'z boyligi nazarda tutiladi, desak xato bo'lmaydi. Albatta, chet til mashg'ulotlarida tinglab tushunishga o'rgatish bosqichlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) tinglashda kutiladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish; 2) audiomatni dastlabki tinglab tushunishga oid ko'rsatma (topshiriq) berish; 3) tushunganlik darajasini turli topshiriqlar yordamida tekshirib ko'rish; 4) ikkinchi marotaba tinglab tushunishga oid topshiriq berish; 5) tekshirib ko'rish va b. Aslida, chet til mashg'ulotlarida o'zga tilni minimal darajada tinglab tushunishga o'rgatish shu nutq faoliyati turiga oid bo'lgan qator operatsiyalarning

shakllanganligidan dalolat beradi: birinchidan, tovush oqimini aniqlash, ikkinchidan, tinglanayotgan birliklarning ma'nosini idrok qilish va uchinchidan, tinglanayotgan matndagi ma'lumotlarni aniqlash.

Tinglab tushunish tashqi ko'rinishlarsiz kechishiga qaramay, faol jarayon bo'lib, tinglovchidan katta intellektual bilimni talab qiladi, ya'ni ma'lumotni tushunish darajasi ta'lim oluvchilarda turlicha bo'ladi, kimdir ma'lumotlarni yaxshi tushunsa, boshqalar esa kamroq idrok qiladi. Rus olimasi G.V.Rogova fikriga ko'ra: "Tinglab tushunish jarayonida tinglovchi tahlil, sintez, deduksiya, induksiya, taqqoslash, qarama-qarshilik, mavhumlashtirish, konkretlashtirish va boshqa murakkab perseptiv-mnemonik faoliyatni amalga oshiradi. Tinglab tushunishning muvaffaqiyati bo'lishi obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi. Obyektiv omillar taqdim etilgan matnning xususiyatlari va uni idrok etish xususiyatlari sharoitlarida shakllanadi. Subyektiv omillar esa tinglovchi ruhiy holatining xususiyatlari va uning tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi" [4:139].

Agar tinglab tushunishning tasnifiga e'tibor beradigan bo'lsak, ilmiy adabiyotlarda ushbu nutq faoliyatining quyidagi turlarini kuzatish mumkin: 1. Chet tildagi materiallarning mazmunini *butunlay* tushunish, *to'liq batafsil* tushunish va *muayyan ma'lumotlar olish uchun* tinglash. Bunday vaziyatda talabalar chet tilni bilishning ma'lum bir darajasi, masalan, B1 darajasi uchun audiomatni tinglashadi. Talabalar ommabop tanish mavzularidagi aniq normativ nutqning asosiy ma'nolarini, kasb-hunarga oid mavzulardagi nutqning asosiy ma'nolarini, shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar sekin, biroq ravon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va g'oyasini tushuna oladi, yo'riqnoma yoki ko'rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi, tanish mavzudagi muhokamaga kirisha oladi; 2. Chet tilda bayon qilinayotgan nutqni tinglab tushunish audiomatni yoki so'zlovchi nutqning umumiy mazmunini fahmlashdan iborat. Audiomatni tinglab tushunish ta'lim oluvchilarga zavq bag'ishlaydi, chunki u amaliy mashg'ulotlar jarayonida tarjima va grammatik mashqlardan chalg'itishning ajoyib usuli; 3. Kerakli ma'lumotlarni olish maqsadida tinglab tushunish, qiziq ma'lumotni izlash uchun ma'lum mavzular bo'yicha audio yozuvlarni tinglash talabalar kreativ qobiliyatlarining shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Tinglab tushunishning yetakchi psixologlar tomonidan taklif qilingan tasnifi ham mavjud bo'lib, unda bu nutq faoliyatining maqsadi va audiomatni semantik idrok etish bilan bog'liq munosabatlarni farqlash nazarda tutiladi va tinglab tushunishning asosiy turlari – umumiy, to'liq va tanqidiy tushunish "matnni idrok etishning o'zaro bog'liqligi"ga muvofiq ko'rib chiqiladi. *Umumiy tushunish* –

bu ma'lum bir bosqichda savollarga tanlab javob qaytarish, ya'ni javoblarning to'g'risini topish orqali tushunganlik tekshiriladi; *to'liq tushinish* – bu bosqichda tinglanganni qisqartirish yoki to'ldirish yo'li bilan tekshiriladi va savollarga javob qaytarish, chet til va ona tilida mazmunni aytib berish, gapirish uchun kengaytirilgan reja tuzish usullaridan foydalaniladi; *tanqidiy tushunish* – tinglangan audiomatni mazmuniga baho berish, asosiy axborotni topish, sharhlash va muhokama qilish kabi muammoli topshiriqlarni ijobiy hal etishni o'z ichiga oladi [6:230].

G.V.Rogovaning e'tirof etishicha, "chet tilda tinglab tushunishning har qanday, hatto eng minimal darajasi, nutq faoliyatining ushbu turi uchun zarur bo'lgan bir qator operatsiyalarni shakllantirishni anglatadi: tinglab tushunishga o'rgatish leksik, grammatik va fonetik sathdagi materiallar bilan ishlashda eshitish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi" [5:129].

Shuningdek, chet til mashg'ulotlarida audiomatni imkon qadar tezroq tushunishga o'rgatish lozim. Bizning fikrimizcha, qo'yilgan maqsadga erishishda bir necha usulni taklif qilish maqsadga muvofiq: 1) turli mazmundagi audiomatni muntazam tinglash kerak; 2) tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishning asosiy manbayi bo'lgan audiokitoblar bilan shug'ullanishni ommalashtirish kerak; 3) o'rganilayotgan til bo'yicha lug'at boyligini ko'paytirish orqali og'zaki nutqni idrok qilish osonroq kechadi; 4) tinglab tushunishda grammatik to'siqlarni bartaraf etuvchi ko'nikmalarni rivojlantirish kerak. Bunday holatda, chet tilni o'rganishda yozma ko'nikmalardan ko'ra ko'proq og'zaki ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maqsad grammatik hodisalarni o'rgatishga kamroq vaqt ajratish, ko'proq tinglab tushunish va gapirishga o'rgatish kerak; 5) muntazam ravishda talaffuz ustida ishlash kerak, chunki so'zlarning to'g'ri talaffuzi o'zgalar nutqini ko'proq tushunishga olib keladi; 6) chet tilda do'stlar va, ayniqsa, chet elliklar bilan ko'proq muloqot qilish maqsadga muvofiq; 7) ta'lim oluvchilarni chet tilda fikrlashga o'rgatish kerak, ya'ni audiomatni yoki xabarni idrok etish jarayonida uni ona tiliga aqliy ravishda tarjima qilish shart emas. Mediatsiya haqida o'ylamaslik kerak. Talabalar uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotni tanlash orqali ularni kreativ fikrlashga o'rgatish ahamiyatlidir; 8) musiqiy tinglashni rivojlantirish kerak, bunda nafaqat tinglab tushunish, balki ijrochi bilan birga qo'shiq aytish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, tinglab tushunish nutq faoliyatining asosiy turlaridan biri bo'lib, undan amaliy mashg'ulotlar jarayonida maqsad sifatida ham, vositasi sifatida ham foydalanish mumkin. Bu nutq faoliyati turiga o'rgatish va uni o'rganish chet til o'qitish metodikasida muhim o'rin tutuvchi masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений / Н.Д.Гальскова, Н.И.Гез. – 3-е изд., стер. – Москва: Академия, 2006. – 336 с.
3. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным в школе. – Москва: Просвещение, 1991. – 222 с.
4. Рогова Г.В. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – Москва: Просвещение, 1991 – 240 с.
5. Рогова В.Г., И.Н. Верещагина. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. Пособие для учителя. – Москва: Просвещение, 1988. – 224 с.
6. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 430 b.

Gavhar RAHMONOVA,
English teacher at school № 4 of Kitab district,
Kashkadarya region

TEACHING PHONETICS IN SECONDARY SCHOOLS

Phonetics is the study of human speech. Phonetics includes the study of how sounds are physically produced and how sounds are perceived by a listener.

Most teachers are not sure where to start when teaching phonetics and pronunciation. The first thing to remember is that most students love learning phonetics.

Teachers need to know the phonetic symbols. Phonetic symbols represent what we say and not what we write.

For example:

Written spelling:

eight
ate

Phonetic spelling:

ei:t
ei:t

You can see from the two examples that the written spelling is vastly different but the phonetic spelling is the same because we pronounce both words the same. Most dictionaries have the phonetics spelling of each word. Try writing out words to start off with and looking them up in the dictionary. It is impossible to teach phonetics without a strong command of the phonetic chart. There are 10 useful methods of teaching phonetics:

1. Listen and repeat. This will be the first and most common method of teaching sound specific pronunciation in English. You say the target sound and have your students repeat it after you. If you are teaching a long word with multiple syllables, start with final syllable of the word and have your class repeat it. Then add the penultimate syllable and say the two together having your class repeat it.

2. Isolation. When working on a specific sound, it may help your students to isolate that particular sound from any others. Instead of presenting a certain sound as part of a complete word in English, you can simply pronounce the sound itself repeatedly. When you do, your students can say it along with you repeatedly, focusing on the small nuances in the correct pronunciation and also engraining the sound pattern into their minds.

3. Minimal pairs. Minimal pairs are great way to focus pronunciation on just one sound. If you are not familiar with linguistics, a minimal pair is two words that vary in only one sound. For example, *rat* and *rate* are minimal pairs because only the vowel sound differs between the two words. You can use this method to help your students with their pronunciation by focusing on one particular sound.

4. Record and replay. At times your students may think they are using correct pronunciation when in fact they are saying something quite different. By using a device to record what your students are actually saying, you have empirical data to play back for each person. You may also want him to compare a recording of a native speaker against his recording of himself.

5. Use a mirror. You can always encourage your students to look at your mouth and face as you pronounce certain sounds, but they will also benefit from seeing what movements they are making as they speak.

6. Phonetic symbols. Instead of spelling new vocabulary out on the whiteboard, try using phonetic symbols to represent the sounds (rather than the alphabet). If you were to use phonetic symbols, the word *seat* would be written [si:t] and *eat* would be written [i:t].

7. Show a vowel diagram. If you are using phonetic symbols to help you teach vowel pronunciation, a diagram of where each English vowel sound is produced can be eye opening for your students. Print copies to distribute in class or show your students where they can find this diagram online. When students know which area of the mouth in which they should be making their sounds, they may have an easier time distinguishing between similar sounds.

8. Sing. Singing could be a good way for your students to practise their vowel pronunciation. It can give your students a chance to focus on the target sound and adjust what sound she is making.

9. Tongue twisters. They are still a valuable resource for vowel practice. Not only are they a challenge to your students' pronunciation abilities, they add an element of fun to the classroom.

10. Target language specific sounds. Some pronunciation patterns are found consistently in students with the same native language. Making students aware of pronunciation patterns of speakers of their native language can be the biggest help in eliminating the mispronunciations. Students should know that learning English takes time and acquiring pronunciation is a process.



Ulug'murod AMONOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

G'OZI OLIM YUNUSOV – MA'RIFATPARVAR FOLKLORSHUNOS

XX asr boshlarida yashagan Abdurauf Fitrat, Olim Sharaiddin, G'ozim Olim Yunusov, Elbek kabi folklorshunos olimlar o'zbek folklori tabiati, janriy tizimi va tarkibi, badiiyatiga oid ilmiy qarashlarini bildirib, xalq og'zaki ijodi namunalari to'plab nashr etish va omma orasida targ'ib etishda samarali xizmat qilganlar. Biroq ular faoliyati bilan bog'liq bu qirralarni faqatgina istiqloq yillarida o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ularning xizmatlarini xolislik bilan o'rganib, nazariy va amaliy ahamiyatini yoritish zarur masalalardan sanaladi. Chunki ular folklor nazariyasi, folklor tarixi va tekstologiyasi, folklor asarlari poetikasi, folklor ijodkorligi va ijrochiligi, uning lokal xususiyatlari, folklor va yozma adabiyot, folklor va professional san'at, folklorshunoslik metodologiyasi masalalari bo'yicha faoliyat yuritib, fanning nazariy yo'nalishlari shakllanishiga munosib hissa qo'sha olganlar.¹ Ana shu masalalarning maxsus o'rganilishi o'zbek folklorshunosligining fan sifatida shakllanish va taraqqiy etish tarixini yoritishda, uning taraqqiyot bosqichlari, nazariy yo'nalishlarini belgilab ko'rsatishda, qolaversa, folklorizm mohiyatini ilmiy jihatdan yanada chuqurroq yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda folklorshunoslik fanining shakllanishida birinchi o'zbek professori, tilshunos olim G'ozim Olim Yunusovning alohida o'rni bor.

G'ozim Olim Yunusov o'tgan asrning 20–30-yillari matbuotida G'ozim Yunusov taxallusi bilan matbuot, tilshunoslik, adabiyot, folklorshunoslikka oid dolzarb mavzulardagi maqolalari bilan ko'zga tushgan. G'ozim Olim Yunusov 1893-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1937-yil 3-iyulda "xalq dushmani" sifatida soxta ayblar bilan qoralanib, hibsga olingan va 1938-yil 4-oktabrda Otajon Hoshim, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Elbek va boshqa ko'pchilik milliy ma'naviyatimiz darg'alari qatorida otib tashlangan. Uning nomi mustaqillik shabadalari esa boshlagan 1989-yildagina oqlangan.

Ko'proq tilshunos va folklorshunos olim sifatida nom qozongan G'ozim Olim Yunusov 1912–1914-yillarda Turkiya universitetida, Anqaradagi "al-Azhar" madrasasida tahsil olgan. 1918-yil iyulda Turkiston yoshlarini milliy va ilmiy ruhda tarbiyalash maqsadida "Turk o'chog'i" tashkilotini tuzgan.

Taniqli o'zbek folklorshunosi To'ra Mirzayev "Hodi Zarif bilan suhbatlar" kitobida u haqda shunday deydi: "Shuni alohida ta'kidlash kerakki, G'ozim Olim Yunusov bor-yo'g'i 17–18 yil ilmiy ijod bilan shug'ullandi. Shu qisqagina davrda, u boy meros qoldirdi. Ammo uning asarlari turli manbalarda sochilib yotibdi. Ko'plari qo'lyozma holda bo'lgani sababli, ularning saqlanib qolgan yoki yo'qolgan ham ma'lum emas. Olim asarlarini bir joyga to'plash, yo'qolgan deb hisoblanganlarini qidirib topishga urinish, ma'qullarini qayta nashr etish fan tarixchilarining sharaflari vazifalaridan bo'lmog'i zarur. Zero, bu bizning G'ozim Olim Yunusov xotirasi oldidagi burchimizdir".² Shu da'vatdan ruhanib, G'ozim Olim Yunusovning folklorshunoslik faoliyatiga alohida nazar solishni maqsad qildik. Bu borada uning quyidagi fazilatlarini namoyon bo'ldi:

G'ozim Olim Yunusov – xalq asarlarining ilk fidoyi to'plovchilaridan biri. U o'zbek folklori namunalari birin-

chilardan bo'lib yozib olishga kirishgan. Olimning bu borada boshqalardan ajralib turadigan jihati shundaki, u folklor namunalari jonli ijroda, ijodkor-ijrochilarning bevosita o'z og'zidan, ya'ni baxshilar, ertakchilar, qo'shiqchilarning aynan o'zidan hech o'zgartirmay, aytuvchi shevasida, qanday bo'lsa, shundayligicha, "qo'l urishlar" siz yozib olishni boshlab berdi va boshqalarni ham shunga da'vat etdi. Ungacha e'lon qilingan folklor asarlari esa, asosan, savodli kishilardan yozib olingan va ularda muayyan "qo'l urishlar" qilingan. G'ozim Olim Yunusov o'zi bu haqda shunday deydi: "Men bu dostonni ("Alpomish"ni demoqchi – U.A.) o'zbek oqinlari og'zidan yozg'onda eshitilganicha yozishg'a va voqealarinda-da hech bir lavhani, hatto ayrim ta'birlarni qoldirmasg'a tirishdim. Bundan maqsadim shul mahallalardagi (Samarqand va Toshkent uyezdlaridagi) o'zbeklarning lahjalarini qayd qilmoq va voqealarni to'ralig'icha saqlamoq edi".³

G'ozim Olim Yunusov – folklor ekspeditsiyalarining tashkilotchisi va rahbari. G'ozim Olim Yunusov nafaqat xalq asarlarining shaxsan to'plovchisi, balki bunday to'plovchilikning boshida turgan, bu xayrli ishga kirishgan insonlarning boshini qovushtirib, ularga rahbarlik qilgan, ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri yo'l ko'rsatib turgan tashkilotchi ham edi. Jumladan, olim 1929-yili Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga, 1930-yili Xorazmga, 1932-yili Chirchiq va Ohangaron vohalariga uyushtirilgan folklor, etnografiya va dialektologiya ekspeditsiyalariga bevosita boshchilik qilgan. Ayniqsa, 1934–1937-yillarda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishlagan kezlari Samarqand, Toshkent, Sirdaryo (Mirzacho'l) viloyatlarida bo'lib, xalq qo'shiqlari, jumboqlari, maqollarini, "Alpomish" dostonining 2-qismini (50 sahifa), "Hiylakor kal", "Topqir kal", "Shum kal", "Tulki va bedana", "Tulki va tojik", "Kimlar o'g'ri", "O'rinsiz tilak", "Al-dangan qozi", "Yengilgan podshoh" kabi hikoyatlarni to'plagan.

G'ozim Olim Yunusov Turkiston maorif xalq komissarligi huzuridagi ilmiy kengash (1918–1920) va teatr-etnografik bilim hay'ati a'zosi (1920–1924) hamda o'zbek bilim hay'ati raisi (1920–1924) sifatida folklor va etnografiya materiallarini to'plash, o'quv qo'llanmalarini tuzishda qatnashib, bu ishlariga bevosita rahbarlik qilgan. O'zbekiston maorif xalq komissarligi fan bo'limining ilmiy kotibi va O'zbeklarni o'rganish qo'mitasining raisi bo'lib ishlagan davrida ham (1925–1929) bu borada juda katta tashkilotchilik ishlarini olib borgan.

G'ozim Olim Yunusov – xalq asarlarini ilmiy to'plashning ilk uslubshunosi. G'ozim Olim Yunusov tomonidan yozilgan va 1926-yili "Maorif va o'qituvchi" jurnalida imzosiz bosilgan "O'zbek el adabiyotiga tegishli ma'lumotlarni to'plovchilarga qo'llanma"si uning bu faoliyatini to'la namoyon eta oladi.⁵

G'ozim Olim Yunusov – xalq asarlarining ilk ilmiy tadqiqotchilaridan biri. Olimning folklorga oid dastlabki ilmiy tadqiqoti "O'zbeklarda el tanish ishi" maqolasi bo'lib, u o'sha davrning nufuzli ro'znomalaridan biri bo'lgan "Turkiston" gazetasi 1922-yil 18-dekabr sonida bosilgan.

G'ozil Olim Yunusov o'zbek xalq eposi – "Alpomish" dostonining ilk tadqiqotchilaridan biri. Olim doston haqida: "O'zbekning birinchi eposi "Alpomish"dir. U Gomerning "Iliada" sigateng bir asardir" deb, unga juda yuqori va haqqoniy ilmiy baho bergan edi. Uning bu doston to'g'risidagi ushbu maqolasi hozirgacha eposshunoslikda o'z o'rni va qimmatiga ega.⁶

Shuningdek, G'ozil Olim Yunusovning alla janri to'g'risidagi maqolasi ham folklorshunosligimizdagi qimmatli tadqiqotlardan biri sanaladi. 1926-yili "Maorif va o'qituvchi" jurnalida e'lon qilingan va "Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z" deb nomlangan ushbu maqolasida olim Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan, alla matnini ham e'lon qilgan. Shuningdek, ushbu maqolasida erkak kishi (ota) tomonidan bolasiga aytiladigan "huyya" deb ataluvchi alla haqida ham ma'lumot berib o'tgan.

"Наука и просвещение" jurnalining 1922-yil 2-sonida G'ozil Olim Yunusov to'plagan folklor materiallarining ro'yxati e'lon qilingan.

G'ozil Olim Yunusov – folklor asarlarining dastlabki noshirlaridan biri. Jumladan, 1922-yili u sirdaryolik Hamroqul baxshi va bulung'urlik Fozil shoirdan "Alpomish" dostonidan parchalar yozib olib, "Bilim o'chog'i" jurnalining 1923-yilgi 2-3-qa'shma sonida e'lon qilishga erishgan.⁷

G'ozil Olim Yunusov – yosh folklorshunoslarga rahnamo va ilmiy rahbar. Atoqli folklorshunos olim Hodi Zarifning shu fanga kirib kelishida va yuksak yutuqlarga erishishida G'ozil Olim Yunusovning xizmati katta bo'lgan. Aniqrog'i, Hodi Zarifning onasi Zaynab Muhammadolim qizining ukasi sifatida unga tog'a hisoblangan G'ozil Olim Yunusov jiyani ilm yo'liga kirishga rag'batlantirgan. Shu sabab Hodi Zarif tog'asi G'ozil Olim Yunusovni hamisha o'zining "birinchi ustozini" hisoblagan. Bu haqda taniqli folklorshunos olim, Hodi Zarifning yaqin shogirdi To'ra Mirzayev o'zining "Hodi Zarif bilan suhbatlardan" kitobida shunday ma'lumotni keltirgan: "Tog'am G'ozil Olim Yunusov mening birinchi ustozim hisoblanadi, – deb eslab qoldi bir kuni domla. – Men V.V.Bartold, A.A.Divayev, E.E.Bertels kabi o'z davrining taniqli allomalari bilan birinchi marta uning xonadonida tanishganman. U faqat meni emas, amakim Ahmadxo'janing o'g'li Mahmudxo'jani ham ilm yo'liga solgan olimlardan. Bilasizlar, Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Alpomish", "Intizor", "Zulfizar" kabi keng qamrovli va badiiy yuksak dostonlari xuddi shu Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan. Keyinroq tog'am Buyuk Karimov, Mansur Afzalov kabi olimlarni menga birlashtirib qo'ygan bo'lsa ham, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Hatto Elbek, G'ulom Zafariy kabi ijodkorlarga ham xalq ijodi namunalari to'plashda yo'l-yo'riqlar ko'rsatganini bilaman"⁸.

Hodi Zarif 1919-yili otasi Tillaxo'ja Umarxo'ja o'g'li vafotidan keyin bir muddat, asosan, tog'asi G'ozil Olim Yunusovning uyida yashaganini, mustaqil o'qib-o'rganishi va fan olamiga kirishida uning alohida xizmatlari borligini ham o'zi qayd qilib o'tgan.

G'ozil Olim Yunusov ko'proq o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti uchun jon kuydirgan. U 1920–1922-yillarda Maorif komissarligi qoshidagi ilmiy kengash til va terminologiya sho'basida ishlagan, Samarqand pedakademiyasida o'zbek tili kafedrasida professori (1925–1930) bo'lgan. Tilga oid "O'zbek urug'laridan qatag'onlar va ularning tili" (1930), "Yuridik terminlar lug'ati" (1926), "O'zbek tili grammatikasi" (1936) ilmiy asarlarining muallifidir.

Olim o'zbek urug'lari, ularning tarixi, tarqalishi, tili, o'zbek lahjalari tasnifi to'g'risida fundamental tadqiqotlar olib borar ekan, xalq asarlarini jonli tilda, sheva elementlari bilan yozib olib, o'z qarashlarini asoslashga intilgan. Shu-shu uning folklorshunoslik faoliyati shevashunoslik faoliyati bilan parallel ravishda rivojlanib borgan. Lekin olim jiyani Hodi Zarifda folklorshunoslikka havas va e'tiborni tarbiyalay olganiga ishonch hosil qilganidan so'ng unga: "Mana, sen folklorshunos bo'lmoqchisan, yana bir qancha yoshlar yetishib chiqmoqda. Endi men bemaol tilshunoslik bilan shug'ullansam bo'ladi"⁹, – degan ekan.

G'ozil Olim Yunusov – folklor nazariyotchisi. T.Mirzayev o'z xotiralarida bu zukko olimdan folklorshunoslik haqida eshitgan o'g'itlarini alohida qayd etganki [3], so'zsiz, ular hozirgi yosh folklorshunoslar uchun ham shu fanning maqsad-mohiyatini, vazifalarini chuqurroq anglashda, nazariy ufqlarini egallashda dasturulamal bo'la oladi. Jumladan, G'ozil Olim Yunusov "Folklorshunoslik xalq og'zaki ijodi namunalari yozib olish va yozib olingan asarlar matni ustida ishlashdan boshlanadi. Ko'plar matn ustida ishlash yozma adabiyotga tegishli deb hisoblaydi. Bu unchalik to'g'ri emas. Faqat matnga yondashuv tamoyillari xilma-xildir. Bugungi kunda xalq ijodchilaridan nimaiki yozib olingan bo'lsa, ularni yoppasiga "durdon" deb e'lon qilish, kimlar og'zaki aytgani yoki kuylanganiga qarab chala, hatto soxta namunalarni ham g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak asarlar sifatida asossiz ravishda oshirib baholash mayllari mavjud. Folklor namunalari ham badiiy-estetik hodisa ekanini unutmazlik kerak"¹⁰, – degan edi. Ko'rinadiki, olimning bu fikrlari folklorshunoslik mohiyatini to'g'ri ilg'ashda nihoyatda qimmatlidir. U orqali, avvalo, har qanday og'zaki aytilgan va kuylangan matn folklor namunasi bo'lolmasligi anglashiladi. Negaki, sho'ro davrida mavjud an'anaviy matnlarni buzish, soxtalashtirish, ularga o'sha davr mafkurasi bilan bog'liq tushunchalarni zo'rma-zo'raki singdirishga urinish holatlari nihoyatda kuchaygan edi. Masalan, o'sha davrda yaratilgan bir qo'shiqda shunday kuylanadi:

*Fabrikaning yo'lidan –
Ro'molcha topib oldim.
Topib oldi demanglar,
Mehnatga sotib oldim.¹¹*

Noan'anaviy tarzda yaratilgan bu qo'shiq g'oyaviy jihatdan soxtaligi kunday ravshan. Garchi undagi ro'molcha so'zi "oila, ro'zgor" tushunchalarini an'anaviy ramziy ma'noda anglatib kelayotgan esa-da, uning "fabrika" yo'lidan topilishi noan'anaviydir. Chunki xalqimiz orasida "Yo'lda uchragan yo'lda qolar" hikmati bor. Qolaversa, o'z baxtini yo'lda topish, uni sotib olish o'zbekchilikka xos emas.

Bir so'z bilan aytganda, mustabid tuzum davrida G'ozil Olim Yunusov xalqimizning jonkuyar va fidoyi farzandlaridan biri sifatida milliy qadriyatlarimiz tizimining bir qismi bo'lgan folklor durdonalarining tanazzulga yuz tuta boshlaganini ko'ra oldi hamda zudlik bilan katta-yu kichik janrda keng tarqalgan og'zaki ijod namunalari yozib olishga, imkon qadar ularni nashr qilish va o'rganishga ziyoli qatlamni undadi.

G'ozil Olim Yunusov folklor asarlarining variantlarda tarqalishini inobatga olib, har bir variantga zukkolik bilan yondashuv zarurligini uqtiradi. U: "Folklorshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, arxivlarda to'planib qolgan barcha folklor yozuvlarimas, u yoki bu dostonning ikkinchi bir dos-tonchi bo'lmagan shaxs tomonidan aytib berilgan mazmu-

ni asosida yoki havaskor baxshilar ijrosida paydo bo'lgan namunalarmas, balki dostonchilik an'analari doirasida badiiy-estetik hodisa darajasiga ko'tarilgan ijodiy variantlar tadqiqotlar uchun tahlilga tortilishi va nashr uchun tanlanishi kerak, chunki tinglovchi yoki o'quvchi ana shunday ijodiy variantlarni mustaqil badiiy asarlar sifatida qabul qila oladi"¹², – deydi.

G'ozzi Olim Yunusov fikricha, folklorshunos u yoki bu dostonni yozib olayotganda, baxshini "yetaklashi", undan "zamonabop" nimanidir talab qilishi, "zamonaviylik" haqida unga qandaydir maslahatlar berishi kechirib bo'lmas gunohi azimdir.¹³

Ko'rinadiki, G'ozzi Olim Yunusov to'plovchilarga folklor materialini axborotchidan aynan, ya'ni qanday aytssa, shunday yozib olishni uqtiradi. Ayniqsa, baxshilardan dostonlarni o'z ustozlaridan qanday o'rgangan bo'lsa va el orasida qanday kuylab kelayotgan bo'lsa, shunday aytib berishini iltimos qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha: "Kuylanayotgan dostonga matniy jihatdan qandaydir o'zgartirishlar kiritishga faqat va faqat baxshi haqlidir. Chunki qachonlardir asos solingan dostonchilik an'analarning merosxo'ri, uni saqlab

qoluvchi va yangi sharoitlarda yanada rivojlantiruvchi bir-dan-bir shaxs baxshidir"¹⁴.

G'ozzi Olim Yunusov folklorshunoslikda doston variantlari ustida qanday ishlash, ularning badiylik darajasini aniqlash borasida nimalar qilish mumkinligi xususida ham qimmatli ko'rsatmalar berib o'tgan. Bunda olim aytuvchi baxshi bilan uning ustozlari haqida suhbat qurish muhim ahamiyat kasb etishini alohida uqtiradi. Negaki, ustoz ijodkorlarga nisbat berilgan dostonlar yoki ularning parchalari borasida suhbatlar qurib, bunday suhbatlarda aytilgan fikr-mulohazalarni yozib olish baxshining kim ta'sirida kuylayotganini aniqlashda, qolaversa, kuylanayotgan dostonga u tomonidan qanday notabiiy qo'shimchalar kiritilganini aniqlashda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, G'ozzi Olim Yunusov o'zbek milliy madaniyatini jahon miqyosiga ko'tarib chiqish yo'lida katta ilmiy-amaliy ishlar qilgan, o'zbek folklorshunosligining keyingi taraqqiyoti uchun ham eshik ochgan olimlardan biri hisoblanadi. Olimning o'zbek folklorshunosligidagi serqirra faoliyati yosh folklorshunoslar uchun hamisha ibrat maktabidir.

¹M.Jo'rayev. Folklorshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009. 192-bet.

²T.Mirzayev. G'ozzi Olim Yunusov // Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS-ASA, 2013. 380-bet.

³G'.Yunusov. Alpomish. Bilim o'chog'i. – Toshkent, 1923. 2–3-son. 38-bet.

⁴G'.Yunusov. O'zbek el adabiyotiga tegishli materiallarni to'plovchilarga qo'llanma // Maorif va o'qitg'uvchi. – 1926. 7-8-sonlar.

⁵G'.Yunusov. Alpomish. Bilim o'chog'i. – Toshkent, 1923. 2–3-son. 38-bet.

⁶G'.Yunusov. Alpomish. Bilim o'chog'i. – Toshkent, 1923. 2-3-son.

⁷T.Mirzayev. G'ozzi Olim Yunusov // Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS-ASA, 2013. 380-bet.

⁸O'sha manba 380-bet.

⁹O'sha manba. 380-bet.

¹⁰M.Alaviya. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1959. 316-bet.

¹¹T.Mirzayev. G'ozzi Olim Yunusov // Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS-ASA, 2013. 380-bet.

¹²G'.O.Yunusov. O'zbek el adabiyotiga tegishli materiallarni to'plovchilarga qo'llanma // Maorif va o'qitg'uvchi. 1926. 7-8-sonlar.

¹³O'sha manba.



Tadqiqotlar

Zayniddin NARMURATOV,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOL HAMDA MATAL TUSHUNCHALARINING TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning barqaror birikmasi hisoblangan maqol hamda matallarning farqli jihatlari qiyosan o'rganilgan. Ishda o'zbek va ingliz tillarida maqol va matal tushunchalarining umumiy va xususiy jihatlari faktik misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, maqol, matal, termin, maqolning xususiyati, matalning xususiyati.

Annotation. This article comparatively researches the difference between sayings and proverbs which are permanent combinations of linguistics. It analyzes general and specific features of the concepts of proverbs and sayings in the Uzbek and English languages with factual examples.

Key words: folklore, proverb, saying, term, peculiarities of proverbs, peculiarities of sayings.

Аннотация. В этой статье сравниваются различные аспекты пословиц и поговорок, которые являются устойчивой языковой комбинацией. В работе анализируются общие и специфические аспекты понятий пословиц и поговорок на узбекском и английском языках на основе фактических примеров.

Ключевые слова: фольклор, пословица, поговорка, термин, особенность пословицы, особенность поговорки.

Tilshunoslikning barqaror birikmalarni o'rganuvchi bo'limi *paremiologiya* (lot. *parema* – "barqaror", *logos* – ta'limot), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha *paremiografiya* (lot. *parema* – "barqaror", *grapho* – yozmoq) deb ataladi. [1:191] Tilda ikki yoki undan ortiq so'z bog'lanishi-

dan hosil bo'lgan birliklar ko'p. Masalan, so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi, gap, qo'shma so'z, tasviriy ifoda, maqol, matal va hokazo. Shuning uchun dastlab turg'un bog'lanish va erkin bog'lanishni bir-biridan farqlash kerak. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlik, ma'noviy yaxlitlik

tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so'z bog'lanishi *erkin bog'lanish* deyiladi. [1:191] So'z birikmasi va gap erkin bog'lanishga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi. Ikki yoki undan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanishi barqaror, *turg'un bog'lanishni* tashkil qiladi.

Barqaror birikma qo'shma leksema va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib, ko'chma ma'no ifodalaydi.

2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.

3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismlari qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi.

Demak, alohida shakllangan, tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan yaxlitlangan so'zlar bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi. Barqaror birikmani "buzib" – tarkibini o'zgartirib bo'lmaydi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma *maqol* deyiladi. Masalan: *To'g'ri o'zadi, egri ozadi. Ko'ngli qoraning yuzi qora.*

Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Faqat shu jihatdan ular lisoniy imkoniyat sifatida baholalanib, lisoniy birliklarga xos xususiyatga ega. [1:92]

Maqolning aksariyati qo'shma gap shaklida bo'ladi: 1. *O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.* 2. *Be-korchining beti yo'q, qozon osar eti yo'q.* 3. *Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan.* 4. *Kamtar bo'lsang osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p.*

Sodda gap tipidagi maqol ham tilda ancha: 1. *Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas.* 2. *Arg'amchiga qil quvvat.* 3. *Beli og'rimagan-ning non yeyishini ko'r.*

To'liqsiz gap shakli maqollar ham ko'p uchraydi: 1. *Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan (qaytmas).* 2. *Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda (bilinadi).*

Matal ham mavjudlik jihatidan barqaror birikma holida bo'ladi. Matal deganda to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shakliga ega bo'lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi. Masalan, *qizil qor yoqqanda, tuyanining dumi yerga yetganda, dumi xurjunda, ali desa vali deydi, berdisini aytguncha* kabi. Matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi. Masalan, *Berdisini aytguncha jim tur. Tuyanining dumi yerga yetganda qarzini to'laydi* kabi.

Shuningdek, V.Dal o'zining mashhur "Пословицы русского народа" to'plamining kirish qismida shunday yozgan edi: "Matal, xalqning ta'rificha, g'uncha, maqol esa meva; bu ta'rif juda ham to'g'ri". [2:15] Uning fikricha, maqol to'liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo'lsa, matal ko'chma ma'no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir. M.A.Ribnikova ham matalga nutq parchasi, ibora, hukm elementi, maqolga esa tugal hukm, to'liq fikr sifatida qaraydi.

Tojik olimi B.Tilavov tadqiqotlarida ham shu xildagi fikrlarga duch kelamiz. Buryat folklorshunosi M.P.Xamaganov maqol va matallarga mustaqil janrlar sifatida qaraydi. Prof. N.O.Sharakshinova maqol va matallarning o'zaro keskin farqlanishiga qo'shilmaydi. Buryat maqollarining keyingi tadqiqotchilaridan biri N.O.Sharakshinova maqol hamda matallarni mazmun va tuzilish jihatidan farqlanishini ko'rsatish bilan birga ularni mustaqil janrlar sifatida o'rganishni ta'kidlaydi. Bularga shuni qo'shish kerakki, maqol va matallar o'zaro farqlanuvchi jihatlariga asoslangan ikki mustaqil, lekin bir-biriga o'tib turuvchi janrlar hisoblanadi.

"Maqol" va "matal" so'zlarining turkiy xalqlar tilida ishlatilish doiralari, ular anglatgan ma'nolarning xilma-xilligi ham bu farqni tasdiqlaydi.

"Matal" so'zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma'nolarda qo'llanadi. U topishmoq, hikmatli so'z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, hikmat aytish ma'nolarida ishlatiladi.

U termin sifatida o'zbek folklorshunosligida paremalarining bir turini ifodalashi jihatidan differensialashib bormoqda. Shuning uchun ham u turli lug'atlarda turlicha izohlangan. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu atamaning ikki ma'no anglatishi va u arab tiliga mansub so'z ekanligi ko'rsatiladi. [2:16] Lug'atda ifodalanishicha, matal so'zining ma'nosi "tugal ma'no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z"dan iborat. Bu izoh mohiyatan xalq matallarining ham poetik, ham semantik, ham struktural tabiatini nisbatan aniq ifodalab beradi. Ammo lug'atda ko'rsatilganidek, "matal" so'zi aynan shu shaklda arab tiliga oid lug'atlarda uchramaydi. Bizningcha, "matal" termini arab tilidagi masal so'zidan ayrim fonetik o'zgarishlar orqali o'tib o'zlashgan va tugal hukm ifodalamaydigan obrazli iboralarga nisbatangina qo'llanila boshlagan bo'lsa kerak.

Maqol mustaqil folklor janri sifatida qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan, matallardan keskin farqlab turadi.

Bu farqlar quyidagilardan iborat:

1. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikriy lo'ndalik fikrni ixcham ifodalashga imkon beruvchi ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham maqolda birorta ortiqcha so'z, ortiqcha tasviriylik uchramaydi. Chunki maqoldagi ixcham fikrning o'zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Bu mohiyatning yuzaga chiqishi hamma vaqt ixcham badiiy shakl vositasida amalga oshadi. Matalda bunday xususiyatlar ko'rinmaydi. Ular obrazli birikma yoki ibratli gapdir.

2. Maqol uchun ma'lum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qat'iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. Qaysi bir maqolni ol-mang, u voqelikni mudom yo keskin ijobiy, yo keskin salbiy nuqtayi nazardan baholaydi.

Shuning uchun ham izchil mantiqiy qutbiylikni ifodalashda ikki qismdan iborat tuzilishga ega bo'lgan badiiy shakl yetakchi rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, maqolning tez va keng ommalashishiga yo'l ochib beradi.

3. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal bo'lmagan ifoda yotadi. Binobarin, matal ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega bo'ladi.

4. Maqollar ham o'z, ham ko'chma ma'nolarda qo'llanilish imkoniyatiga ega. Bu xususiyat maqollarning mavzu doirasini, qo'llanish chegarasini kengaytiradi. Shuning uchun ham maqol bir yoki bir necha xalqlar orasida keng tarqalgan bo'ladi. Matallar yoki boshqa iboralar esa lokal qo'llanilish chegarasiga ega bo'lib, ular hech qachon millatlararo iste'mol doirasida uchramaydi.

5. Matal nutqda ko'rsatish vositasi bo'lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llaniladiki, ularning bunday farqli xususiyatlari haqida boshqa folklorshunoslar ham to'xtalib o'tishgan. [2:17]

Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega bo'lsa, matallar faqat ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, *Dehqon bo'lsang kuz hayda; kuz haydamasang, yuz hayda* maqoli faqat o'z ma'nosida qo'llansa, *Quruq qoshiq og'iz yirtar* maqoli esa ko'chma ma'noda ishlatiladi. *Burnini yerga ishqamoq* matali esa hamma vaqt faqat ko'chma ma'noda qo'llanadi. [3:92]

Ko'rib turganingizdek, matallar maqollar kabi tugal hukmni ifodalamaydi. Aytib o'tish lozimki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o'rtasida farq borligini ko'rsatmoqda. Jumladan, maqollarda tugal hukm va aniq xulosa mavjud. Matal esa maqollar kabi tugal hukmni ifodalamaydi.

Xuddi o'zbek tilidagi singari ingliz tilidagi maqollarda ham shu masalaga duch kelamiz. Ya'ni, ingliz tilida maqol "proverb" va matal "saying" bir-biriga yaqin xalq og'zaki janrlari hisoblanadi. Amerikalik tilshunos A.Dundes til bosqichlariga quyidagicha ta'rif bergan. Uning nazarida maqollar:

- 1) sodda va murakkab gap shakllariga ega;
- 2) aftorga ega emas;
- 3) katta masalalarning qisqacha yechimidir;
- 4) insonlarning barcha hayotiy tajribasining aksidir;
- 5) ma'lum bir ta'lim va tarbiya tushunchalarini keng yoyib ko'rsatadi;
- 6) qisqalik, ixchamlik va metaforalik xarakteriga ega.

[4:52] O'zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham matallardan quyidagi xususiyatlari bilan keskin farqlanib turadi. Bular quyidagicha:

1. Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalangan. Matalda esa tugal fikr ifodalangan.

2. Matal ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarning bir turidir. Matal o'z ma'nosini boshqa ma'noga ko'chirgan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi. Masalan, "There is no place like home" maqolida o'z tug'ilib o'sgan uying oltin ham afzal, qadrlilik ekanligi ifodalangan.

"Knowledge is better than riches" maqolida bilimning boylikdan ustunligi, asl boylik bilim ekanligi ifodalangan.

"Seek education from the cradle to the grave". Bu maqolda beshikdan qabrgacha ilm izla, zero ma'rifatga eltuvchi yo'l ilm yo'lidir, ilmdan boshqa najot yo'q kabi ma'nolar ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

"Don't take gold, take knowledge; knowledge is gold". Bunda oltin olma, bilim ol, bilim oltindir, oltin abadiy emas, bilim abadiy, bilimning oltinidan afzalligini anglatuvchi chuqur ma'noga ega hikmatlar ifodalangan.

"Teacher, Like/ like pupil". Bu maqolda esa ustozlar va ularning bilim darajasiga ta'rif berilib, ustoz bilimli bo'lsa, shogirdi ilmi, ustoz bilimsiz bo'lsa, shogirdi ilmsiz degan ma'no ifodalanyapti. Yuqorida keltirilgan maqollarda tugal hukm va aniq xulosa mavjud.

Ingliz matallaridan biri "Build one's house upon the sand"ni tahlil qilsak, u "qum ustiga uy qurmoq" ma'nosini beradi. Agar uni ko'chma ma'noda tahlil qiladigan bo'lsak, "birovning ko'nglini puch yong'oq bilan to'lg'azmoq" ma'nosini anglatadi.

"Any port in a storm" "bo'rondagi qaysidir port" ma'nosini ifodalaydi. Ko'chma ma'noda esa "bo'ronda qolib ketmoq" ma'nosini anglatadi.

"As like as two peas" "ikki no'xat kabi" ma'nosini bildirsa, ko'chma ma'noda ikki tomchi suvday o'xshash degan ma'noni ifodalaydi.

Umuman, o'zbek va ingliz xalq maqollari juda ko'p xususiyatlari bilan folklorning boshqa janrlaridan keskin farqlanib tursa ham, ko'pchilikning ijod mahsuli sifatida anonim yaratilishi, og'zaki holda jonli yashashi, keng variantlashishi va o'ta ommaviyligi bilan xalq og'zaki ijodining barcha janrlari bilan umumiylik kasb etadi.

Shu o'rinda ularning bir-biridan farqli jihatlari o'rganish ham maqollarning boshqa janrlarga nisbatan alohida xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa maqollarni xalq paremik ijodida o'ziga xos va alohida tadqiq qilinishi kerak bo'lgan janr sifatida gavalantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 200 bet.
2. O'zbek xalq maqollari: [2 tomlik] / [Mas'ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov]. 1-t. – Toshkent: Fan, 1987. – 368 bet.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent, 1990. – 303 bet.
4. Dundes A. On the structure of the proverb, in Mieder, W. & A. Dundes. The wisdom of many: Essays of the proverb. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press. 1994. – 352 p.
5. <http://www.special-dictionary.com/proverbs/keywords/knowledge/>

Rafiqjon ZARIPOV,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

MULTILINGVLAR VA BILINGVLAR NUTQIDA LAKUNALARNING IFODALANISHI

Annotatsiya. Pluralingvlar va bilingvlar nutqini kuzatish bugungi kun fanimiz oldida turgan asosiy muammolardandir. Maqolada ko'ptilli va ikkitilli shaxslarning nutqini kuzatish masalalari, so'zlashuv jarayonida qo'llanadigan leksik birliklarning xususiyatlari, ikkitillilik va ko'ptillilikning yutuqlari hamda kamchiliklari, ularni bar-taraf etish yo'llari tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: pluralingvizm, bilingvizm, monolingv, lakuna, kommunikatsiya, streatip, lingvokulturologiya, individ, madaniyat, leksika, nutq, sotsial muhit, til, jamiyat, shaxs, madaniyatlararo muloqot, etnolingvist, tushuncha, muqobilsiz leksika, lingvist.

Annotation: Supervising the speech of pluralingvists and bilinguals is one of the issues of today's science. In the article, the issues of supervising bilingual and multilingual people's speech, peculiarities of lexical combinations which are used in communication, achievements and shortcomings of bilingualism and multilingualism and settling the shortcomings are researched.

Key words: Pluralingvism, bilingvialism, monolingvism, lacunae, communication, stereotype, linguoculturalism, individual, culture, lexis, speech, social medium, language, society, persona, intercultural communication, etnolingvist, notion, contrary lexis, lingvist.

Аннотация. Наблюдение за речью плюралингвизмов и билингвизмов в нынешний день является основной проблемой нашей науки. В статье рассматриваются вопросы многоязычной и двуязычной речи, особенности лексических единиц, используемых в речи, успехи и недостатки двуязычия и многоязычия, а также способы их преодоления.

Ключевые слова: плюрализм, билингвизм, монолингвизм, лакуна, общение, стереотип, лингвокультурология, индивид, культура, лексика, речь, социальная среда, язык, общество, личность, межкультурная коммуникация, этнолингвист, понятие, альтернативный словарь, лингвист.

Dunyoda tillar ko'p, ularning leksik qatlamlari ham boy. Har bir shaxs qaysidir jamiyat a'zosi ekan, aynan shu ijtimoiy muhitdagi tillardan birida so'zlashadi, mana shu tillardan birida jamiyat vakillari bilan fikr almashadi va munosabatga kirishadi. Insonlar umri davomida ma'lum bir sabab tufayli o'z tilidan tashqari qaysidir tilni o'zlashtiradi va bu tillar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Ikkinchi yoki uchinchi tilni o'zlashtirish jamiyat a'zolari orasida bilingvizm va pluralingvizm hodisalarining vujudga kelishiga zamin yaratadi. Aytish mumkinki, bilingvlar va multilingvlar qator imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga madaniyatlararo muloqot amalga oshganda qator muammolar ham yuzaga keladi. Bunday muammo va masalalarni hal etish bugungi lingvist, madaniyatshunos, etnolingvist va boshqa qator soha vakillarining oldida turgan muhim vazifalardan. Aytganidek, ikki va ko'p tilli shaxslarning imkoniyatlari kengayishi haqidagi ko'plab tadqiqotlar vujudga kelgan va bu etmoqda. Ularda ushbu masalalar bilan bog'liq muammolar ham qayd etilmoqda. Ana shunday masalalardan biri lakunalar bo'lib, bu hozirgi kunda o'z tadqiqini kutayotgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Biz mazkur kichik tadqiqotimizda lakunalar masalasiga to'xtalib, ushbu tushuncha yuzasidan bildirilgan fikrlarni tahlilga tortdik, bilingvlar, multilingvlar nutqida ifodalash jihatlari e'tiborimizni qaratdik.

Mazkur masala yuzasidan dunyo tilshunosligida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda lakuna tushunchasi haqida bir qator fikrlar bayon qilingan. Jumladan, "lakuna" atamasi ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P.Vine va J.Darbelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va shunday ta'riflangan: "Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi" [1]. Ta'rifdan ko'rinadiki, bir tilda mavjud bo'lgan leksemaning ikkinchi tilda xuddi shu so'zga mos leksema muqobilini mavjud emasligi lakunalarni vujudga keltiradi. Til o'rganayotgan jamiyat vakili, bilingvlar, multilingvlar mana shunday muammolarga ko'plab duch keladi. Aytish lozimki, bunday tushunchalar madaniyatlar tutashuviga ko'plab sodir bo'ladi.

Ushbu masala bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan yana biri V.G.Gak lakunalarni "tilning leksik tizimidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarning mavjud emasligi" [2], deb tushuntiradi. Ko'rish mumkinki, ma'lum bir tilda tushuncha mavjud, ammo ularni ifodalovchi leksik birlikning mavjud emasligi nazarda tutiladi. Shu bilan birga mazkur tushunchani ifodalovchi leksik birlik boshqa bir tilda mavjud bo'lishi mumkinligi qayd etilgan. Birinchi tildagi tushuncha ikkinchi tilda mavjud leksema bilan ifodalash hodisasi nazarda tutilgan. Jamiyatning multilingv vakillari bunday hodisalarga ko'p duch kelishadi. Bir tilda lakunalarga duch kelgan shaxs qaysi tilda duch kelganiga ko'ra o'z ona tilida yoki ikkinchi, uchinchi tildagi mos keluvchi til birligi bilan ifodalaydi.

Lakunalar yuzasidan izlanish olib borgan tadqiqotchilar bu tushunchaga har xil ta'rif berishadi. Ammo ularning fikrlari lakuna tushunchasini ifodalashda qaysidir tomonini to'ldirib, qator semantik xususiyatlarni qamrab oladi. Xususan, J.P.Vine va J.Darbelne, V.L.Muravyev o'z tadqiqotlarida ushbu tushunchaga "oraliq, lakuna" deb izoh berishsa, K.Xeyl, "zid so'zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog'lar" deya ta'riflaydi. Y.S.Stepanov "tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar", desa, V.G.Chernov "muqobilsiz, nol so'z", degan fikrni bildiradi. I.A.Sternin "muqobilsiz yoki fonli leksema" deb ta'kidlasa, L.S.Barxudarov, Y.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov "tasodifiy lakunalar" shaklida izohlaydi. L.S.Barxudarov "tarjimasiz leksema" sifatida ta'riflaydi. Ko'rinadiki, ushbu ta'riflarning barchasida lakuna tushunchasining qaysidir semasi ochildi. Tadqiqotchilar yondashuvlariga qarab lakuna tushunchasi ifodalangan. Biz ushbu fikrlarga tayangan holda lakunani: "ma'lum bir xalqning ongida tushuncha sifatida

mavjud, ammo o'sha til birliklari orqali ifodalab bo'lmaydigan, biroq ifodalanishi zarur bo'lgan tushuncha", deya ta'rifladik. Ushbu tushunchani aks ettirish uchun boshqa til birliklari yoki shu tilning ma'no va mazmun jihatdan yaqin leksik birliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ko'p tilda so'zlashuvchi kishilar nutqida bunday tushunchalarni uchratish mumkin. Ular aynan o'sha tushunchani ongda idrok etib turadilar, lekin shu tushunchalarni ifodalashga imkon topa olmaydilar. Bu tabiiy hol, chunki bunday birliklarni nutqda ifodalash shu til vakili uchun ham qiyinchilik tug'diradi.

Tillar va madaniyatlardagi farqlarni tahlil qilishda "lakuna" (lot. lakuna – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy; frans. lakune – bo'shliq, bo'sh joy) [3; 1] termini qo'llanadi. Ushbu tushuncha esa millatning leksikonida mavjud bo'lmagan birliklarni ifodalab keladi.

Multilingvlar ona tili va ma'lum ehtiyoj yuzasidan o'zlashtirilgan tillarning leksik birliklarini anglab yetishsa-da, o'rganilayotgan yoki o'zlashtirilgan tilda muammoga duch kelishlari mumkin. Bu esa, ko'pincha, lakunalar bilan bog'liq. Bu masalaning yechimi milliy mentalitet va milliylik bilan uzviy aloqador. Muayyan xalqning madaniyatida boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan stereotip xarakterdagi bir qator o'ziga xos unsurlar mavjud bo'lib, ular Y.A.Sorokin va I.Y.Markovina tomonidan lakunalar deb nomlanadi. Ret-sipiyent har doim ham o'zga madaniyat matnini to'liq tushuna olmaydi. Matndagi ayrim birliklar unga g'alati tuyuladi va ular maxsus izoh talab qiladi. Bunday birliklar matn yaratilgan madaniyatning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, lakunalarni yuzaga chiqaradi. Demak, aytish mumkinki, ikkinchi tilni o'zlashtirayotgan shaxs shu til vakiliga aylinishi uchun til o'rganish chog'ida shu tilning xususiyatlari bilan keng tanishmog'i va barcha xususiyatlarni o'zlashtirmog'i dardkor. Shu bilan birga shu tilda so'zlashuvchi xalqning milliyligi va mentalitetini ham chuqur o'rganishi lozim.

Tadqiqotchilar bir necha tilda so'zlashuvchi kishilar nutqini o'rgangan holda bu kabi muammolarni hal etishning yo'li ikkinchi yo uchinchi tilning barcha xususiyatlarini o'rganish ekanligini ta'kidlashadi. Ikki tilli shaxs, ayniqsa, matn bilan ishlayotganda bu muammo bilan ko'proq yuzlashish ehtimoli oshadi. Hatto ilmiy izlanuvchilar ham bu masalani chetlab o'ta olmasliklari mumkin. Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarni qiyoslash natijasida aniqlanadi. Qiyosiy tahlil jarayonida, odatda, tadqiqotchining ona tili chet tili bilan solishtiriladi. Agar qandaydir chet tildagi so'zga tadqiqotchining ona tilida (masalan, o'zbek tilida) mos so'z topilmasa, unda tadqiqotchi chet tildagi so'zning muqobilsizligi to'g'risida xulosaga keladi va bu so'z o'zbek tilida lakunani yuzaga keltiradi. Ongdagi tushunchani nutqda ifodalash uchun esa til leksikoni yoki boshqa til birliklaridan foydalangan holda ifodalashga uriniladi.

Har bir inson jamiyat a'zolari bilan muloqotga kirishar ekan, tildagi leksik birliklardan foydalanadi. Pluralingvlar o'zaro muloqotga kirishganda madaniyatlararo kommunikatsiya ham amalga oshadi. Bu esa so'zlashilayotgan tillarni ikki tomon ham to'laroq tushunish ko'nikmasini oshirilishini talab etadi. Ikki begona til vakillari o'zaro muloqotga kirishganlarida bu shaxslar va til birliklari o'rtasida o'zaro yaqinlikni yaratish bilan birga kommunikatsiya jarayonida turli muammolarni vujudga keltiradi. Ana shunday jihatlar madaniyatlararo verbal va nonverbal kommunikatsiya jarayonida "muloqotning uzilishi", "muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi", "noqulay aloqa", "lisoniy to'qnashuv" [3; 2] kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Bunday holatlar ijtimoiy-madaniy lakunalar hosil bo'lishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Lingvomadaniyatshunoslik sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlar ijtimoiy-madaniy lakunalar masalasiga e'tibor

qaratgan holda madaniy kommunikatsiyada ularning ko'plab shakllari namoyon bo'lishini ta'kidlashadi va bir qator turlarini farqlashadi. Shulardan biri turli lingvomadaniyat jamoalari vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan subyektiv lakunalar. *Subyektiv* yoki *milliy-psixologik lakunalar* madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning milliy-psixologik qarashlari bir-biriga mos kelmaganda yuzaga chiqadi. Ko'rinadiki, madaniyatlararo kommunikatsiyada ikki jamiyat vakilining til birliklaridan qanday mohirlik bilan foydalanishi va psixologik holatlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'rganilgan til bilan bir qatorda milliy madaniy jihatlarning ham o'zlashtirilishi bilan bog'liq.

Turli faoliyatlarining o'zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradigan *faoliyat-kommunikativ lakunalarga* muayyan madaniyatga xos bo'lgan xatti-harakat va imo-ishoralar, urf-odat va an'analar bilan bog'liq maishiy yoki kundalik muomala, shuningdek, muomala madaniyati kirishi aytildi [3; 3]. Bunday holatlarni yuzaga keltiruvchi eng muhim omillardan biri turli madaniyat vakillari tilida yozilgan matnlar qaraladi. Shunga ko'ra lakunalarni yuzaga keltiruvchi omil sifatida quyidagi turni keltirishadi. Matnlarning xususiyatlari (matnning mazmuni, matnni yaratish va uni tushunish, muayyan retsipiyentga yo'nalish, muallif poetikasi va h.k.) dan kelib chiqadigan *matniy lakunalar* [3; 4]. Masalan, retsipiyent ona tilida bo'lmagan matn o'qish jarayonida unga "begona" bo'lgan madaniyat bilan to'qnashadi va uni o'zining milliy madaniyati doirasida qabul qilishga harakat qiladi. Natijada retsipiyent "begona" madaniyatning o'ziga xos xususiyatini noto'g'ri talqin qiladi. Bilingv va pluralingvlarida bunday holatlarni ko'plab kuzatish mumkin. Bu holatda matnda

lakunalar kelganda boshqa madaniyat, til vakili bu tushunchani idrok etishda qiyinchilikka duch keladi.

Bilingvlar va multilingvlar tillarini tadqiq etish tadqiqotchi uchun ko'plab materiallarni taqdim etishi, bu esa mana shu sohaning rivoji, qayd etilgan muammolarning yechimi bo'lishi mumkin. Hozirda nutqiy faoliyatlarni kuzatish natijasida qator jihatlar qayd etilmoqda. Shunday muammoli jihatlardan biri bu lakunalardir. Ushbu tushuncha yuzasidan lingvomadaniy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo ularda bilingvlar va pluralingvlar nuqtayi nazaridan yondashilgan izlanishlar unchalik ko'p emas. Aytish mumkinki, bunday masalalarni yechimini topish yoki ularga muqobil yo'lni ko'rsatish yondosh sohalar nuqtayi nazaridan ham muammoning qaysidir jabhalarini ochishga ko'mak beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda lakunalar yuzasidan olib borilishi lozim bo'lgan tadqiqotlarni ko'paytirish ona tilimizni o'rganuvchilar uchun mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishda katta yordam beradi. Bilingvlar va pluralingvlar nuqtayi tadqiq etish hamda muammoli jihatlarni aniqlash fanimiz oldidagi dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek, o'zbek tilining qamrovini kengaytirish hamda tilimiz imkoniyatlarini yanada oshirish, ayniqsa, boshqa til vakillari uchun keng imkoniyatlar yaratish yo'lida ikki tili va ko'p tili shaxslar nuqtayi kuzatish samarali usullardan biridir. Chunki o'zbek tilida mavjud do'ppi, to'n, be'lbog' yaktak, chopon singari tushunchalar boshqa til vakillari uchun leksik lakunadir. Biz ushbu jihatlar yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borishimiz va milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda shu va shu kabi tushunchalarni ifodalash usullarini kengaytirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. – Paris, 1958. – P. 10.
2. Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Ленинград: Просвещение, 1977. – С. 261.
3. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: "Akadem-nashr", 2013. 154-бет.

Xurshida RAHMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TARIXIY SHAXS OBRAZI VA UNING BADIY TALQINI

O'zbek adabiy tafakkurining barcha bosqichlarida buyuk tarixiy siymolar, jumladan, vatanparvar shaxslar haqida turli asarlar yaratilib kelinmoqda. Yozma adabiyotda ularning turli janr va uslubdagi namunalari mavjud. Bu asarlarning o'ziga xosligi shundaki, ulardagi qahramonlar faoliyati o'zlari mansub bo'lgan davr voqeligi bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Shu bois ular, bir tomondan, o'z davrining farzandi, ikkinchi tomondan, ilg'or dunyoqarashlari va yuksak g'oyalari bilan tarixan o'z zamonasidan ilgarilab ketgan siymolar sifatida gavdalanadi. Binobarin, ular xarakterida milliy va umumbashariy jihatlar uyg'unlashadi.

Yetuk ijod qimmatini belgilash uchun, odatda, badiiyatning har xil talablari nuqtayi nazaridan tahlildan o'tkazib ko'riladi. Ma'noning haqqoniyligi, xarakterlarning yorqinligi, pafosning yuqoriligi, ziddiyatning keskin va mantiqiyliigi, kompozitsiyaning pishiqliigi, sujetning o'ziga xosligi, tilning jozibaliligi va hokazolarga e'tibor qaratamiz.

Xurshid Do'stmuhammad asarlari shu yo'sinda tadqiq qilinsa, ular talabga to'la javob berishi aniq. Adib o'z xalqining ilg'or vakillari bo'lmish obrazlar ustida ishlar ekan, ularning ma'naviy saviyasi, ruhiy olami, axloq prinsiplariga alohida e'tibor beradi.

Adibning tarixiy mavzuda yozgan hikoyalardan biri "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" deb nomlanadi. Hikoyada XIX–XX asrlarda o'zbek xalqi boshiga tushgan istilochilik, mustamlakachilik, totalitar tuzum mohiyatini ochishga, tahlil etishga e'tibor qaratilgan. Real voqealar, real shaxslar asosida milliy xarakterning o'ziga xos badiiy talqinlari yaratilgan. Asarda 1918-yil adolatsizlik hukm surgan, o'zbek xalqi boshiga kelgan og'ir judolliklar, mudhish davrlar haqida hikoya qilingan. Muallif mustamlaka, erksizlik, millat tanazzulining sabablarini ochishga urinadi. Hikoyadagi barcha mazmuniy va ijtimoiy unsurlar shu maqsadga qaratilgan. Ushbu hikoya tarixiy qimmatini bilan birga juda

katta ruhiy tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Yozuvchi tarix voqealari orqali erk va ozodlik g'oyalari tarannum etgan.

Asarda ziyoli, tadbirkor Mirkomilboy obrazida o'z xalqi uchun, uning farovon yashashi uchun bir kasalxona qurmoqchi bo'lgan va tegishli joylardan ruxsat ololmay tuhmatga uchragan, o'z yurtining o'g'lonlarini Rossiyaga mardikorlik ishiga yuborishni xohlamay, bor-budini berishga tayyor mard, vatanparvar inson qiyofasini ko'rishimiz mumkin. Mirkomilboy obrazi o'sha davr vatanparvar, sodda, halol, ziyoli insonlarining qiyofasini ko'rsatib berishi orqali o'zida badiiy umumlashmani tashiydi va shu bilan birga u o'quvchi ko'z oldida alohida individual xususiyatlarga ega konkret bir shaxs sifatida gavdalanadi. Uning boshqalardan ajralib turadigan xarakterini, individual xususiyatlarini yozuvchi qahramonning nutqi orqali ifodalab beradi. Temurbek hoji va ellikboshi Mirkomilboyga zarbof to'n olib kelgan paytda Mirkomilboy shunday javob beradi: "Bu ishlarig durust emas... Bir og'iz roziligim evaziga hadya keltiribsizlarmi, undan chiqdi, rozilik bermagan taqdirimda ortimdan tosh otar ekansizlar-da?!... Xushomadni bandaga emas, Xudoga qilinglar!"¹. Yuqoridagi parcha orqali ko'rishimiz mumkin, Mirkomilboy xushomadni yoqtirmaydigan, haq so'zni aytadigan, haqiqatg'o'y inson sifatida o'quvchida taassurot qoldiradi.

Mirkomilboy yurtdoshlari orasida eng katta sarmoyador. Shu bilan birga ko'zi ochiq, o'ris mustamlakachilarining nima maqsadda kelishganini, ahvol shunday bo'laversa, o'zbekni kelajakda qanday fojialar kutayotganini juda yaxshi biladi. Imkon qadar yangi zamon shiddatidan ortda qolmaslikka, millatdoshlarini ham shundan ogoh etishga, ularga yordam berishga intiladi. Mirkomilboy yurtdoshlari ichida birinchi bo'lib zavod qurishga bel bog'laydi. Kasalxona, masjid, hammom ochmoqchi bo'ladi. Bu harakati ostida ham millat manfaati turadi. Ayniqsa, mardikor voqeasiga munosabatida Mirkomilboyning millatparvarlik qiyofasi yorqin namoyon bo'ladi. Skobelevda harbiy hokim huzurida kechgan mana bu suhbat fikrimizga dadil:

" – Andijondan qancha mardikor olasiz? – so'radi u gapni cho'zmay.

– Nima edi? – o'smoqchiladi muovin.

– Barining haqini to'laymiz! Bizning yigitlar Rossiya o'rmonlarida jon saqlab yasholmaydi. Sovuql..

Muovinning rangi gezardi.

– O'-o'!... Davlatingiz shunchalik ziyodami?.. – deb yubordi entikib.

– Borini beraman. To'laymiz, lekin bironta farzandimizni jo'natmaymiz!.."²

Yuqoridagi keltirilgan voqealarning barchasi hikoyada boyning xotirasi, retrospektiv sujet tarzida beriladi. Shu yo'l bilan yana bir xarakterli xususiyat, aniqrog'i, millat fojiasining sababi ochiladi. Mirkomilboyning butun faoliyati millatdoshlarining manfaatiga qaratilgan. Biroq shuncha xizmatlari evaziga millatdoshlaridan faqat ta'na-yu dashnomlar, g'iybat-u yo'qotishlar oladi, xolos.

Adib Mirkomilboy obrazida aql va hisni uyg'un holda ifodalaydiki, inson qalbida mudrab yotgan vatanparvarlik tuyg'ularini junbushga keltiradi. Turkiyalik Anvar poshsho va Mirkomilboy o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatda

Mirkomilboyning chin vatanparvar inson ekanligi namoyon bo'ladi.

" – Turkistondan umidni qo'poring, Mirkarim sayim, bizim yurtda qola bilursangiz, – degan edi Anvar poshsho.

– Men bu yerda qolsam, bolalar-chi, oilaning ahvoli ne kechadi? – deb e'tiroz bildirdi Mirkomil.

– Jujuqlardin, nasllardin-da qayg'urmang, sayim. Inshaalloh, ularni-da, bu yerda go'tarajakmiz. Ota yurtimiz huriyat edana qadar bizim Istanbulda yashab biluringiz.

Mirkomil go'yo Anvar poshshoning taklifiga rozilik bergandek bo'ldi-yu, ichida nimadir uzilib ketti, qo'l-yog'idan mador qochdi.

– Jujuqlarni, nasllarni ko'chirib kelarmiz, poshsho hazratlari, – dedi Mirkomil qahratonda qotgan odamday sovuq qotib. – Lekin Vatanni qanday opkelamiz? Vatanni ko'chirib bo'lmaydi-ku!

Endi o'ylasa o'shanda Mirkomil ichidan yomon zil ketgan ekan, ko'ksining allaqayerida "chirt" etib uzilgan narsa endi butun vujudga tarqagandek bemador-bemajol..."³.

Hikoyada vatanparvar o'zbek o'g'lonlari bilan bir qatorda millat fojiasini keltirib chiqargan manqurt, imon-e'tiqodan mahrum bo'lgan sotqinlar obrazi ham tasvirlangan. Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgach, Mirkomilboy inqilobiy tribunalgga topshiriladi. Tribunal vakillaridan biri – rus, biri – o'zbek yigiti. Boy o'ziga inqilobiy tribunal chiqargan hukmni ro'kach qilayotgan bu o'zbek yigitidan o'limi oldidan ikki rakat namoz o'qish uchun suv so'raydi. O'z qavmidan, o'z xalqidan bo'lgan askarcha bunga (askarcha – X.Do'stmuhammad ta'biri) ruxsat bermaydi. Moviy ko'zli rus askari esa so'nggi tilakning bajarilishiga ijozat beradi. Mirkomilboy namozni boshlashga ulgurdi, xolos. O'z xalqidan chiqqan, bosar-tusarini bilmay qolgan o'zbek askarcha unga qarab ketma-ket o'q uzgan edi. "...ammo-lekin Mirkomil uchun o'zidan chiqqan va butun umr ta'qib etgan dushmanini o'z ko'zi bilan ko'rish orzusi ham nihoyatda arziyas nimsaraga aylangan – uning uchun bu yorug' dunyoda xolis niyatla boshlagan so'nggi ibodatini ado etishdan muqaddasroq maqsad-muddao qolmagan edi, biroq aqlsiz o'q uzilaverdi-uzilaverdi... Mirkomilning tilka bo'lgan jasad o'zi qazigan xandaqqa gursillab ag'darildi..."⁴.

Hikoyaning oxiri shu zaylda original yakun topadi. Yozuvchi talqinida halol, adolatpesha, to'g'riso'z, ishbi-larmon, millat ravnaqi uchun kurashuvchan, yurtparvar Mirkomilboyning fojiasi bosh sababi zohiran mayda bo'lib ko'ringan hasad, g'iybat, chaqimchilik, iymonsizlik, manqurtlik illatlarining ko'payib ketishidir. Mustamlakaga aylanishning boisi ham dushmanning zo'rligi, ayyor yoki quvligi emas, millatni ichidan yemirgan ichki nizodir.

Xurshid Do'stmuhammad ijodi badiiylik jihatdan alohida e'tiborni jalb qiladi. U o'z ideallarini yuksak badiiy shaklda ifoda qila olgan yozuvchi. Adibning mahorati shundaki, Mirkomilboy tarixiy shaxs obrazi orqali o'zbek xalqi boshidan kechirgan mudhish qora kunlar nafasini yosh avlod ongi va qalbida his qildiradi olgan. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi mustaqil farovon kunlarimizga shukronalar aytishimiz kerakligini bildiradi.

¹X.Do'stmuhammad. Qazo bo'lgan namoz. – Toshkent, 1996. 4-bet.

²O'sha asar. 11-bet.

³O'sha asar. 12-bet.

⁴O'sha asar. 15-bet.

AKADEMIK LITSEYLARDA QORAQALPOQ ADABIYOTI

o'qituvchi mas'uliyati va o'quvchi o'zlashtirishining ahamiyati

Dunyo xalqlarida globallashtirish jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari muhim ahamiyatga ega. Jahon miqyosida ta'limni barqaror taraqqiy ettirish g'oyasi halqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha: yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim - taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga etkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof etilgan[1].

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitish texnologiyasini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, o'quvchilarning axborotlarni o'zlashtirishini baholash usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Zero, uzluksiz ta'lim tizimining mazkur bosqichida o'quvchining adabiyot fani dasturidagi materiallarni ayniqsa, lirik, epik, dramatik asarlarni ilmiy-nazariy, metodik jihatdan kengroq va chuqurroq o'rganishi o'ziga xos tarbiyaviy o'rin tutadi. Ayni davrda o'quvchi dunyoqarashi kengroq shakllanib, ertangi kelajagiga zarur poydevorning ustunlari qo'yiladi. Bunda esa, adabiyot dasturidagi adabiy-badiiy asar qahramonlari xarakteri, ularning vatanparvarligi va jasorati, kerak bo'lsa, salbiy fe'l-atvoridan ham ibrat, saboq olish imkoni mavjud.

Qoraqalpoq adabiyotini o'qitish jarayonida umumlashtirish, qiyoslash, tahlil va sintezlash, kuzatish, suhbat, pedagogik ilmiy tajriba o'tkazish, test o'tkazish, kabi pedagogik va didaktik tahlil kabi usullarini qo'llanish o'ziga xos samaraga ega. Bunda o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, har bir o'tiladigan darsga yangicha yondashuv, ijodiy munosabat talab etiladi.

Qoraqalpoq adabiyoti dasturiga kiritilgan materiallar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib, qoraqalpoq adabiyoti, qardosh xalqlar va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, yoshlar qalbida vatanga muhabbat, milliylik, odob-axloq fazilatlarini shakllantirish, shu bilan birga o'quvchilarda milliy meroslarni qadrlash tuyg'usini uyg'otish, badiiy asarlarning poetik xususiyatlarini o'rgatish orqali fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish lozim. SHu

bois adabiyot dasturiga kiritilgan materiallar terma adabiy asarlar bo'lib, badiiyligi, til xususiyati va milliyligi jihatdan o'quvchilarning psixologik va pedagogik talablari hisobga olinishi kerak.

Akademik litseylarga mo'ljallangan dasturlarni tuzishda quyidagi prinsiplarga tayanish zarur: 1. Dasturga kiritilgan materiallar saralanma bo'lishi lozim. 2. Tanlangan har bir adabiy material o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga mos bo'lib, shu orqali adabiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati inobatga olinish kerak. 3. Nazariy materiallar o'quvchining yosh xususiyatiga ko'ra osondan qiyinga qarab tanlab va saylab olinishi kerak.

Akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot dasturida berilgan badiiy asarlarni tahlil qilish va unga qo'yiladigan talablar, matn tahlili, tahlil turlari va usullari dars davomida o'rganiladi. Badiiy asarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga odob-axloq, estetik, ma'naviy tarbiya berish masalalari, o'quvchilarga har bir xalq o'z yuksak madaniyati, ma'naviyati bilan kuchli ekanligi etarlicha tushuntiriladi. Dars turlari hisoblangan yangi bilim berish, seminar, o'yin, musobaqa, test, konferensiya va mulohaza yuritish dasturlari orqali dasturda keltirilgan materiallar o'rganiladi.

Dars o'tish jarayonini tashkil etishning asosiy turi sifatida o'qitish bilan bog'liq muammolarning vazifalarini belgilab olish zarur. SHu ma'noda qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda darsning sifatli va samarali bo'lishi uchun metodik talablarga amal qilish muhim sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda dars shakllaridan foydalanishning o'ziga xosligi mavjud. Birinchidan, maktablarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda aralash dars, birlashgan dars, o'quvchilarni yangi bilim berish darsi bilan tanishtirish, kirish, takrorlash, o'yin dars turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari, har bir dars vaqti, dasturda berilgan materiallarning osondan qiyinga qarab tuzilish prinsiplari e'tiborga olinishi kerak. Uchinchidan, akademik litseylarda konferensiya, fikrlash, ma'ruza, seminar dars turlari orqali o'qitish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini,

darsga qiziqishini oshirib boradi. Har bir adabiyot darsi falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, estetika, pedagogika, psixologiya, geografiya, matematika fanlari bilan bog'liq holda o'rganilishi zarur. Natijada o'quvchilar ongida falsafiy, estetik, nafosat kabi ma'naviy tuyg'ular shakllanib boradi.

O'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga oid J.G'.Yuldoshev, G.D.Baubekova, G.M.Xalikova, O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva, M.Mahkamova, J.Sagidullaeva, J.Qaniyazova va shu kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi. SHu nuqtai nazardan, qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda interaktiv texnologiyani qo'llashning o'ziga xos metodik xususiyatlari bor.

Akademik litseylarda qo'llanadigan metod va usullarning maktab darslarida qo'llanadigan texnologiyalardan o'ziga xos jihatlari ta'kidlash o'rinlidir. Birinchidan, metodlar ikkisida ham bir xil qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bu o'rinda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metod va usullarni qo'llash lozim. Ikkinchidan, metodlarning qo'llanish xususiyatlari va usullarini guruhlarga ajratish zarur. Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda "FSMU", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Aqliy hujum", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Qora quti", "Zig-zag" singari metodlardan foydalanish metodik jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek metodistlari O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva "Pedagogik texnologiyalarning qo'llanish asoslari" nomli ishida maktablarda dars jarayonida bu metodlarni qo'llashning ahamiyatiga keng to'xtalib, o'zlarining metodik mulohazalarini bildirishgan. [12]

Qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasida badiiy asarni tahlil qilish va badiiy asar ustida ishlash bosqichlari, tahlil maqsadi, vazifasi, tuzilishi,

o'ziga xos mazmuni bor. Har bir ijodkorni asari bilan bog'liq holda tahlil qilish va o'ziga xos xususiyati bilan o'rganish talab etiladi.

Adabiyot dasturida berilgan badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchi asarning g'oyaviy mazmuni, obrazlari va janriy sifatleri bilan tanishadi. SHu bilan birga asarni tahlil qilishning etakchi tamoyillarini asos qilib olish zarur. Badiiy asar mavzusi, g'oyasi, unda tasvirlangan voqealarning qaysi davrga oidligi, o'sha davrning aks etganligini o'rganishda, yozuvchining o'zi yashayotgan davrga munosabatini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Qoraqalpoq adabiyoti dasturida yozuvchi tarjimai holiga oid materiallar ko'p berilgan. Dasturda keltirilgan yozuvchi hayotini ketma-ket tarzda metodik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq.

Akademik litseylarda yozuvchilar tarjimai holi o'qitishda ularning hayotidan beriladigan qisqacha hayotiy tavsif, hayoti to'g'risida hikoya va qisqacha ocherk kabi metodik masalalar e'tiborga olinadi. Yozuvchining hayoti va ijod yo'li, asarlarining g'oyaviy-badiiy tavsifini izohlash, tarixiy adabiy masalalarni yoritish etakchi o'rin egallaydi.

Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitish orqali o'quvchilarga odob-axloq, estetik, ma'naviy tarbiya berish masalalari, shuningdek, adabiyot darsida pedagogik texnologiyadan foydalanish usullari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, interaktiv o'qitishning texnologik xususiyatlari, badiiy asarlarni tahlil qilishning maqsad va prinsiplari o'rganilishi kerak, o'quvchilarning bilim darajalarini o'stirish, bilimni oshirish, ularni vatanning sodiq farzandlari qilib tarbiyalashda dars va darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlarga ahamiyat berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. -p.6-7. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.
2. O'zbekstan Respublikasi Prezidentini "Orta arnavli, kásip-óner bilimlendiriwi mákemeleriniń jumısın bunnan bilay da jetilistiriw ilajları haqqında" qararı. «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasi, 18-mart, 2017-jılı, №33-34 (19964)
3. Paxratdinov A. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası. Nókis. «Bilim», 2004.
4. Yusupov K.A. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası. (sabaqlıq), Tashkent, «Sano-standart», 2018. 336 bet. Yusupov K.A. Akademiyalıq liceylerde qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası. (monografiya), Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2019. 112 bet.
5. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi. Toshkent. "O'qituvchi", 1997;
6. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, 2010.
7. Abdurazzoqov A. Maktabda adabiyot o'qitishning hozirgi ahvoli, muammolari hamda programma va darsliklarni takomillashtirishga oid mulohazalar. -T.: O'qituvchi, 1990. -46 b.

Nilufar KADIROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri

RETSEPTIV ESTETIKA ADABIY TA'LIM TAJRIBASIDA

Badiiy asar matni va kitobxon o'rtasidagi g'ayrioddiy jarayon tadqiqi adabiyotshunoslikning eng qiziq va dolzarb muammolaridan biridir. Badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi ma'lum taassurotlarni boshidan kechiradi, o'zining lisoniy imkoniyati, estetik va hayotiy tajribasidan kelib chiqib, u yoki bu qahramonni baholaydi, munosabat bildiradi. Binobarin, asarning mazmuni faqat uni ma'lum bir o'quvchi tomonidan o'qish jarayonidagina shakllanadi. Asarning tagqatlamiga yashiringan g'oyalari ham aynan kitobxonning badiiy asarga turli rakurslardan yondashishi asnosida kashf qilinadi.

Retseptiv estetika (o'qituvchining aralashuvi cheklangan holda o'quvchining asar yuzasidan fikrlarini erkin bayon qilishi) o'quvchiga asar voqealari ichiga sho'ng'ib, ularga real guvoh bo'lish va asar sujetini o'zining talqini orqali "tuzish" imkonini beradi. Adabiyot ijro san'ati sifatida qaralib, har bir o'quvchi mutolaa tajribasi asosida o'ziga xos, ehtimol, noyob matn yaratadi. Bunda yozuvchi estetikasi emas, kitobxon (retsipiyyent) qarashi, tafakkur hosilasi diqqat markazda bo'ladi. "Kitobxon adabiy aloqaning yakunlovchi bo'g'iniga aylanadi"¹. Adabiyot ta'limida retseptiv estetika tushunchasi Konstans maktabi vakillari bo'lmish nemis adabiyotshunoslari Volfgang Izer hamda Hans Robert Yauss nomlari bilan bog'lanadi. AQShda ham 1960–70-yillarga kelib kitobxon javobi nazariyasi (Reader-Response Criticism/Theory) paydo bo'lib, rivojlanish bosqichiga yetgan. Ta'sir estetikasi to'g'risida Volfgang Izer "Faqat badiiy asar mutolaasi asar va kitobxon o'rtasidagi munosabatning jonlanishiga olib keladi", deb yozgan edi.² Ushbu nazariya to'g'risida 1980-yilda nashr etilgan dastlabki ikkita antologiyadan birining muallifi J. Tompkinsning ta'rifiga ko'ra esa "kitobxon javobi atamasi o'zida tanqidchi mehnatida aks etadigan *kitobxon, o'qish jarayoni, sharh va javob* degan so'zlar bilan ish ko'radigan tadqiqot doirasidir"³. Muallif kitobxonni matnga tenglashtirgan holda birinchi o'ringa olib chiqadi va uni adabiy jarayonning zaruriy tarkibiy qismi sifatida belgilaydi.

Kitobxon javobi nazariyasining asosiy vakillari deb Stenli Fish, Norman Holland, Devid Bleyk sanaladi. Lekin bularga qadar 1936-yilda amerikalik adabiyotshunos olim Luiza Mishel Rozzenblatt "Adabiyot tadqiqot sifatida" ("Literature as Exploration") kitobida kitobxonni adabiy hamkorlikning teng huquqli a'zosi sifatida asar matniga tenglashtiradi. Keyinchalik olim kitobxon va asar matni orasidagi munosabatni "tranzaksiya", o'z nazariyasini "*tranzaksiya nazariya*" deb nomladi. Olima nazarda tutgan tranzaksiya jarayoni natijasida ma'no va estetik qiymatga ega bo'lgan "asar" yaraladi.

Ta'sir estetikasining tarixidan shuni kuzatish mumkinki, Amerika, G'arb va rus adabiyotshunosligida asosiy e'tibor kitobxon qaratiladi. Bugungi kunda Kanada, Braziliya, Rossiya, Ukrainada ham retseptiv estetikaga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kitobxon shaxsi va uning fikri adabiyotshunoslik uchun nechog'liq muhim bo'lsa, adabiyot darslarida badiiy asarga o'quvchini olib kirish, o'qilgan asar yuzasidan fikrlarini erkin ifodalay olish, uning izohlari orqali badiiy matn ma'nosini konkretlashtirish, tasavvurlari orqali asarning bugungi zamon uchun ahamiyatini aniqlashtirish kabilar adabiy ta'lim uchun muhimdir.

Bugungi kun adabiy ta'lim jarayoni, avvalo, o'quvchini kitob o'qishga qiziqtirish bilan birga uni shunchaki mutolaa kishidan o'zining tafakkur doirasi mahsulini ifodalay oladigan, mustaqil fikrlashdan cho'chimaydigan kitobxon darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili jarayonida retseptiv yondashuv o'quvchida badiiy asarlarni o'qishga motivatsiya hosil qilish, o'qiganlarini uqish va hayotda turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish, qisqa qilib aytganda, badiiy adabiyotni amaliy (pragmatika) jarayonlar bilan bog'lashga yordam beradi.

Xo'sh, kitobxon javobi nazariyasi amaliyotda qo'llansa, qanday natijaga erishish mumkin?

ToshPTI akademik litseyining 25 nafar o'quvchisi o'rtasida so'rovnomaga o'tkazildi. Unda 10-sinf Adabiyot darsligidagi (akademik litsey o'quv dasturiga ham kiritilgan) Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasi tanlab olindi.

So'rovnomaning maqsadi – o'quvchi reaksiyasi nazariyasi va ranzaksiyon nazariyasi asosiy postulatlarini (isbotsiz qabul qilinadigan, lekin biron asosi bo'lgan qoida, tamoyil) o'zbek kitobxonlari misolida tasdiqlash yoki rad etish. Bunda quyidagilar nazarda tutildi:

- o'quvchi – asarga haqiqiy tajriba va real voqelikni olib keladigan va izohlash orqali mazmunni to'ldiradigan, faollashtiradigan faol element;

- adabiyotga tasviriy san'at sifatida qarash kerak, bunda har bir o'quvchi o'ziga xos, ehtimol, noyob qarashlarni bevosita matn bilan bog'liq yoki unga asoslangan holda yaratadi;

- bitta matnga o'quvchilarning javoblari – reaksiyalari har xil bo'ladi;

- S.Fishning so'zlariga ko'ra, "talqin qiluvchi jamoalar" asar mazmunini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi;

- L.M.Rosenblattning so'zlariga ko'ra, o'qish uchun ikkita yondashuv mavjud – efferent (ma'lumot olishga qaratilgan) va estetik o'qish.

Gipoteza: Kitobxonning estetik va hayotiy tajribasining ayrim tomonlarini o'rganishga qaratilgan so'rov natijalarini tahlil qilish, Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasiga o'quvchilarning reaksiyasini yozish orqali biz asarni o'qish va mazmunini shakllantirish jarayonida har bir o'quvchi fikri muhimligini isbotlashimiz mumkin.

Bu hikoya o'g'lini 1967-yil harbiy xizmatga yuborib, 32 yil davomida uning diydorini ko'rishga mushtaq bo'lgan ona – Saodat aya va uning oilasi to'g'risida. Inson – eng oliy mavjudot. Ammo u o'z iymonini yo'qotar ekan, eng tuban jonzotga aylanib qolishi ham mumkin. Bilaks, ba'zan hayvonlarda shunday ezgu harakatlarni ko'rib qolamizki, ularni insonlarning barchasida ham ko'rish imkonsiz.

Qorako'z – tragik timsol. Kampir ham kuyib kul bo'lgan mushtipar. U o'g'lini ilhaqlik bilan kutgandi. Noqobil o'g'il boshqa dinga o'tib, bo'yniga xoch osib kelibdi. Saodat kampir o'g'lidan itni a'lo, deb biladi. Kampir o'lgach, it halovatini yo'qotadi: dam kampirning qizini kigiga yugurib ketar, goh kampirning uyi oldida tinmay akillardi. Uni otib tashlaydilar...



"Qorako'z Majnun" hikoyasida imon-e'tiqodli onaxonning bu yorug' dunyodan alam-o'kinchlar bilan vidolashuvi-

ga sabab bo'lgan oqpadar o'g'il milliy-axloqiy qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ham jirkanch mahsuli, ham ayanchli qurbonidir. Ushbu hikoya yuqori sinf o'quvchilarini Vatanga, onaga, oilaga, dinga hamda milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda inson qa-

dr-qimmatini ulug'lash, o'zi va atrofgidagilarga ijobiy munosabatda bo'lish kabi shaxsiy xislatlarni shakllantirish, irodaviy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qisqa sujetga ega hikoya asosida o'quvchilarga 6 ta savol berildi, so'rov natijalarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

11	Saodat aya nega Qorako'zni qadrlar edi?	Eridan yodgor bo'lgani uchun	Hayvonlarni yaxshi ko'rgani uchun	O'ziga darddosh deb bilgani uchun	Uyini qo'riqlagani uchun
		8%	16%	68%	8%
2	Ayaning ichida "erimay qolgan muz" nima edi?	Erining vafot etgani	Bo'rixonni dindan qaytgani	Hajga borolmagani	Bo'rixonning musofirligi
		12%	60%	12%	16%
33	Hikoyada sizga ko'proq nima yoqdi?	Hikoyaning nomi	Hikoyaning sujeti	Qahramonlar nomi	Hikoyaning epigrafi
		32%	44%	12%	12%
44	Bo'rixonga qarama-qarshi qo'yilgan obraz qaysi?	Abdumalik	Qorako'z	Qumri	Bunday obraz yo'q
		4%	68%	20%	8%
45	Hikoyadagi qaysi qahramon tebratuvchi kuchga ega?	Qorako'z	Saodat aya	Bo'rixon	Qumri
		20%	12%	68%	0%
66	Qaysi voqea sizni qattiq hayajonlantirdi?	Dindan chiqish	Ayaning vafoti	Itning o'limi	Baholashda qiynalaman
		32%	20%	40%	8%



Quyidagi diagrammalar hikoyaning o'quvchilarga hissiy jihatdan ta'siri qanday rang-barang bo'lganini va Bo'rixonning mana shunday noqobil bo'lib qolishida qaysi obrazni ko'proq aybdor deb bilishini ko'rishga imkon beradi.

Aksariyat o'quvchilar ushbu hikoya voqealari ta'sirchan, hissiyot uyg'otuvchi ekanligiga qo'shilishdi (92%). Bo'rixonning o'z imonini yo'qotib, tuban jonzotga aylanib qolishida: qahramonning o'zini aybdor qilib belgilash (48%), qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosat ta'siri deb hisoblash (30%) kuzatildi. Ushbu natijalar bizga ma'lum bir

(S.Fishning so'zlariga ko'ra) "interpretatsion (talqin qiluvchi) hamjamiyat (matn asosida xuddi o'quvchi kabi reaksiyalarga ega bo'lgan odamlarni o'z ichiga olgan)" to'g'risida gapirishga imkon beradi.⁴

Demak, muallifning asar yaratish maqsadini hisobga olish bilan birga, diqqat bilan o'qish ("close reading") usulini qo'llagan har bir o'quvchining o'qish jarayonida hayoti va o'qish tajribasi, e'tiqodi, fe'l-atvori, dunyoqarashi va kayfiyatiga asoslangan shaxsiy asari "tug'iladi".

Bizning tadqiqotlarimiz quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Retseptiv estetika nazariyasining asosiy qoidalari isbotini topdi, haqiqatda o'quvchining real tajribasi asar idrokiga ta'sir etadi. Buni kitobxon javoblarining turlichaligida ko'rish mumkin;

2. Ta'sir estetikasini nazariya sifatida nafaqat o'rgan-

ish, balki o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasida ham faol qo'llash lozim.

Retseptiv estetikani darslarda qo'llash o'qituvchi uchun dars samaradorligini oshirishda, o'quvchi uchun esa har birining ehtiyojlarini hisobga olgan holda matnlarni idrok etishdagi turli-tuman farqlarni o'rganishda yordam beradi.

¹A. H. Kovyalkin Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки// Омский научный вестник № 2 (54) 2007. – С. 153.

²В. Г. Зинченко, В. Г. Зусман, З. И. Кириозе. Литература и методы ее изучения. М.: Флинта: Наука, 2011. – С. 194.

³Tompkins, J. P. (Ed.). Reader-response criticism: From Formalism to PostStructuralism. – Baltimore: John Hopkins University Press, 1980. – P. 275.

⁴Fish, S. Is There a Text in This Class?: The Authority of Interpretative Communities / Stanley Eugene Fish. – Cambridge: Harvard University Press, 1980. – P. 171, 394.

Husnigul JO'RAYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

HUSAYNIY IJODI TURK OLIMLARI TALQINIDA

Hozirga qadar temuriy sarkarda, nozikta'b shoir Husayn Boyqaro – Husayniy hayoti, ijodiy merosini o'rganish, she'rlar devoni va "Risolai Husayn Boyqaro" asarini nashr ettirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, bu borada turk olimlarining mehnati anchayin keng qamrovli. Turkologlarning Husayniy shaxsiyatiga cheksiz hurmati, shoir adabiy merosiga bo'lgan qiziqishi sabablarini quyidagi uch omil bilan izohlash mumkin:

1. Turk ilm-adab ahlining Alisher Navoiy dahosiga bo'lgan ehtiromi, Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, do'stlik rishtalari, Husayniy va Hirot adabiy muhiti, Navoiy va Husayn Boyqaroning badiiy ijoddagi izdoshlik an'analari masalasining doimiy e'tibor markazida turganligi.

2. Husayn Boyqaro siyomosining XV asr ikkinchi yarmi, XVI asr boshlari turkiy til rivoji va mavqeyini tiklashdagi jonbozligi, turkiy xalqlar jipslashuvida tutgan o'rni, san'at va ilm-fan homiysi sifatidagi qiyofasi.

3. Shoh va shoir Husayniyning buyurtmasi bilan ko'chirilgan, hazrat Alisher Navoiy nigohidan o'tkazilgan shohona qo'lyozmalarning Turkiya davlati qo'lyozmalar fondida saqlanishi.

1946-yil Istanbulda professor Ismoil Hikmat Ertaylon Husayniy devonining "Ayo Sofiya" kutubxonasida saqlanayotgan 3911-raqamli qo'lyozmasini faksimel shaklida chop ettirgan [1]. Ismoil Hikmat Ertaylon keltirgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Turkiyaning To'pqopi saroyi muzeyi, Turk va islom yodgorliklari muzeyi hamda Istanbul universiteti kutubxonasida ye.N. 1636, T.I. 1977, T. 1942, T. 1926, 3911, 102, 3807, 3806, 2381, 106 raqamli Husayniy devoni qo'lyozmalari saqlanadi. Mazkur qo'lyozmalar zamonasining mashhur kotiblari Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon tomonidan nafis nasta'liq xatida ko'chirilgan.

2002-yil Anqara universitetida tadqiqotchi Talip Yildirim tomonidan "Husayn Boyqaro devoni" (Matn – tadqiq – izoh) nomli doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Bu tadqiqotda shoir devonining o'z zamonasida ko'chirilgan 8 ta qo'lyozmasi asos qilib olingan va ular shartli ravishda **U, A, F1, F2, ye, M, I, T** harflari bilan belgilab olingan.

1. **U** nusxa. Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan T.Y.1977 raqamli qo'lyozma.

2. **A** nusxa. Istanbul "Ayo Sofiya" kutubxonasidagi 3911-raqamli qo'lyozma.

3. **F1** nusxa. Fotih kutubxonasidagi 3806-raqamli qo'lyozma.

4. **F2** nusxa. Fotih kutubxonasidagi 3807-raqamli qo'lyozma.

5. **ye** nusxa. To'pqopi saroyi Enderun kutubxonasidagi 2307-raqamli qo'lyozma.

6. **M** nusxa. Turkiya Millat kutubxonasidagi 106-raqamli qo'lyozma.

7. **I** nusxa. Turk va islom asarlari muzeyi kutubxonasidagi 3913-raqamli qo'lyozma.

8. **T** nusxa. To'pqopi saroyi kutubxonasidagi 2307-raqamli qo'lyozma.

Olim Talip Yildirim Husayniy devonining mazkur sakkiz qo'lyozmasi asosida 201ta g'azal, 2ta muxammas, 6ta ruboiy va 3 baytdan iborat matnini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Dissertatsiyada shoir devonining eng katta nusxasi bo'lganligi tufayli Fotih kutubxonasidagi (**F1**) 3806 raqami ostida qayd etilgan qo'lyozma tayanch manba sifatida tanlab olingan. Adib she'riyatidagi so'z va ibora, misra va baytlarga taalluqli farqlik izoh sifatida tayanch nusxasiga ko'ra berilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy qimmatini oshiruvchi yana bir jihati shundaki, Husayniy devoni matnining til xususiyatlari, g'azal va ruboiylarida qo'llanilgan eski turk tili, qoraxoniylar turk tili o'zaro taqqoslanib, adib lirikasining lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan. E'tiborlisi, ishning lug'at bo'limida she'rlar matnida kelgan so'zlar olinib ma'nolari izohlanar ekan, so'zlarda kelgan qo'shimchalar ham grammatik bir tartibda berilgan. Talip Yildirim iftixor bilan "Turklar orasida fors tili qadrlangan bir vaqtda turk tilida asar yozishni targ'ib etdi (Husayn Boyqaro–H.J.) va qo'llab-quvvatladi. Turk tili va adabiyotida ulug' siymolar yetishib chiqishida Husayn Boyqaroning xizmati beqiyosdir", – deb ta'kidlaydi [2: 3-bet]. Ko'rinadiki, turk olimi Husayn Boyqaro siyomosining o'ziga xos jihatlari: turkiy til homiysi sifatidagi sa'y-harakatlari, ijodiyotidagi turkona lafz va shirinta'blik, turkiy so'zlar ma'no qatlamidan mohirona foydalana olishlik iste'dodini alohida e'tirof etadi.

Dissertatsiyada Husayniy devoni nusxalari va ular yuzasidan turk olimlarining olib borgan tadqiqotlari haqida ham

to'xtalib o'tilgan. Xususan, Husayniy devonning dunyo fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalari haqida gap ketganida, "Devoni Sulton Husayn Boyqaro"ning 21ta nusxasi topilgani, bulardan 8tasi Turkiyada, 13tasi esa xorijda saqlanishi qayd etilgan (Xuddi shu dalillar professor Ismoil Hikmat Ertaylon tomonidan 1946-yil nashr etilgan Husayniy devonining Istanbul nashri muqaddimasida ham keltirilgan). Tadqiqotchi jahon qo'lyozma fondlarida mavjud devon qo'lyozmalarini quyidagicha tasniflagan:

1. Husayniy devonining Turkiya qo'lyozma fondlarida toplangan nusxalari.
2. Husayniy devonining xorijiy fondlardagi nusxalari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Devoni Husayn Boyqaro. Nashrga tayyorlovchi Ismoil Hikmat Ertaylon. – Istanbul: Burhoniddin Eranlar matbaasi, 1946. 243-bet.
2. Talip Yildirim. Husayn Boyqaro devoni (Matn – tadqiq – izoh). Doktorlik dissertatsiyasi. – Anqara, 2002. 276-bet.
3. H. Jo'rayeva. Devoni Sulton Husayn Boyqaro. Yig'ma-qiyosiy matn. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. 170-bet.

Dilafroz MUQUMOVA,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

SHAYX KAMOL XO'JANDIY VA RIYOZIY SAMARQANDIY IJODIDAGI MUSHTARAKLIK

Imomuddin Riyoziy Samarqandiy XV asrning ikkinchi yarmida yashagan shoirlardan bo'lib, manbalarda u haqidagi ma'lumotlar juda qisqa va, ko'pincha, takrorlardan iborat. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida uni Samarqandda tug'ilib, shu yerda vafot etganligini eslatadi [4: 48]. Manbalarga ko'ra, shoirning ma'naviy dunyosi yuksakligi va buyukligini ulug'lash uchun "Mavloni" yoki "Mavlaviy" faxriy unvoni ham berilgan. "Arafot ul-oshiqin" asari sohibi Riyoziy Samarqandiyning buyukligi haqida shunday deydi: "Mavloni Riyoziy Samarqandiy bilimining kamoli daraxt mevalari kabidir, hol va qolda esa u bo'stondagi sarvga monandir, o'tmishning rom etuvchi ozod va kayfiyati baland suvoriylaridandir. Zamonasining sohibfazilat, fahm-farosatli va xushtabiat shoirlari jumlasidan bo'ladi" [1: 1472]. Tazkiranavislarning fikriga ko'ra, Riyoziy o'z davri rasmiy ilmlarini to'liq egallagan va fan sohasida ulug' sohibmaqomlardan biri ekan. "Farhangi suxanvaron" asari muallifining ishorasiga binoan Riyoziy Dehlida yashagan [8: 407].

Riyoziy Samarqandiyning adabiy merosidan yagona she'riy devon yetib kelgan. Devonning qo'lyozma nusxalari haqida uni kirill xatida tartib berib nashr ishlarini amalga oshirgan Sahobiddin Siddiqov quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, Riyoziy devonining 12 ta qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, ular Sharqiy Berlin, India Offis (Hindiston), Britaniya muzeyi, Bangola, Leningrad, Dushanbe va Tbilisi kutubxonalari xazinasida saqlanmoqda". Riyoziy devonining eng qadimiy nusxasi milodiy 1483-yilda, ya'ni Charlz Reyning so'zlariga ko'ra, shoirning vafotidan to'rt yil o'tgach ko'chirilgan" [6: 12]. S.Siddiqov tomonidan nashrga tayyorlangan devon Sankt-Peterburg shahri qo'lyozmasining A 93-raqamli nusxasi asosida hozirlangan bo'lib, u 25 varaqli, unda 80 ta g'azal, 3 ta qit'a va 7 ta fard mavjud. S.Siddiqovning xabar berishicha, amalga oshirilgan nashrga Tojikiston Respublikasi FAning 611-qo'lyozma nusxasidan 1 ta ruboiy va 9 ta g'azal ilova etilgan [6: 12–13].

Shuni ta'kidlash kerakki, Riyoziy Samarqandiy, avvalambor, lirik shoir, uning she'rlarida muhabbat va mehr-u vafo

mavzulari yetakchilik qiladi. Shoir badiiy ijodidan meros qolgan kichik bir qismini o'qib, uning she'rlari Sa'diy, Amir Xusrav va Kamol she'riyatiga maktabidan fayz olib, so'zda komillikka va uslubda nafislikka erishganligini ko'rishimiz mumkin.

Shoir yozadi:

Kard peshi novaki on mah Riyoziy jon sipar,
Nest oshiq on, ki az tiri baloparhez kard. [6: 41].

Mazmuni:

Yorning tiri mijgoni balosidan kim qochadi,
Mijgoni go'zal oyga Riyoziy jonin qalqon qildi.

Riyoziy Samarqandiy she'riyatiga Kamol Xo'jandiy ijodining ta'siri katta bo'lgan. Kamol Xo'jandiy shunday shoir ediki, uning she'riyatdagi uslubi go'zallikda beqiyos bo'lib, ayniqsa, XV–XVI asrlarda ko'plab shoirlar uning uslubiga payravlik qilishni odatga aylantirgan edilar.

Adabiyotshunos olim Abdunabi Sattorzoda maqolasida shunday degan: "Tojik-fors adabiyotida go'zal ruhni oying go'zalligiga, qaddi-qomatni sarvga, lab va og'izni g'unchaga o'xshatish odat tusiga kirgan. Ammo Kamol har doim bu ma'nolarni yangi va o'ziga xos tarzda ifodalaydi, chunonchi:

Naboshad dar zamin sarve chu tu, bar osmon mohe,
Guvohi man bad-in ma'ni zaminu osmon boshad." [7: 8].

Mazmuni:

Sendek zaminda sarv yo'q, osmonda oy,
Shu ma'noda guvohim mani yer-u osmondir.

Xo'jandiy ijodiga xos yangi va betakror tasvirlar Riyoziy ijodida ham turfa shakllarda mavjudligini kuzatdik. Fors-tojik she'riyatida an'anaviy timsollarning barisini tahliliy nazardan o'tkazishning iloji yo'q, ammo obraz yaratishdagi eng muhim nuqtalarini tahlil qilishga jazm etdik. Eng avval, qad-qomat tasvirining she'riy timsoli bo'lmish sarvning ifodasiga e'tiborni qaratdik:

Kamol:
Gul hikoyat kard u sarv az nozikuvu lutfi yor,
Ob giryon omadu dar poyi inu on fitod. [9: 415].

Mazmuni:

Gul hikoyat qildi-yu sarv yorning nozikligin,
Yig'labon suv yiqildi sarv-u gul poyiga.

Riyoziy:

Peshi qaddi xush xiromat sarv az raftor mond,
Orazat gulro zi ro'yi noziki bar xor mond. [6: 38].

Mazmuni:

Qomating xushxiromi oldida sarv yurishdan to'xtadi,
Yuzing nozikligi gulni tikanga teng qildi.

Mazkur har ikki baytda ma'shuqaning qomat va rux-sorini ijodkorlar "sarv" va "gul"ga qiyoslab obrazlar ifodasi ta'sirchanligini oshirishga erishganlar. Birinchi baytda gul va sarv orqali yorning nozikligi va latofati tasvirlansa, ikkinchi baytda ma'shuqaning nozik va chiroyli yuzini "gul"ga, raftorini "sarv"ga qiyoslab tasvir jozibasiga erishilgan. Bu ikki shoir uslubda o'zaro mushtarak bo'lsa-da, ularning o'ziga xos uslub borligini ham ta'kidlash lozim. Misol:

Kamol:
Shoyad, ki biro'yad hama rah sarvi xiromon,
Z-on soya, ki az qaddi tu bar rahguzar aftod. [9: 411].

Mazmuni:

Istagim unsin yo'llarda sarvi xiromon,
Yo'lovchilarda sening qadding soyasin aksi bor.

Riyoziy:

Chandon, ki sarv bar tarafi bog' sar kashid,
Hargiz nakard bo qadi yoram barobar. [6: 60].

Mazmuni:

Bog'da qancha sarv o'sgan bo'lsa-da,
Hech teng kelolmas yorimning qaddiga.

Kamol o'z baytida sarvni dildor qaddi-qomati oldida hech narsa deb biladi va shoyad dildor qaddi sarvga soya solsa, shu soya tufayli yuzlab sarv unib chiqib, hatto oyoqqa kiradi, deydi. Riyoziyda ham xuddi shu ma'nolarga mutanosib ishoralar mavjud: bo'ston sarvi, ya'ni mavzunlikda, serviqorlikda, chiroyda mening yorimga tenglasha olmas, deyiladi.

Agar biz har ikki shoir ijodiga hayvonot olami tasviri va ifodasi bo'yicha e'tibor qaratsak, Kamol she'rlaridagi "it" timsolining Riyoziy g'azallarida ham uchrashini Xo'ja Kamol ta'sirining samarasi, deyishga haqlimiz.

Masalan:

Dili sadporai xudro zi shikofi sina,
Bikasham, peshi sagoni dari yor andozam. [6: 52].

Mazmuni:

Sadpora bo'lgan yuragimni yulib,
Yorning eshigi oldidagi itlariga tashlayin.

Kamol she'rlarida o'zini yor ko'chasidagi itlarga o'xshatib, "Ey, man sening itingman, bu olijanobni afv et" yoki "Do'stlarim meni sening iting deydi", deb yozsa, Riyoziy o'zining oshiqlikdagi devonaligini daydi itga tashbeh qiladi, zotan, shoir o'zini yor zulfi – zanjiriga bog'lanishga giriftor bo'lgan it deydi:

Kamandi zulf biksho az Riyoziy, chunki Majnun shud,
Sagi devonaro to chand dar zanjir medori?

Mazmuni:

Riyoziy Majnun bo'ldi undan zulfing qulfini yech,
Quturgan itni qachongacha zanjirband etasan?

"It" va "suyak" ma'no jihatidan bir-birini to'ldiradi va undan san'atkorona foydalanish har ikki ijodkor uchun xos hodisa. Kamol xarob holatdagi o'zining oriqligini, ko'pincha, iliksiz suyakka va beo'xshov shamoilga ega raqibini esa itga o'xshatadi.

Kamol:
Nasimi do'sti oyad sagoni ostonashro,
Zi ba'di murdan ar yak-yak bibo'yand ustuxoni man. [9: 951].

Mazmuni:

Do'stlik nasimi kelar ostonadagi itlardan,
O'limimdan keyin ham suyagimni hidlaydilar.

Basharti Riyoziy tasviridagi it timsoli bilan Shayx Kamol yaratgan it timsolini qiyoslasak, Riyoziy tasvirda ham Shayx Kamol uslubiga ergashganini ko'ramiz. Chunonchi:

Riyoziy:
Ustuxone zi tanam mondavu on ham ro'ze,
Bar sari ko'yi tu pomoli sagon xohad shud. [6: 40].

Mazmuni:

Tanimda bir suyak qolgan u ham bir kun,
Sening kuyingdagi itlarning poyiga tushar.

Xulosa qilib aytganda, bir shoirning boshqa shoirdan o'rganishi faqat vazn, qofiya, radif kabi she'r shakllaridan iborat bo'lib qolmay, balki boshqa unsurlarga ham e'tibor qaratishi tabiiy holdir. Zero bahramandlik degani shunchaki o'rganishdan iborat bo'lib qolmay, zamonlar osha ziynat olib kelgan an'analarga o'zining ulushini qo'shish ila o'lchanishi ham e'tiborlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avhadi Taqujuddin Muhammad. Arafot ul-oshiqin va arasot ul-oshiqin. – J.3. – Tehron, 1388.
2. Asarofarinon // Zeri nazari Muhammadrizo Nasiri. – J. 3. – Tehron: Anjumani osor va maforixi farhangi, 1384.
3. Zehni To'raqul. Suxanvaroni sayqali ro'yi zamin. – Dushanbe: Irfon, 1973.
4. Navoiy, Amir Nizomuddin Alisher. Majolis un-nafois. – Tehron, 1363.
5. Nafisi Said. Tarixi nazmu nasr dar Eron va dar zaboni forsi. – J.1. – Tehron, 1344.
6. Samarqandi Riyoziy. Devon // Tartibidhanda va muallifi sarsuxan Sahobiddin Siddiqov. – Dushanbe: Donish, 1947.
7. Sattorzoda A. Lutfi suxani Kamol yo muqaddimai bar hunari shoirii o' // Faslnomai ilmi-adabii Kamoli Xo'jandi. – N/4(8). – Xo'jand: Noshir, 2016.
8. Haympur. Farhangi suxanvaron. – J.1. – Tehron, 1368.
9. Xo'jandi Kamol. Devon // Tahriyai Abdujabbori Surush. – Xo'jand: Xuroson, 2015.

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHDAGI YANGICHA IZLANISHLAR

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi turli rakurslarda o'rganilib, har bir olim tomonidan o'ziga xos yo'nalishda, uslubda tadqiq va tahlil etilgan. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul ham Alisher Navoiy ijodi tadqiqi bilan 40 yildan ortiqroq shug'ullanib kelayotgan, navoiyshunoslikda o'z o'rni va alohida uslubiga ega zabardast olimlardan biri sifatida Navoiy ijodini o'rganish, tahlil qilishning yangicha tamoyillarini boshlab berdi.

Bu tamoyil, eng avvalo, Navoiy ijodini mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan tadqiq etish; 2) Sho'ro mafkurasi ta'sirida navoiyshunoslikda yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatish, kamchiliklarni to'ldirish; 3) shoir ijodining asl mohiyatini ochib berishda o'ziga xos yondashish prinsiplariga tayangan holda faoliyat olib borishda namoyon bo'lmoqda. Bu bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

1. Maktab o'quvchilari dunyoqarashiga mo'ljallab asarlar yaratish. Ibrohim Haqqulning "Zanjirband sher qoshida", "Kamol et kasbkim..." to'plamlariga kirgan maqolalari Navoiy asarlarini o'quvchilar yoshi, saviyasini hisobga olgan holda amalga oshirilgan yangicha tadqiqotlar hisoblanadiki, ular yangi fikr va mushohadalarga boy ekanligi bilan ajralib turadi.

Shuni e'tiborliki, olim "Zanjirband sher qoshida" kitobiga kirgan maqolalarning deyarli hammasi keng kitobxonlar doirasining saviyasi, dunyoqarashini hisobga olgan holda, dastlabki satrlardan o'quvchining diqqatini o'ziga tortadigan uslubda yozilgan. Aksar maqolalar qiziqarli rivoyat yoki aniq dalillarga to'yingan fikrlar bilan boshlanadi.

G'azallar sharhidagi o'ziga xoslik. Alisher Navoiy g'azallari sharhida turlicha talqinlarga duch kelamiz. Jumladan, shoirning "Ishq aro dushvordir bo'lmoq kishi hamdardi shoh..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azali bir nechta adabiyotshunoslar tomonidan turlicha tahlil etilgan. Navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov g'azalni tahlil etar ekan, asosiy diqqatini Navoiyning insonparvarlik g'oyalari qaratadi va shoir ushbu g'azal orqali shohlarning zo'ravonligini dadil ayta olganligini ta'kidlaydi. Olim g'azal tahliliga sotsiologik metod asosida yondashadi, Navoiy yashagan davrda bu kabi oshiq va shoh nisbatini faqat "katta obro'ga va mavqega ega bo'lgan kishilargina ayta olishi mumkin edi" [3: 204] degan xulosaga keladi. Ko'rinadiki, g'azal tahlilida oshiq (gado) va shoh o'zaro ishqda qiyoslangan bo'lsa-da, olim ularning ijtimoiy mavqeyiga ham e'tiborini qaratgan.

Adabiyotshunos Ergash Ochilov ushbu g'azalni ancha kengroq tahlil etgan. Har bir baytning nasriy bayoni tuzilib, mazmuni yoritilgan. Olim g'azal shoh va gadoning ishqdagi mavqe-maqomi xususidalgini ta'kidlab, g'azalning umumiy mazmunini yaxshi yoritib bera olgan. Biroq olim tomonidan keltirilgan ayrim fikrlar e'tirozli. Jumladan, g'azalning:

*Shohkim, matlubig'a qulluq buyurgay – ishq emas,
Kimki oshiqdur, anga zor-u zabunlig'dir guvoh, –*

bayti tahlilidagi "Dunyoviy muhabbat o'zaro tenglik asosiga quriladi. Lekin so'z ilohiy mahbubaga – Ollohga oshiqlik xususida borar ekan, ma'shuqaning har jihatdan tengsizligi-yu oshiqning esa zor-u ojizligi haqida gapiriladi..." [2: 41] kabi fikrlar g'azal mazmuni bilan o'zaro bog'lanmaydi.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ham ushbu g'azal tahliliga o'ziga xos uslubda yondashgan. Olim g'azalda ishq va oshiqlik tazodiy tamoyil asosida yoritilgan deb hisoblaydi va har bir baytni sharhlar ekan, oshiqning shohdan yuqori mavqeda turganligini ko'rsatishga intiladi. Chunonchi, g'azalning ikkinchi:

*Shoh dodimg'a netib yetsunki, mulki ishq aro
Qadri oliy shoh ila tengdur gadoyi xoki roh, –*

bayti tahlilida Ergash Ochilov "Ishq olamida o'z ahvolidan shohga arz qilishning foydasi yo'q, chunki bu yerda oliynasab shoh bilan tuproqqa teng gadoning martabasi barobar" [2: 41], deya ularning tengligini ta'kidlasa, I.Haqqul bayt nasriy bayonidan so'ng "Ishqda ijtimoiy, iqtisodiy tengsizlik yo'q. Lekin sevgi va sadoqatda farqlar bor [4: 149], deya izoh keltirib, oshiq mavqeyini yuqori qo'yadi, keltirilgan izohlar bevosita keyingi baytga bog'lanib, olim sharhlari o'quvchida e'tiroz tug'dirmaydi. Aytish joizki, tahlillardagi izchillik olim uslubiga xos alohida fazilatlaridan biridir.

Har uchala olim tahlili matnga tayangan holda o'z asoslariga ega. Tahlillardagi farqlar shoir adabiy-g'oyaviy maqsadini qanday anglashdan kelib chiqqanligida ko'rinadi. A.Hayitmetov Navoiyning g'oyaviy maqsadi shoh va oshiq(faqir)ning ham ishqdagi nisbati asosida ijtimoiy hayotdagi tengsizligini ko'rsatish deb hisoblagan bo'lsa, E.Ochilov shoir ularni ilohiy ishqda solishtirishni maqsad qilganligini ochib berishga intilgan. I.Haqqul tahlilida esa Navoiy nazdidagi oshiqlikning shohlikdan afzalligini ko'rsatish ustuvorlik qiladi.

Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan "Parim bo'lsa uchub qochsam..." deb boshlanuvchi tasavvufiy g'azali ham I.Haqqul tomonidan sinchkovlik va teran mushohada asosida talqin etilgan. Olim talqinlarining o'ziga xosligi – ularning kirish qismidayoq yaqqol ko'rinadi. G'azal tahliliga o'tishdan avval o'quvchida g'azalni tushunish uchun zarur ko'nikmani hosil qilishga intiladi. Ushbu g'azal tahlilida ham shunday yo'l tutilgan bo'lib, olim dastlab tasavvufning islomiy asoslari, undagi xilvat, uzlat yo'llarini qisman izohlaydi. Bu ma'lumotlarni bilishning zarurligi g'azalning dastlabki bayti tahlilidayoq anglashiladi. Binobarin, tasavvufiy matn tahlili har qancha mukammal bo'lsa-da, o'quvchi tasavvuf haqida tushunchaga ega bo'lmasa, uni tushuna olmaydi.

*Chiqib bu dayrdin Isog'a nevchun hamnafas bo'lmay,
Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin qanotim bor, –*

misralarini sharhlar ekan, olim baytdagi “pardalangan” ma’no qatlamlarini ochishga intiladi. Dastlab kalit so’zlar topiladi. Kalit so’zlar sifatida “tajarrud” va “himmat” so’zlarining ma’nolari ochib beriladi. Tajarrud so’zi Navoiy asarlari lug’atida aloqasizlik, chetlashish, yolg’izlik, hamma narsadan kechish ma’nolari izohlanganini aytadi. Biroq olim nazdida bayt tahlilida bu izohlaning o’zi yetarli emas. Chunki bu izohga tayanilsa, Navoiy yolg’izlik, so’qqabosh yashash, tanholikda kun kechirishni targ’ib etgan bo’ladi. Olim Navoiy hech qachon bunaqangi “tajarrudni” targ’ib etmasligini, Payg’ambarimiz sunnatlariga qarshi hatto imo-ishorat ham qilmasliklarini bayt tahlili orqali teran ochib beradi. Bayt mazmunini ochish uchun kalit so’zlarning lug’aviy emas, istilohiy ma’nolarini e’tiborga olish lozimligini ta’kidlaydi. O’z mulohazalarini Sulton Valad, Ibn Arabiy kabi tasavvuf allomalarining asarlariga murojaat etib dalillaydi. Tajarrud so’zining shoir asarlarida aksariyat holda Isoyi Ruhulloh bilan yonma-yon kelishiga diqqat qaratib, shu so’zlar qo’llangan yana bir baytni misol keltiradiki, bu bayt sharhi orqali yuqoridagi misralarning yanada kengroq ma’nosi ochiladi. Ko’rinadiki, Navoiy istagan tajarrud – shahvatdan yiroqlashish, qalbni ishq-muhabbatdan boshqa hamma narsadan xalos aylash ekan. I.Haqqulov sharhlarining o’ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, sharhlar boshqa g’azallarni tushunishda ham qo’l keladi.

I.Haqqul o’z sharhlarida Navoiy g’azallaridagi asosiy xususiyatlardan biri bo’lmish tadjiriylikka alohida ahamiyat beradi. Shu sabab kitobxonga sekin-asta rivojlanib borayotgan fikr va g’oyani anglash osonlashadi.

Aytish o’rinliki, har bir adabiyotshunos matnni tahlil va talqin etar ekan, unga o’zi yashagan zamonning ruhi, mafkurasi shubhasiz ta’sir ko’rsatadi. A.Hayitmetov tahlilida sotsialistik tuzumning ta’siri seziladi. Ibrohim Haqqulov tahlillaridagi teranlik, fikr erkinligi va mafkuradan xolilik esa mustaqillik sharofati tufaylidir.

Ibrohim Haqqul uslubiga xos yana bir xususiyat tahlil-larda dalillash usulidan foydalanishidir. Yuqoridagi g’azallar tahlilida a) tasavvuf allomalarining ilmiy asarlari; b) Navoiy ijodiga ta’sir etgan va Navoiy ijodidan ta’sirlangan ijodkorlar asarlari; c) shoirning o’z asarlariga asoslanib, misollar orqali dalillash usuli ustuvor, bu esa talqinning ilmiyligi va keng ko’lamlilikini ta’minlashga xizmat qiladi.

Navoiy asarlarini o’rganish metodologiyasi yo’lida izlanishlar. Adabiyotshunos I.Haqqulning Navoiy ijodini o’rganish yo’llari ham yangicha va o’ziga xosdir. Shoir ijodini o’rganishda nimalarga ahamiyat qaratish lozimligini olim ko’plab maqolalarida ta’kidlagan va o’zi ham doim shularga amal qilgan. “Badiiy matn va tahlil

muammolari”, “Tamalsiz talqin g’alatdir”, “She’r tarixi va haqiqat uyg’unligi”, “Millat va mangulik timsoli” maqolalari shular jumlasidandir.

Eng avvalo, ta’kidlash zarurki, I.Haqqul Navoiyning ijod “qasri”ga kirishdan oldin muqaddas bir ibodatxona – san’at koshonasiga kirishdek tayyorgarlik ko’rish lozim deb hisoblaydi. Bu tayyorgarlik ma’noning beshigi ham, eshigi ham bo’lgan ilm-ma’rifatdir. Navoiy ijod olamiga intilishning bosh yo’li irfon ekanligini teran anglangan olimning har bir maqolasi va talqinlarida har bir aytilgan fikr ilmiy va irfoniy asoslarga ega ekanligi ko’rinadi. Olim chinakam matn tahlilini amalga oshirish, ya’ni “matnda mavjud hamma narsani, hattoki, harf tovushlari, ohang, rang tovlanishlarini ham ma’nolashtirish, muallifning shaxsiy holat, kayfiyat, ruhoniyligi bilan aloqadorlikda yoritish” [4: 14] orqaligina she’rni to’g’ri sharhlash mumkin deb hisoblaydi.

Ikkinchidan, Alisher Navoiy ijodini, umuman olganda, Sharq mumtoz adabiyotini Quroni Karim va Payg’ambarimizning hadislarini chetlab o’tib o’rganish mumkin emas. I.Haqqul har bir tahlilida bu masalaga alohida urg’u beradi, navoiyshunosligimizda aynan shu masalani to’g’ri anglanmaganligi sabab yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatishga intiladi. Olim Sharq mumtoz adabiyotining G’arb adabiyotshunosligi tajriba va tushunchalariga tayanib tahlil va talqin etilishi mumtoz matn tahlilida g’ayriilmiy fikr-mulohazalarning ko’payishiga sabab bo’lishini ta’kidlaydi. Olimning tahlilchi oldiga qo’yadigan muhim talablaridan biri mavzu mohiyatini to’g’ri aniqlab, mushohadada ilmiylikka suyanishdir [4: 76].

Uchinchidan, Sharq mumtoz she’riyatida shoirlar mavzu jihatdan bir-birlariga o’xshash ijod etgan bo’lsa-lar-da, ularning shaxsiyati o’zgachaligi muammosi. Olim badiiy ijodda shaxsiyat hal qiluvchi omil deb hisoblaydi, shu sabab Navoiy ijodini tahlil etganda uning birovlar-nikiga o’xshamagan kuchli shaxsiyatini esda tutish lozimligini aytadi. Uningcha, shoirning ijodda yaratgan yangiligi ham, hayotni mushohada etish mahorati ham uning shaxsiyati bilan bog’liq bo’ladi [5: 96].

To’rtinchidan, Navoiy she’riyatidagi muvozanat va ichki mutanosiblikni, ma’no-mohiyatdagi tadjiriylikni anglash va uni buzmaslik, aks holda tahlilda “Navoiyni Navoiydan yiroqlashtirish” holati yuzaga keladi deb hisoblaydi.

Beshinchidan, Navoiy ijodini talqin etish maqsad qilinar ekan, u mansub tariqi oliya, ya’ni naqshbandiylik ta’limotidan xabardor bo’lish lozim. Zero, Navoiyni ulug’ Naqshband shaxsiyati va naqshbandlik ma’rifatidan ajratish mumkin emas [4: 83].

Xulosa qilib aytganda, olimning maqolalari ilmiy mushohadalarga boyligi, teranligi, falsafiy tafakkurning kengligi, qiziqarliligi sabab kitobxonlar tomonidan sevib o’qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – Toshkent: Tamaddun, 2012.
2. Ochilov E. Bir hovuch dur. – Toshkent: O’zbekiston, 2011.
3. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Haqqul I. Navoiyga qaytish-2. – Toshkent: Fan, 2011.
5. Haqqul I. Navoiyga qaytish-3. – Toshkent: Tafakkur, 2016.

Максуда НАЖМИДИНОВА,
учитель средней общеобразовательной школы № 60 Гиждуванского района Бухарской области

ЗАГОВОР «ПУШКИН»: ТАЙНА ОСТАЕТСЯ НЕРАСКРЫТОЙ

Многие современники Александра Сергеевича Пушкина, даже друзья, отмечали, что у поэта несносный характер. Добрейший Жуковский пенял Пушкину на то, что тот сам недостойн своего дара, просил беречь себя ради славы России. Пушкин смеялся, обещал, что уже скоро он остепенится, что будет себя беречь не столько для славы, сколько для будущих внуков. А потом было 27 января 1837 года...



Долгие годы смерть Пушкина от пули Дантеса казалась очевидным финалом драмы ревности. Настойчивые ухаживания блестящего кавалергарда Дантеса за красавицей Пушкиной и неожиданная помолвка его с Екатериной Гончаровой, старшей сестрой Н.Н.Пушкиной, не могли не обратить на себя внимания петербургского света.

В наше время одной из наиболее распространенных стала версия о заговоре, опровергающая концепцию семейной драмы. В заговор входили осмеянный Пушкиным министр просвещения С.Уваров, министр иностранных дел Нессельроде со своей женой, ненавидевшие Пушкина, голландский посланник Геккерн, дальняя родственница жены Пушкина Идалия Полетика.

Враги Пушкина. Во главе заговора, вероятно, стоял голландский дипломат барон Геккерн, но за что он ненавидел семейство Пушкина до сих пор неясно. Геккерн – господин солидный во всех отношениях, был очень популярен среди «золотой молодежи». Петер-Голландия уже тогда давал фору всем странам Запада и Востока в области сексуальной революции, а ее посланник при русском дворе был в большой моде. Молодежь из кружка Геккерна развлекалась и веселилась как могола: всеми возможными и невозможными способами. Например, молодые люди рассылали уважаемым господам анонимные послания-дипломы, удостоверяющие какое-либо оскорбительное звание. Долгие годы криминалисты бились над проблемой авторства анонимных пасквилей, которые так оскорбили Пушкина и подтолкнули его к гибели.




Эксперты-графологи, исследовавшие массу архивных документов, пришли к заключению, что писал анонимки князь П.В.Долгоруков, который лично к Пушкину никакого отношения не имел, он просто был питомцем Геккерна.

Идалия Полетика, родственница и подруга жены Пушкина, отличалась веселостью и живостью характера, была красива, умна, занимала в петербургском бомонде почетное место. Полетика подстроила в своей квартире ловушку для Натали: пригласила подругу в гости, не предупредив ее о том, что та окажется в пустой квартире наедине с Дантесом.

Дантес с пистолетом в руках угрожал сиюминутным самоубийством, если Наталья Николаевна не уступит его мольбам. «Неожиданно» нагрянули гости и «зафиксировали» свидание. После смерти Пушкина Полетика горячо сочувствовала «пострадавшему» Дантесу и долгие годы поддерживала с ним и Геккерном добрые отношения.

Петр Вяземский в письме к А.О.Смирновой-Россет писал: «Пушкина в гроб положили – и резали жену его городские сплетни, людская злоба, праздность и клевета петербургских салонов, безыменные письма. Пылкая, страстная душа его, африканская кровь не могли вытерпеть раздражения, произведенного сомнениями и подозрениями общества...».



Какое-то роковое предопределение стремил Пушкина к гибели..., в этом был какой-то фаталитет, который невозможно объяснить, и о котором мы знаем «неполную истину».

Подвигом стало то, как он умирал. А умирал он долго, почти двое суток, испытывая жесточайшие мучения. Дежурившие у постели друзья просили его: «Не стыдись боли своей, стонай, тебе будет легче...». «Нет, не надо стонать; жена услышит; и смешно же, чтоб этот вздор меня пересилил; не хочу», – отвечал отрывисто Пушкин. Перед смертью он окончательно примирился с Богом. Соборовавший его старик-священник вышел искренне растро-

ганным: «Я стар, мне уж недолго жить, на что мне обманывать?.. Я для себя самого желаю такого конца, какой он имел». Пушкин примирился с царем, ласково простился с друзьями. Он был окружен близкими, но оставался один перед лицом смерти со своей горькой тайной. В последнюю минуту схватил руку друга: «Ну, пойдем же, пожалуйста, да вместе!»

«Прощайте, друзья!» – сказал, обращаясь к книгам. «Не упрекай себя моей смертью: это – дело, которое касалось одного меня», – сказал жене». «Просите за Данзаса..., он мне брат», чтобы отвести наказание от секунданта.

Клара УСМОНОВА,

учитель высшей категории средней общеобразовательной школы № 20
Избасканского района Андижанской области

ОПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ЗНАКИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

«Важнейшая задача цивилизации – научить человека мыслить».

Т.Эдиссон

Воспитание интереса к русскому языку как учебному предмету – одна из актуальных задач учителя. Внимание детей привлекают новизна учебного материала, расширение уже усвоенных знаний, их практическая значимость. Один урок не может полностью решить всех задач обучения, его структура не может быть навязана извне. Соблюдая основные требования к уроку, учитель вносит в сочетание его компонентов свое искусство, свой методический почерк, зависящий от характера класса, а также от индивидуальных черт педагога.










Важно помнить мысль К.Д.Ушинского: «Дитя мыслит формами, красками, звуками, ощущениями, вообще... отсюда необходимость наглядного обучения, которое строится не на отвлеченных представлениях и словах, а на конкретных образах, непосредственно воспринятых ребенком».

Наглядность в первую очередь есть экономия времени, снимает усталость у учеников и надолго остается в памяти. Дети всегда запоминают лучше то, что интересно. Мы придумали различные знаки, названные «Опознавательными знаками», систематизировали их и проверили на восприятие учащимися. Дети стали внимательнее, старательнее, стали излагать свои мысли без посторонней помощи. Сейчас накопилось 22 знака, но постепенно их круг расширяется.

«Опознавательные знаки»

№	Знак	Название
1.		Вопрос
2.		Стихотворение
3.		Скороговорки

4.		Пословицы, поговорки
5.		Песни
6.		Монолог
7.		Диалог
8.		Ответ
9.		Загадки
10.		Составление предложений
11.		Правила вежливого тона
12.		Синонимы, антонимы, омонимы
13.		Фразеологизмы

14.		Свободный вопрос
15.		Правила
16.		Деловые бумаги
17.		Тестовые вопросы
18.		Сказки
19.		Работа по картине
20.		Частушки
21.		Шутки
22.		Кроссворды

Опознавательные знаки используются при ведении уроков русского языка и литературы с использованием «словарей-справочников». Это особый метод ведения нестандартных уроков. Использование словаря-справочника со знаками состоит из трех этапов: 1-й – 5-е классы; 2-й – 8-е; 3-й – 11-е классы.

Что такое словарь-справочник? Использование на уроках словаря-справочника расширяет кругозор учащихся, развивает разговорную речь, умственное мышление учащихся, воспитывает самостоятельность на уроках, учит свободно выражать свои мысли, демонстрировать знания и навыки без посторонней помощи.




Словарь-справочник – это как бы настольная книга учащихся, которая в любое время придет ему на помощь.

Словари-справочники можно использовать на уроках повторения, закрепления, при объяснении нового материала и т. п. Ученик воспринимает информацию, когда он слышит, видит и пробует, поэтому каждый урок следует проводить наглядно, с использованием опознавательных знаков и ИКТ.

Как мы воспринимаем информацию?

1.	Когда мы слышим	40%
2.	Когда мы слышим и видим	60%
3.	Когда мы слышим, видим и пробуем	75%

Например, урок русского языка в 6-м классе. После того как ученик ответил по заданию, он берет из конверта три знака и показывает классу.

1.  – правила, 2.  – составление предложений,
3.  – песни.

Ученики по знакам задают вопросы отвечающему ученику. По первому знаку спрашивают правила по материалу, который проходили, выучили и записали в тетрадь. Вопрос учащихся: Что такое суффикс?

Ученик рассказывает правила о суффиксе: суффикс – это часть слова, всегда стоит после корня и изменяет значение слова. Например, писать – писатель, сад – садовник.

По второму знаку: составь предложение со словом *учитель*.

Ответ: Прозвенел звонок, в класс вошел учитель.

По третьему знаку: спой песню «Если с другом вышел в путь».







Ученик поет эту песню.

За короткий срок можно опросить несколько учеников. За время ответов учеников учитель может проверить домашнее задание учащихся.

При постоянном повторении даже слабо владеющие языком ученики могут научиться говорить и выражать мысли на русском языке.

При ознакомлении со знаками учитываются возрастные особенности учащихся. В начальных классах используется часть знаков, которая наиболее подходит к возрастной группе. Например, пословицы, сказки, скороговорки, песни, стихи... Постепенно в зависимости от возраста учащихся количество знаков увеличивается, программа усложняется. Полученные на начальном этапе знания служат фундаментом при переходе к более усложненному варианту уроков.

Как ведется «Словарь-справочник»? Для словарей-справочников ученики используют общую тетрадь в клетку:

СЛОВАРЬ-СПРАВОЧНИК		
№	Знаки	Содержание работы
1.		Где расположен Узбекистан?
2.		Узбекистан расположен в Средней Азии.
3.		Расскажите стихотворения Р. Фархади «Родины просторы»
4.		Скажите скороговорку «Ела - ела дуб - дуб, поломала зуб - зуб».
5.		Расскажите пословицы о Родине
6.		1. Родная земля, золотая колыбель. 2. Жить - родине служить. 3. Соловей любит цветник, а человек родину.

СЛОВАРЬ - СПРАВОЧНИК		
№	Знаки	Название знаков
1		Спойте песню «Если с другом вышел в путь»
2		Составь монолог на тему «Наш класс»
3		Наш класс находится на первом этаже. Он большой и светлый. В классе есть 15 парт, 30 стульев, один шкаф, одна доска и много разных цветов.
4		Составь диалог на тему «В библиотеке»
5		- Здравствуйте, Лола Алиевна! - Здравствуй, Анара! - Дайте мне, пожалуйста, книгу «Русские народные сказки» - Хорошо, вот тебе книга. - Спасибо. До свидания.

Основная задача современного образования заключается не в том, чтобы дать знания, а чтобы научить учащихся самостоятельно добывать их при помощи интерактивных методов. В нынешнем образовании ученик не должен быть пассивным слушателем, только воспринимающим знания, он должен стать активным участником процесса получения знаний. Мы, учителя, должны подготовить свободно мыслящих, инициативных и деятельных выпускников, способных приносить пользу народу и своей родине.

Как показала практика, занимательные упражнения вызывают большой интерес у учащихся и придают живость практическим занятиям. Сама специфика игровых заданий способствует возникновению определенного азарта, состязательности, положительных эмоций, повышает их заинтересованность в конечном результате и приводит к более глубокому усвоению изученного языкового материала.

Шоира САМИЕВА,

учитель средней школы №60 Гиждуванского района Бухарской области


ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ ИГРА «ЛИТЕРАТУРНОЕ ВЕРЕТЕНО»


(внеклассное мероприятие, посвященное жизни и творчеству А.С.Пушкина)

(для 8-х классов школ с узбекским языком обучения)

Оформление помещения: портреты А.С.Пушкина, альбомы с фотографиями, буклеты, рефераты, выставка книг писателя, подготовленная учениками афиша.

Музыкальное сопровождение. На мониторе демонстрируются слайды из жизни и творчества поэта.





